

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasasi

Ro'yxatga olindi

№ \_\_\_\_\_

2019-yil " \_\_ " \_\_\_\_\_

«TASDIQLAYMAN»

O'quv ishlari bo'yicha prorektor,

D.Xolvatov

« \_\_ » \_\_\_\_\_ 2021 yil



*Handwritten notes in blue ink:*  
Hozirgi  
mijoz  
Teg  
yozilgan  
va qayta  
uzatish  
uzatish  
uzatish

“ARUZ VAZNI”

fanidan

4-kurs chun

O'QUV-U SLUBIY

MAJMUA



Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar

Ta'lim yo'nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

Namangan – 2021

O'quv-uslubiy majmua Namangan davlat universiteti kengashining 2021-y. "27" avgust 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi

**Tuzuvchi:** **A.Qurbonov** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, доцент

**Taqrizchilar:** **f.f.n. dots. M. Sulaymonov**  
**f.f.n. O.Karimov**

O'quv-uslubiy majmua o'zbek tili va adabiyot kafedrasining 2021-yil \_\_\_\_\_-avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya qilingan.

**O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasini**  
**mudiri:** **dots. M.Sulaymonov**

O'quv-uslubiy majmua filologiya fakulteti kengashida muhokama qilingan va foydalanishga tavsiya etilgan (2021-yil 28-avgustdagi 1-sonli bayonnoma).

**Fakultet dekani:** **f.f.n. R.Zamilova**

**Kelishildi:**

**NamDU o'quv-uslubiy**  
**bo'limi boshlig'i:** **H.Ibrohimov**

## MUNDARIJA

I.	O'quv materiallari	
	Ma'ruzalar matni.....	
	Amaliy va seminar mashg'ulotlari ishlanmalari.....	
	Laboratoriya mashg'ulotlari	
II.	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari.....	
III.	Kurs ishlari va kurs loyihasi.....	
IV.	Glossariy.....	
V.	Ilovalar:	
	Fan dasturi.....	
	Ishchi fan dasturi .....	
	Tarqatma materiallar.....	
	Testlar .....	
	Baholash mezonlarini qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.....	
	Fanni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.....	
	O'UMning elektron varianti	

## 1-мавзу: Kirish. Aruz vaznining o'ziga xos xususiyatlari. Qisqa va cho'ziq bo'g'inlar

**Режа:**

**1. Aruz vaznining o'ziga xos xususiyatlari.**

**2. Қисқа бўғинлар.**

**3. Чўзиқ бўғинлар.**

Aruz Sharq xalqlari adabiyotida juda qadimiy tarixga ega vazn bo'lib, dastlab arab adabiyotida vujudga kelgan. IX asrdan boshlab aruz fors-tojik adabiyotida ham asosiy vaznga aylandi. Aruzning turkiy xalqlar adabiyotiga kirib kelishi XI asrga to'g'ri keladi. Turkiy adabiyotda aruz vaznida yozilgan birinchi asar Yusuf Xos Hojibning 1079 yilda yozilgan «Qutadg'u bilig» asaridir. Yusuf Xos Hojibdan boshlab to XX asrning boshlariga qadar yashab ijod etgan barcha shoirlar: Ahmad Yugnakiy, Pahlavon Mahmud, Xorazmiy, Sayfi Saroyi, Hofiz Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Bobur, Xoja, Turdi, Mashrab, Munis, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat va boshqa so'z san'atkorlari o'z asarlarini aruz vaznida bitganlar. Aruz vaznida asarlar yozish an'anasi shu kunlarda ham davom etmoqda.

Aruz haqidagi ilmga asos solgan kishi ham 8-asrda yashab ijod etgan arab olimi Xalil ibn Ahmaddir. Bu haqda Alisher Navoiy aruz vazniga bag'ishlangan «Mezon ul-avzon» asarida shunday deb yozadi: «*Xalil ibn Ahmad rahmatullohki, bu fanning voziidur, chun arab ermish*» (Mazmuni: *Aruz vaznining asoschisi Xalil ibn Ahmad rahmatullohdirki, arab ekan*). Xalil ibn Ahmad arab adabiyotida mavjud bo'lgan vaznning o'ziga xos xususiyatlarini g'oyat aniq va mukammal bayon qilib, uni o'zi yashagan vodiyning nomi bilan ataydi. Bu haqda Alisher Navoiy shunday deb yozadi: «*Va aning yaqinida bir vodi y ermishki, ani Aruz derlar ermish va ul vodiya a'rob uylarin tikib, jilva berib, bahog'a kiyururlar ermish. Va uyni arab bayt der. Chun baytlarni bu fan bila mezon qilib, mavzunni nomavzundin ayururlar, go'yoki qiymat va bahosi ma'lum bo'lur, bu munosabat bila «aruz» debturlar*». (Mazmuni: *Va Xalil ibn Ahmadga yaqin bir joyda Aruz deb atalgan vodi y bo'lib, u vodiydagi arablar uy (chodir) tikib, ularni bezatib, qimmat bahoda sotar ekanlar. Arablar uyni bayt deb ataydilar. Aruzni ham baytlar uchun mezon qilib, vaznlisini vaznsizidan ajraturlar, shunda ularning qiymati va bahosi ma'lum bo'lur. Shu munosabat bilan (bu vaznga) «aruz» deb nom berganlar*).

Xalil ibn Ahmad aruzning nomi bilan birga, bayt va rukn tushunchalarini ham Aruz vodiysidan olgan: «*Baytniki, uy oti birla atabdurlar, munosabati muni debdurlarki, uyning chun binosi to'rt rukn biladur, bu baytning ham binosi to'rt rukn biladur*». (Mazmuni: *Baytga shuning uchun ham bayt (uy) deb nom berganlarki, uy to'rt ustun ustiga bino qilinganidek, baytning ustuni ham to'rt rukndir*). Demak, *bayt uy* degani bo'lsa, *rukning* ma'nosi *ustun*. Navoiyning

ta'kidlashicha, uy to'rt ustun ustiga tiklanganidek, baytning asosini ham to'rt rukn tashkil qiladi.

***Aruz vaznining o'ziga xos xususiyatlari:  
qisqa va cho'ziq bo'g'inlar***

**Vazn** so'zining lug'aviy ma'nosi **o'lchov** bo'lib, adabiyotshunoslikda vazn deyilganda, she'riy asardagi misralarning ma'lum o'lchovlarda yozilishi tushuniladi. Hozirgi zamon adabiyotshunosligida vaznning asosiy **o'lchov** birligi **bo'g'in** bo'lib, she'riy asarning vaznini belgilashda misralardagi bo'g'inlarning ikki xususiyati hisobga olinadi:

- 1) bo'g'inlarning miqdori;
- 2) bo'g'inlarning sifati.

O'zbek she'riyatida vaznlar misralardagi bo'g'inlarning miqdori va sifatidan kelib chiqib ikkiga bo'linadi:

- 1) barmoq vazni;
- 2) aruz vazni.

**Barmoq vazni misralardagi bo'g'inlarning miqdor jihatidan tengligiga asoslangan vazndir.** Barmoq vazni talabiga ko'ra, she'riy misralardagi bo'g'inlarning soni bir-biriga teng bo'lishi lozim. Masalan, quyidagi misralarning har birida 7 tadan bo'g'in bor:

- Kun chosh–goh–dan oq–qan–da, (7)  
Qu–yosh tik–ka boq–qan–da, (7)  
Qo'z–g'ol–gan ka–bi bo'–ron, (7)  
Gu–vil–lab qol–di os–mon. (7)

**H.Olimjon. Semurg'**

Demak, bu she'r **7 bo'g'inli barmoq vaznida** yozilgan.

Quyidagi misralarda esa 9 tadan bo'g'in bor:

- El so'y–lar–kan do–im yo–mon–ni, (9)*  
*A–ta–may–di hech bir O–mon–ni. (9)*

**H.Olimjon. Zaynab va Omon**

Demak, bu she'r **9 bo'g'inli barmoq vaznida** yozilgan.

Aruz vaznida ham misralardagi bo'g'inlar miqdor jihatidan teng bo'lishi lozim. Masalan, Navoiyning «Kelmadi» radifli mashhur g'azalidan olingan quyidagi misralarda 15 tadan bo'g'in bor:

- Ke–cha kel–gum–dur de–bon ul sar–vi gul–ro' kel–ma–di, (15)  
Ko'z–la–rim–ga ke–cha tong ot–qun–cha uy–qu kel–ma–di. (15)

Biroq aruz vaznidagi bo'g'inlarning barmoq vaznidagi bo'g'inlardan jiddiy farq qiladigan jihatlari bor: birinchidan, bo'g'inlar aruz vaznida bo'g'in emas, **hijo** deb ataladi, ikkinchidan esa, aruz vaznida misralardagi bo'g'inlarning miqdor jihatidan teng bo'lishining o'zi kifoya emas: bo'g'inlar miqdor jihatidan teng bo'lishi bilan birga, sifat jihatidan ham bir xil bo'lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, **aruz**

*she'riy misralardagi bo'g'inlarning miqdor jihatidan tengligi bilan birga, sifat jihatidan ham bir xilligiga asoslangan vazndir.*

Bo'g'inlarning *sifati* deyilganda, ularning *qisqa, cho'ziq* yoki *o'ta cho'ziqligi* tushuniladi. Shunga ko'ra, hijolar uch xil bo'ladi:

1) *qisqa*;

2) *cho'ziq*;

3) *o'ta cho'ziq*.

Ma'lumki, bo'g'inlar o'zbek tili darslarida ikkiga bo'linadi: 1) ochiq; 2) yopiq. Unli tovushlar bilan tugagan bo'g'inlar ochiq, undosh tovushlar bilan tugagan bo'g'inlar esa yopiq bo'g'in deyiladi. Garchi qisqa va cho'ziq bo'g'inlar bilan ochiq va yopiq bo'g'inlar orasida ma'lum aloqadorlik bo'lsa ham, ular boshqa–boshqa tushunchalardir: ochiq bo'g'in qisqa bo'g'in, yopiq bo'g'in cho'ziq bo'g'in yoki buning teskarisi: yopiq bo'g'in qisqa bo'g'in, ochiq bo'g'in cho'ziq bo'g'in emas. Qisqa va cho'ziq bo'g'in tushunchasi, avvalo, unli tovushlardagi cho'ziqlik va qisqalik bilan bog'liq. Binobarin, qisqa va cho'ziq bo'g'inlarni bir-biridan farqlash uchun, avvalo, qisqa unli nima-yu, cho'ziq unli nima – ularni bilib olish lozim.

Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilida 6 ta unli tovush bor: a, o, u, o', i, e. Lekin ular qisqa va cho'ziq unilarga ajratilmaydi, chunki o'zbek tilida cho'ziq unililar yo'q. Unli tovushlar biroz cho'ziqroq talaffuz etiladigan so'zlar esa yo arabcha, yoki forscha so'zlardir. Unlilarning qisqa-cho'ziqligi fors va arab tillari uchun xos xususiyat. Masalan, fors tilida ham o'zbek tilidagidek 6 ta unli tovush bor: a, o, u, o', i, e. Lekin ular, o'zbek tilidan farqli o'laroq, ikkiga bo'linadi: 1) qisqa: a, o', e; 2) cho'ziq: o, u, i. Arab tilida esa 3 ta unli bor: a, u, i. Lekin ana shu unlilarning ikki xil ko'rinishi bor: 1) qisqa: a, u, i; 2) cho'ziq: a, u, i. Fors va arab tillaridagi *qisqa unililar qisqa, cho'ziq unililar esa qisqa unililarga nisbatan ikki baravar cho'ziqroq* talaffuz qilinadi.

*Eslatma: Arabcha va forscha so'zlardagi unlilarning cho'ziqligini kirill yozuvida ham, lotin yozuvida ham aks ettirib bo'lmaydi. Shuning uchun shartli belgilardan foydalanamiz: o:, a:, u:, o':, i:, e:. Unlidan keyingi ikki nuqta ularning cho'ziqligini bildiradi.*

Qisqa va cho'ziq unililar haqida tasavvur hosil qilish uchun quyidagi so'zlardagi “i”, “u”, “o” tovushlarini solishtirib ko'rish mumkin: bilān–aqi:da; uka–manzu:ra; bola–lo:la. Ikkinchi so'zlardagi «i», «u», «o» tovushlarining birinchi so'zlardagi “i”, “u”, “o” tovushlariga nisbatan ikki baravar cho'ziq talaffuz etilayotganini sezish qiyin emas.

Shuni ham alohida esda tutish lozimki, arab va fors tillarida qisqa unililar doimo qisqa, cho'ziq unililar esa doimo cho'ziq talaffuz qilinadi. Bordiyu, qisqa unli cho'ziq, cho'ziq unli esa qisqa talaffuz etilgudek bo'lsa, yo so'zning ma'nosi o'zgaradi, yoki ma'nosi butunlay yo'qolib ketadi. Masalan: dur–inju, marvarid; du:r–uzoq, yiroq. Marvarid ma'nosidagi dur so'zidagi “u” hech qachon cho'ziq, uzoq ma'nosidagi dur so'zidagi “u” esa hech qachon qisqa talaffuz etilmaydi. Yoki

balo so'zidagi qisqa "a"ni cho'zib ba:lo deb talaffuz etilsa, so'zning ma'nosi yo'qoladi.

**Qisqa bo'g'in.** Qisqa talaffuz qilinadigan unlining o'zidagina iborat bo'lgan yoki shunday unli bilan tugaydigan ochiq bo'g'inlar qisqa bo'g'in deyiladi. Qisqa bo'g'inlar aruzshunoslikda quyidagi belgi bilan ifodalanadi: **V**. Navoiyning "kelmadi" radifli g'azalidan yuqorida keltirilgan baytni ko'rib chiqaylik:

Ke-cha kel- gum- dur de- bon ul sar- vi gul-ro' kel -ma - di,

	V				V				V				V	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15

Ko'z -la- rim- ga ke- cha tong ot- qun- cha uy- qu kel- ma- di.

	V				V				V				V	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15

Har ikki misradagi 2, 6, 10, 14-bo'g'inlar qisqa talaffuz etilgan unililar bilan tugagani uchun qisqa bo'g'in hisoblanadi.

**Cho'ziq bo'g'in.** Cho'ziq talaffuz qilinuvchi unililar bilan tugagan ochiq bo'g'inlar hamda qisqa talaffuz qilinuvchi unililardan keyin keluvchi undoshlar bilan tugaydigan yopiq bo'g'inlar cho'ziq bo'g'in deyiladi. Demak, cho'ziq bo'g'inlar ikki xil bo'ladi:

a) cho'ziq talaffuz qilinadigan unililar bilan tugagan ochiq bo'g'inlar;

b) undosh tovush bilan tugagan yopiq bo'g'inlar. SHart shuki, undoshdan oldingi unli qisqa bo'lishi lozim.

Cho'ziq bo'g'inlar quyidagi belgi bilan ifodalandi:-.

Ke- cha kel- gum- dur de- bon ul sar- vi gul- ro' kel -ma - di,

-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15

Ko'z -l a- rim- ga ke- cha tong ot- qun- cha uy- qu kel- ma- di.

-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15

Baytda cho'ziq bo'g'inlarning har ikki ko'rinishi ham o'z ifodasini topgan. Birinchi misradagi 1, 12 va 15-bo'g'inlar hamda ikkinchi misradagi 4, 5, 12 va 15-bo'g'inlar cho'ziq unli bilan tugagan cho'ziq bo'g'in, birinchi misradagi 3, 4, 5, 7, 8, 9, 11, 13-bo'g'inlar hamda ikkinchi misradagi 1, 3, 7, 8, 9, 11, 13-bo'g'inlar esa undosh bilan tugagan cho'ziq bo'g'in turiga mansub.

**Eslatma:** misra oxirida kelgan unli, qanday unli bo'lishidan qat'iy nazar, doimo cho'ziq talaffuz qilinadi. Binobarin, misra oxiridagi ochiq bo'g'in hamma vaqt cho'ziq bo'g'in bo'ladi.

Endi baytdagi qisqa va cho'ziq bo'g'inlarning o'zaro munosabatlariga e'tibor beraylik. Avvalo, shu narsa ko'zga tashlanadiki, har ikki misradagi qisqa bo'g'inlarning miqdori ham, cho'ziq bo'g'inlarning miqdori ham bir-biriga teng: 4 tadan qisqa, 11 tadan cho'ziq. Eng asosiysi shuki, qisqa va cho'ziq bo'g'inlarning

misralarda egallagan o'rni va tartibi ham bir-biriga mos: har ikkala misradagi 2, 6, 10 va 14-bo'g'inlar qisqa, 1, 3, 4, 5, 7, 8, 9, 11, 12, 13 va 15-bo'g'inlar cho'ziq:

–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15

–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–	–	–	V	–
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15

***Qisqa va cho'ziq bo'g'inlarning bu kabi ham miqdor, ham misradagi o'rni va tartibi jihatidan bir-biriga mos bo'lishi aruz vaznining o'ziga xos xususiyatidir.***

Barmoq vaznida bunday xususiyat yo'q. Masalan:

Qo'z– g'ol– gan ka – bi bo'–ron, (7)

–	–	–	V	V	V	–
1	2	3	4	5	6	7

Gu– vil–lab qol– di os– mon. (7)

V	–	–	–	V	–	–
1	2	3	4	5	6	7

Ko'rinib turibdiki, misralardagi qisqa va cho'ziq bo'g'inlarning soni ham, misralardagi o'rni va tartibi ham bir xil emas.

Shu narsani ham esda tutish zarurki, aruz qisqa va cho'ziq bo'g'inlar mosligiga asoslangan vazn bo'lsa ham, amalda biror bo'g'inning qisqa yoki cho'ziq ekanligini bilib olish oson ish emas, chunki, yuqorida ta'kidlanganidek, qisqa bo'g'inlar ham, cho'ziq bo'g'inlar ham bir xil–ochiq bo'g'inlardan iborat bo'lishi mumkin. Bu holda ularning cho'ziq yoki qisqa ekanligi qaerdan bilish mumkin? Qisqa va cho'ziq bo'g'inlarni bir-biridan farqlashning eng sodda va ishonchli usuli – ***yopiq bo'g'in!*** Yuqorida aytilganlardan ma'lumki, qisqa bo'g'inlar faqat bir xil–ochiq, ya'ni unli bilan tugaydigan bo'g'inlardangina iborat bo'ladi. Cho'ziq bo'g'inlar esa ikki xil: 1) unli bilan tugaydigan cho'ziq bo'g'inlar, ya'ni ***ochiq cho'ziq bo'g'in***; 2) undosh bilan tugaydigan cho'ziq bo'g'inlar, ya'ni ***yopiq cho'ziq bo'g'in***. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: ***agar she'rdagi biror bo'g'in barcha misralarda ham ochiq bo'lsa, qisqa, agar ochiq va yopiq bo'g'inlardan iborat bo'lsa, cho'ziq bo'ladi.*** Chunki ***yopiq bo'g'inni***, agar undan keyin unli bilan boshlanuvchi so'z kelmasa, ***hech qachon qisqa bo'g'inga aylantirish mumkin emas!*** She'rdagi biror bo'g'in cho'ziq bo'lar ekan, shu raqamdagi boshqa barcha bo'g'inlarning ham cho'ziq bo'lishi bizga ma'lum.

Endi quyidagi baytning vaznini topaylik.

Fig'onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin,

G'amim ko'p, ey ko'ngul, sen bexabarsen holi zorimdin.

### Nodira

Har ikki misrada ham 1-bo'g'inlar ochiq, buning ustiga qisqa talaffuz qilinmoqda: «***Fi***–» (1-misra), «***G'a***–» (2-misra). Demak, birinchi bo'g'inlar qisqa: **V**.



2,3,4-bo'g'inlar yopiq: «-g'on», «-kim», «gar-» (1-misra), «-mim», «ko'p», «ey» (ikkinchi misra). Binobarin, ular cho'ziq:— . 1-misradagi 5-bo'g'in «-di», u qisqa talaffuz qilinmoqda, shuning uchun uni qisqa bo'g'in deyish mumkin. Ammo ikkinchi misradagi «ko'ngil» so'zi uning qisqaligiga shubha uyg'otadi, chunki ko'pchilikning nazarida «ko'ngil» so'zi bo'g'inlarga «ko'n-gil» tarzida ajraydi. Agar «ko'ngil» shu tarzda ajratiladigan bo'lsa, ikkinchi misradagi 5-bo'g'in cho'ziq bo'lib, ikkala bo'g'in o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi. Ammo ziddiyat yo'q. Chunki «ko'ngil», «singil» kabi so'zlar bo'g'inlarga *ko'-ngil, si-ngil* tarzida ajratiladi, bu so'zlar tarkibidagi «ng» bir tovushni ifodalab, «ng» o'zidan keyingi unli bilan bir bo'g'in hosil qiladi. Bundan ma'lum bo'ladiki, ikkinchi misradagi 5-bo'g'in ham qisqa: «ko'-»: V. 1-misradagi 6-bo'g'in («-shi»)ning qandayligini aniqlash qiyin: uni qisqa ham, cho'ziq ham talaffuz qilish mumkin. Shuning uchun 2-misradagi 6-bo'g'inga murojaat qilamiz: «-ngul». Demak, u cho'ziq. Shunday ekan, birinchi misradagi «-shi» ham cho'ziq:—, uni cho'ziq talaffuz qilish lozim: «*shi*:». 1-misradagi 7,8-bo'g'inlar yopiq: «*dav-ron*»; ikkinchi misrada esa 7-bo'g'in yopiq: «*sen*», 8-bo'g'in esa ochiq: «*be*-». Lekin birinchi misradagi har ikki bo'g'in cho'ziq bo'lganligi uchun, ikkinchi misradagi har ikki bo'g'in ham cho'ziq: «*sen*», «*be*:»:—. 9-bo'g'inlar har ikkala misrada ham («*a*-» 1-misrada, «*xa*» 2-misrada) ochiq bo'lib, qisqa talaffuz qilinmoqda, shuning uchun ular qisqa bo'g'in: V. 10-bo'g'inlar har ikkala misrada ham yopiq: «- *yir*», «-*bar*». Ularning cho'ziqligi shubhasiz:—. 1-misradagi 11-bo'g'in ochiq: «-*di*», aniqlash uchun 2-misraga qaraymiz, yopiq: «-*san*». Xuddi shu holat 12-bo'g'inlarda takrorlangan: 1-misrada yopiq: «*shah*-»; 2-misrada esa ochiq: «*ho*-». Qoidaga ko'ra, mos bo'g'inlardan biri yopiq bo'lganligi uchun 11, 12-bo'g'inlar cho'ziq bo'g'in: — . 13-bo'g'inlarning har ikkalasi ham ochiq va unlilar qisqa talaffuz qilinmoqda: (1-misra: «-*su*», 2-misra: «-*li*). Demak, 13-bo'g'inlar qisqa: V. 14-bo'g'inlar har ikkala misrada ham ochiq: «-*vo*» (1-misra), «*zo*-» (2-misra). Lekin ular cho'ziq talaffuz qilinmoqda: «-*vo*:», «*zo*:»:—. Biroq, shunga qaramay, bu baytdan ularning qanday bo'g'in ekanligini aniqlash qiyin. Shuning uchun javob izlab g'azalning keyingi baytiga murojaat qilamiz:

G'uborim ishq vodiysida barbod o'ldi andoqkim,

Biyobonlarda Majnun to'tiyozlar g'uborimdin.

Birinchi misradan ko'rinib turibdiki, 14-bo'g'in yopiq: «*an*-». Demak, avvalgi baytdagi 14-bo'g'inlar ham cho'ziq bo'g'in: —. 15, 16-bo'g'inlarning cho'ziq bo'g'inligi ko'rinib turibdi, chunki ularning ikkalasi ham yopiq: «-*rim*», «-*din*:»: —.

Endi har ikkala misralardagi cho'ziq va qisqa bo'g'inlarni bir qatorga keltirsak, quyidagi chizma hosil bo'ladi:

Fi-g'on-kim, gar-di-shi: dav-ron a-yir-di: shah-su-vo:-rim-din,

V - - - V - - - V - - - V - - -

G'a-mim ko'p, ey ko'-ngul, sen be:-xa-bar-sen ho:-li zo:-rim-din.

V - - - V - - - V - - - V - - -

## 2-мавзу: О'та чо'зиқ бо'г'инлар

1. Ўта чўзиқ бўғин тушунчаси.

2. Таркибида чўзиқ унли мавжуд бўлган ўта чўзиқ бўғинлар.

3. Қўш ундosh билан тугайдиган ўта чўзиқ бўғинлар.

4. Ўта чўзиқ бўғинларнинг ўқилиши.

О'та чо'зиқ бо'г'инлар бо'г'inning alohida turi bo'lib, bunday bo'g'inlar o'zbek tili fanida ham, barmoq vaznida ham mavjud emas. О'та чо'зиқ бо'г'инlarning aruz vaznida alohida o'rni bor.

*Tarkibida cho'ziq unlilar mavjud bo'lgan hamda qo'sh undosh bilan tugagan yopiq bo'g'inlar o'ta cho'ziq bo'g'in deyiladi.* Demak, o'ta cho'ziq bo'g'inlar ikki xil bo'ladi:

1) tarkibida cho'ziq talaffuz qilinadigan unlilar bo'lgan yopiq bo'g'inlar: tak-**ror**, Maj-**nun**, dil-**dor**, tah-**rir**, dar-**vesh**. Bunday bo'g'inlarning cho'ziq bo'g'inlardan farqi shuki, agar cho'ziq bo'g'inlarning tarkibidagi unlilar qisqa talaffuz qilinsa, o'ta cho'ziq bo'g'inlar tarkibidagi unlilar cho'ziq talaffuz qilinadi;

2) qo'sh undosh bilan tugaydigan yopiq bo'g'inlar: **mast**, ba-**land**, xur-**sand**, **muhr**-dor, **ishq**, **qatl**, **rost**.

О'та чо'зиқ бо'г'инлар quyidagi belgi bilan ifodalanadi: ~.

О'та чо'зиқ бо'г'инлар qaerda kelishi: misra boshida, o'rtasida, oxirida, shuningdek, unli yoki undosh bilan boshlanadigan so'z yoki bo'g'indan oldin kelishiga qarab turlicha o'qiladi.

### *Tarkibida cho'ziq unli mavjud bo'lgan o'ta cho'ziq bo'g'inlar*

О'та чо'зиқ бо'г'inning bu turi quyidagicha o'qiladi:

1) misra oxirida kelganda hamma vaqt bitta o'ta cho'ziq bo'g'in sifatida:

Kim bu xa-lo:-yiq-qa e-rur saj-da-**goh**,

- V V - - V V - - V ~

Ul bi-ri Xo:-liq-qa e-rur jil-va-**goh**.

- V V - - V V - - V ~

Misralar oxiridagi bo'g'inlar: «-**goh**», «-**goh**» o'ta cho'ziq bo'g'inlardir. Misra oxirida kelgan o'ta cho'ziq bo'g'inning cho'ziq bo'g'indan farqi yo'q: o'ta cho'ziq bo'g'in cho'ziq bo'g'in singari talaffuz qilinadi;

2) misra boshi yoki o'rtasida kelganda, vazn talabi bilan ikki xil o'qiladi:

a) ikki bo'g'in-bir cho'ziq va bir qisqa bo'g'in sifatida. Bu holda o'rtadagi cho'ziq unli o'zidan oldingi undosh bilan bir cho'ziq bo'g'in, bo'g'in oxiridagi undoshning yolg'iz o'zi esa bir qisqa bo'g'in hosil qiladi. Demak, o'ta cho'ziq bo'g'in ikki bo'g'in hosil qilganda, bo'g'inlarning avalgisi cho'ziq, keyingisi qisqa bo'ladi:-V. Masalan quyidagi baytni ko'raylik:

**Kom**-g'a may-l^ay-la-di chun **kom**-gor,

Ay-la-di tas-**lim** o'-zin gul-'u-**zor**.

Mazkur baytda «kom-g'a» so'zidagi «-kom», «kom-gor» so'zidagi «-kom» va «-gor», «taslim» so'zidagi «-lim», «gul-u-zor» so'zidagi «-zor» bo'g'inlari o'ta cho'ziq bo'g'inlardir. «Komgor» so'zidagi «-gor» va «gul'uzor» so'zidagi «-zor» bo'g'inlari misraning oxirida kelganligi uchun bitta o'ta cho'ziq bo'g'in hosil qilgan. Misra boshida kelgan «komg'a» so'zidagi «-kom» va misra o'rtasida kelgan «taslim» so'zidagi «-lim» o'ta cho'ziq bo'g'inlari esa ikki bo'g'in: bir cho'ziq va bir qisqa bo'g'in hosil qilgan: ko:-m-g'a; tas-li:-m.

*Eslatma: bir undoshning o'zi qisqa bo'g'in hosil qilganini ifodalash uchun undan keyin nuqta qo'yamiz:*

Ko:-m-g'a may-l^ay-la-di chun ko:-m-gor,

- V V - - V V - - V ~

Ay-la-di tas-li:-m o'-zin gul-u-zor.

- V V - - V V - - V ~

Bunday hollarda vaznga xos ohangni ta'minlash uchun yo cho'ziq bo'g'inni kuchli urg'u bilan o'qish, yoki oxirgi undoshga bir qisqa «i» qo'shib talaffuz qilish lozim:

Ko:-mi-g'a may-l^ay-la-di chun ko:-mi-gor,

- V V - - V V - - V ~

Ay-la-di tas-li:-mi o'-zin gul-u-zor.

- V V - - V V - - V ~

Qo'shimcha «i»ni juda ham qisqa talaffuz etish kerak;

b) bir cho'ziq bo'g'in sifatida:

Sho'x ik-ki g'i-zo:-ling-ni: noz uy-qu-si-din uy-g'at,

- - V V - - - - - V V - - -

To: uy-qu-la-ri: ket-sun, gul-zor i-chi-da: o'y-nat.

- - V V - - - - - V V - - -

Baytda uchta o'ta cho'ziq bo'g'in bor: **sho'x**, **noz**, **zor**. Har uchalasi ham oddiy bir cho'ziq bo'g'in hosil qilgan.

*Izoh: misra boshi yoki o'rtasida kelgan bu xildagi o'ta cho'ziq bo'g'inni qachon bir cho'ziq, qachon bir cho'ziq va bir qisqa bo'g'in qilib o'qish haqida qat'iy qoida yo'q. Bunda vazn talabi: bo'g'inning misradagi o'rni, undan keyingi bo'g'inlarning qanday bo'g'in ekanligidan kelib chiqiladi. Jumladan, «komg'a» so'zidagi «m»ni bir qisqa bo'g'in qilib o'qidik. Buning sababi shuki, vaznning shu bo'lagida ketma-ket keluvchi ikki qisqa bo'g'in bor. Bu keyingi misraning shunga mos keluvchi bo'lagidan aniq ko'rinib turibdi: «Ay-la-di tas-» (-VV-). «Ay-la-di tas-»ga teng keladigan bo'lak «Komg'a may-». Agar «kom-»ni bir cho'ziq, «-g'a»ni bir qisqa bo'g'in qilib o'qiydigan bo'lsak, u holda bir qisqa bo'g'in yetishmaydi:-V. Chunki keyingi bo'g'in «may-» yopiq bo'g'in, yopiq bo'g'inni esa qisqa bo'g'in qilib bo'lmaydi:-V-. Demak, «kom-»ni ikki bo'g'in qilib o'qish lozim:*

*ko:–m.–g'a may–* (–VV–). «Taslim» so'zidagi «–lim» ham shu sababdan ikki bo'g'in qilib o'qiladi.

### **Qo'sh undosh bilan tugaydigan o'ta cho'ziq bo'g'inlar**

*Qo'sh undosh bilan tugaydigan o'ta cho'ziq bo'g'inlar quyidagicha o'qiladi:*

1) misra oxirida kelganda, tarkibida cho'ziq bo'g'ini bor o'ta cho'ziq bo'g'in singari, hamma vaqt bir o'ta cho'ziq bo'g'in sifatida:

Bu–lar bo:–ri:–ni pay–do: ay–la–gan **ishq**,

V – – – V – – – V – ~

Bi–rin ul bir–ga shay–do: ay–la–gan **ishq**.

V – – – V – – – V – ~

2) undosh tovush bilan boshlanuvchi so'z yoki bo'g'indan oldin kelganda, tarkibida cho'ziq bo'g'ini bor o'ta cho'ziq bo'g'indan farqli o'laroq, hamma vaqt ikki bo'g'in: bir cho'ziq va bir qisqa bo'g'in sifatida:

**Ran–j**–kash bo'l–kim, chu tor–tar **chug'–z**. vay–ron ich–ra **ranj**,

– V – – – V – – – V – – – V ~

Aj–da–ho:–din biy–mi yo'q, am–mo: e–rur um–mi:–di **ganj**.

– V – – – V – – – V – – – V ~

«Ranjcash»dagi «j» undosh bilan boshlanuvchi bo'g'in («–kash») dan oldin, «chug'z»dagi «z» undosh bilan boshlanuvchi so'z (vayron) dan oldin kelgani uchun qisqa bo'g'in hosil qiladi. Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, mazkur holat–qat'iy qoida. Undoshdan oldin kelgan o'ta cho'ziq bo'g'inni bir bo'g'in qilish vaznda «*saktalik*» deb ataluvchi aybni paydo qiladi;

3) unli bilan boshlanuvchi so'zdan oldin kelganda ko'pincha bir cho'ziq bo'g'in sifatida. Bu holda bo'g'in oxiridagi qo'sh undoshlarning ikkinchisi keyingi so'zga qo'shilib ketadi:

**Ish–q<sup>^</sup>–a**–ro: yuz ming ma–lo:–mat o':–qi–g'a: bo'l–dum ni–**shon**,

– V – – – V – – – V – – – V ~

Bir ka–mon ab–ro':–da tuz–luq–din ni–sho:–ne: top–ma–dim.

– V – – – V – – – V – – – V –

*Eslatma: so'z oxiridagi undoshning unli bilan boshlanuvchi keyingi so'zga qo'shib o'qilishi cho'ziq bo'g'inlarda ham uchraydi. Agar o'ta cho'ziq bo'g'inlarda oxirgi undosh keyingi so'zga qo'shilib, o'ta cho'ziq bo'g'in cho'ziq bo'g'inga aylansa, cho'ziq bo'g'indagi undosh keyingi so'zga qo'shilishi natijasida cho'ziq bo'g'in qisqa bo'g'inga aylanadi. Bu hodisa aruzshunoslikda **vasla hodisasi** deb atalib, **vasla hodisasi**ni quyidagi belgi bilan ifodalaymiz: ^. Masalan:*

De–di: qay–din, sen, ey Maj–nu:–ni gum–roh?

V – – – – – V – ~

De–di: Maj–nun va–tan–din qay–da o:–goh!

V - - - V - - - V - ~

Ikkinchi misradan ko'rinib turibdiki, 1-misradagi 5-bo'g'in ham qisqa bo'lishi kerak. Ammo u yopiq: «*sen*». Shuning uchun «*sen*»dagi «*n*»ni «*ey*»ga qo'shib o'qish lozim: **se-n^ey**:

De-di: qay-din, **se-n,^ey** Maj-nu:-ni gum-roh?

V - - - V - - - V - ~

De-di: Maj-nun va-tan-din qay-da o:-goh!

V - - - V - - - V - ~

4) unli bilan boshlanuvchi so'zdan oldin kelganda ham ba'zan bir cho'ziq va bir qisqa bo'g'in sifatida o'qilishi mumkin. Bu holda qo'sh undoshlarning ikkinchisi keyingi so'zga qo'shilmaydi:

Ey na-si:-mi: **sub-h.**, ah-vo:-lim di-lo:-ro:-mim-g'a **ayt**,

- V - - - V - - - V - - - V ~

Zul-fi sun-bul, yu:-zi gul, sar-vi: gu-lan-do:-mim-g'a **ayt**.

- V - - - V - - - V - - - V ~

Baytda, ko'rinib turibdiki, «*subh*» so'zidagi «*h*» undoshi o'zidan keyingi unli («*a*») bilan boshlanuvchi so'zga qo'shilmay, alohida bir qisqa bo'g'in hosil qilgan. «*H*»ni bu o'rinda keyingi bo'g'inga qo'shib bo'lmaydi, chunki ushbu vaznda, keyingi misradan ko'rinib turibdiki, 6-bo'g'in qisqa bo'lishi kerak. Agar «*sub-h^ah-vo-lim*» tarzida qo'shib yuborilsa, 6-bo'g'in qisqa bo'g'inga aylanib, birinchi misrada ikkinchi misraga nisbatan bir bo'g'in kam bo'lib qoladi.

Demak, unli bilan oldin keluvchi o'ta cho'ziq bo'g'in vazn talabi bilan bir bo'g'in hosil qilishi ham, ikki bo'g'in hosil qilishi mumkin.

### 3-мавзу: Qo'shimcha qoidalar

#### 1. Арабча-форсча сўзлар.

#### 2. Ўзбек ча сўзлар.

#### 4. Истисно ҳолатлар.

Aruz vaznidagi she'rlarda qisqa va cho'ziq bo'g'inlar, ko'rib o'tilganidek, so'zdagi bo'g'inlarning ochiq-yopiqqligi, unlilarning qisqa-cho'ziqligi, o'ta cho'ziq bo'g'inlardagi undoshlarning misradagi o'rni va holatiga qarab belgilanadi. Biroq, shu bilan birga, bir qator qo'shimcha holatlar ham borki, misralardagi qisqa va cho'ziq misralarni to'g'ri belgilash va o'qish uchun ularni ham hisobga olish zarur.

1. **Arabcha-forscha so'zlar.** Ma'lumki, o'zbek tili tarkibida juda ko'p arabcha-forscha so'zlar bor. Arabcha va forschaga so'zlardagi qisqa va cho'ziq unli o'zgarmas bo'lib, biror so'zdagi qisqa unlini cho'zish va aksincha, cho'ziq unlini qisqa talaffuz qilish, binobarin, qisqa bo'g'inni cho'ziq, cho'ziq bo'g'inni qisqa qilish mumkin emas. Shu sababli arabcha va forschaga so'zlardagi bo'g'inlar vazn jihatidan o'zgarmasdir. Masalan, «*judo*» so'zidagi unli qo'lda kelishidan qat'iy nazar, hamma vaqt bir xil bo'g'in hosil qiladi: 1-bo'g'in qisqa, ikkinchi bo'g'in cho'ziq. Ularni o'zgartirish, masalan. «*ju*-»ni cho'ziq, «*-do*»ni esa qisqa bo'g'inga

aylantirish mumkin emas, chunki «ju-»dagi «u» qisqa, «-do»dagi «o» esa cho'ziq unlidir. Demak, «**judo**» so'zining vazni hamma vaqt bir xil: V-. O'zbek tilidagi boshqa arabcha-forscha so'zlar ham qat'iy vaznga ega. Masalan: ajab: V-, olam:—, muhabbat: V—, nilufar: -V-, maknuna:—V, guliston: V- ~, boqiy:—, tasavvuf: V—, ijtinob:—V ~, fuzun: V ~, kitob: V ~, parishon: V- ~, muhrdor:—V~, oshno: ~—, orzu: ~—.

**Izoh:** forscha so'zlardan faqat **shoh, goh, nigoh, ogoh, guvoh, voh, moh, sipoh** kabi o'ta cho'ziq bo'g'inga ega bo'lgan so'zlardagi o'ta cho'ziq bo'g'inlargina vazn talabi bilan cho'ziq bo'g'inga aylanishi mumkin. Ammo shunda ham bo'g'in tarkibidagi «o» «a»ga aylanadi: **shah, gah, nigah, ogah, guvah, vah, mah, sipah**. Masalan:

Xo:—lu: xa—ting xa—yo:—li—di—n, ^ey sar—vi gul—'u—zor,  
 — — V — V — V V — — V — V ~

**Go:—hi:** ko'—zum—ga: xo:—l. tu—shub—dur **ga—hi:** g'u—bor.  
 — — V — V — V V — — V — V ~

«Goh(i)» so'zining «go-» bo'g'ini ikkinchi misraning 1-bo'g'inida kelib cho'ziq, 11-bo'g'inda esa «ga-»ga aylanib, qisqa bo'g'in hosil qilgan.

Lekin bu holat boshqacha tuzilishga ega bo'lgan forscha so'zlarda uchramaydi.

2. **O'zbekcha so'zlar.** O'zbek tilida, yuqorida aytilganidek, cho'ziq unlilar yo'q. Cho'ziq unli vazifasini ham qisqa unlilar bajaradi. Shuning uchun o'zbekcha so'zlardagi har qanday unli qisqa talaffuz qilinishi ham, cho'ziq talaffuz qilinishi ham, binobarin, vazn talabi bilan bir unli bir so'zning o'zida qisqa bo'g'in hosil qilishi ham, cho'ziq bo'g'in hosil qilishi ham mumkin. Boshqacha qilib aytganda, **o'zbekcha so'zlar, arabcha-forscha so'zlardan farqli o'laroq, qat'iy vaznga ega emas.** Masalan, «**su(v)**» so'zining ikki xil vazni bor: 1) qisqa: V; 2) cho'ziq: —:

Haj—ri—din bag'—rim **su**—dur, ul **su:** a—ro: bo:—lig' ka—bi:.,  
 — V — — — V — — — V — — — V —

Dar—du meh—nat o':—qi—din bir ne:—cha pay—kon—dur ma—nga:.,  
 — V — — — V — — — V — — — V —

Baytda «su(v)» so'zi bir misraning o'zida ham qisqa, ham cho'ziq bo'g'in hosil qilgan.

«**De(moq)**» so'zining vazni ham ikki xil:

1) qisqa: V:

Mun—doq **de**—di no:—qi—li: ma—o:—ni:.,  
 — — V V — V — V — —

Qil—g'och bu ba—di:—'a. so'z ba—yo:—ni:.,  
 — — V V — V — V — —

2) cho'ziq: —:

**De:**—di:—ki, «A—yo: ha—ki:—mi do:—no:.,  
 — — V V — V — V — —

Har huk–m.–da ho:–ki–mu: ta–vo:–no:!»

– – V V – V – V – –

«**Kecha**» so'zi esa uch xil vazn hosil qilishi mumkin:

1) qisqa–qisqa: VV:

O't–gan **ke–cha**–kim, si–peh–ri pur–fan

– – V V – V – V – –

Nur us–ti–ga bo'l–di zul–ma–taf–gan.

– – V V – V – V – –

2) qisqa–cho'ziq: V–:

Bir **ke–cha**: so'r–g'il me–ni: an–din bu–run–kim, so'r–g'a–sen:

– V – – – V – – – V – – – V –

Qo:–ni ul be:–dil–ki, ay–lar er–di af–g'on har **ke–cha**:

– V – – – V – – – V – – – V –

3) cho'ziq–qisqa:–V:

**Ke:–cha**–lar fi–g'o:–nim–din tin–ma–di: ka–vo:–kib–lar,

– V – V – – – – V – V – – –

Ar–z. to: sa–mo: uz–ra: mo:–ja–ro: U–vay–siy–man.

– V – V – – – – V – V – – –

Ko'rinib turibdiki, o'zbekcha so'zlarning necha xil vazn hosil qilishi bu so'zlar tarkibidagi ochiq bo'g'inlar soniga bog'liq: so'zda nechta ochiq bo'g'in bo'lsa, so'zning vazni ochiq bo'g'inlarning miqdoriga nisbatan ikki baravar ko'p bo'ladi.

Mazkur xususiyat faqat so'zlarga emas, ochiq bo'g'in hosil qiluvchi qo'shimchalarga ham tegishli. Masalan, –ni, –ga (–ka, –g'a, –qa), –da, –i (–si), –di, –ma, –sa kabi qo'shimchalar ham ikki xildan vaznga ega:

«–**ni**» qo'shimchasi:

Ta–man–no: qil–g'a–li: la'–ling–**ni** ko'ng–lum,

V – – – V – – – V – – –

Ki–shi: bil–mas o–**ni**–kim qol–di qan–da:.

V – – – V – – – V – – –

Birinchi misrada qisqa, ikkinchi misrada esa cho'ziq bo'g'in bo'lib kelgan.

«–**ga**» qo'shimchasi:

a) qisqa: V

To–pil–g'ay sho:–ya–d^an–dog' bir ne–cha: so'z,

V – – – V – – – V – – –

So'–z^ay–tur el–**ga** ul yon tush–ma–gay ko'z.

V – – – V – – – V – – –

b) cho'ziq:–

A–ni: naz–m^et–ki tar–hing to:–za bo'l–g'ay,

V – – – V – – – V – – –

U–lus–**ga**: may–li be:–an–do:–za bo'l–g'ay.

V – – – V – – – V – – –

**«-da» qo'shimchasi:**

a) qisqa: V

Sha-bis-to:-ni:-**da** tug'-di: bir ya-ngi: oy,

V - - - V - - - V - ~

Ya-ngi: oy yo'q-ki, meh-ri: o:-la-mo:-roy.

V - - - V - - - V - ~

b) cho'ziq:-

O-chil-di: bo:-g'i-**da**: bir o:-ta-shin vard,

V - - - V - - - V - ~

De-may-kim var-d., bal-kim shu'-la-yi: dard.

V - - - V - - - V - ~

**«-sa» qo'shimchasi:**

a) qisqa: V

A-ning so:-ri: so-vug' yel es-**sa** no:-goh,

V - - - V - - - V - ~

Che-kib Chin mul-ki-ning xal-qi: so:-vug' oh.

V - - - V - - - V - ~

b) cho'ziq:-

Ti-kan kir-**sa**: ka-fing-g'a: ki:-na-si:-din,

V - - - V - - - V - -

Chi-qor-sam er-di kir-pik yi:-na-si:-din.

V - - - V - - - V - -

3. **Ikki, yetti, sakkiz, to'qqiz, achchiq, qattiq** kabi so'zlarning birinchi bo'g'inidagi yopiq bo'g'in hosil qiluvchi qo'sh undoshlardan biri vazn talabi bilan **tushirilib**, cho'ziq bo'g'in qisqa bo'g'inga aylantirilishi mumkin: **iki, yeti, sakiz, to'qiz, achiq, qatiq**. Masalan:

**Etti-eti:**

**Et-ti** iq-li:-m. sho:-hi-din **ye-ti** qiz,

- V - - V - V - V V -

Har bi-ri: lut-fu hus-ni g'o:-yat-siz.

- V - - V - V - - -

**Sakkiz-sakiz:**

O'n **sa-kiz** ming o:-la-m^o:-shu:-bi: a-gar bo:-shin-da-dur,

- V - - - V - - - - V - - - V -

Ne a-jab chun sar-vi-no:-zim o'n **sa-kiz** yo:-shin-da-dur.

- V - - - V - - - - V - - - - V -

**Qattiq-qatiq, achchiq-achiq:**

**Qa-tiq** g'ur-bat a-ro: ho:-ling ne er-kin?

V - - - V - - - - V - -

**A-chiq** fur-qat-da ah-vo:-ling ne er-kin?



V - - - V - - - V - -

4. Vazn talabi bilan **xati, siri, duri** kabi so'zlar oxiridagi «t», «r» tovushlari ikkilantirilib, qisqa bo'g'in cho'ziq bo'g'inga aylantirilishi mumkin:

**Siri-sirri:**

Qon-di-n<sup>^</sup>el-ga: yoy-di tif-li: ash-k. sir-rim-ni: me-ning,

- V - - - V - - - V - - - V -

Chun-ki men ul yosh-ni har-giz so:-hi-b<sup>^</sup>as-ror et-ma-dim.

- V - - - V - - - V - - - V -

5. **Anga, manga, sanga** kabi so'zlarning 1-bo'g'ini aksar hollarda qisqa bo'g'in bo'ladi, bu so'zlar bo'g'inlarga **a-nga, ma-nga, sa-nga** tarzida ajratiladi:

A-nga: teng po:-d.-sho:-lig' yo: ga-do:-lig',

V - - - V - - - V - -

Ga-do:-liq-qa: te-ng<sup>^</sup>et-may po:-d.-sho:-lig'.

V - - - V - - - V - -

6. **Guliston, Iskandar** kabi so'zlardagi «-is» qismi «si-» tarzida o'qilib, cho'ziq bo'g'in qisqa bo'g'inga aylantirilishi mumkin:

Ko'ng-lu-m<sup>^</sup>ich-ra: sar-v. o'q-tur, g'un-cha pay-kon, gul ti-kon,

- V - - - V - - - V - - - V ~

Dah-r. bo:-g'i: ich-ra mun-doq gul-si-to:-ne: top-ma-dim.

- V - - - V - - - V - - - V -

7. **Nav', sham'** kabi so'zlardagi «ayn» (‘) ko'pincha o'qilmaydi, ammo ba'zan bir qisqa bo'g'in hosil qilishi ham mumkin. Bunday hollarda, o'zbek tilida «ayn» tovushi bo'lmagani uchun, «ayn» (‘) o'rnida bir qisqa «i» talaffuz qilinadi:

Hus-ni or-tar yuz-da zul-fin an-ba-raf-shon ay-la-gach,

- V - - - V - - - V - - - V -

Sham-'(i). rav-shan-roq bo'-lur to:-rin pa-ri:-shon ay-la-gach.

- V - - - V - - - V - - - V -

Aruz vaznidagi she'rlarni to'g'ri o'qish uchun qo'shimcha qoidalarni ham esda tutish zarur.

#### 4-мавзу: Juzvlar, ruknlar, баҳрлар

1. Жузв тушунчаси.

2. Рукн тушунчаси.

3. Баҳр тушунчаси.

Qisqa va cho'ziq bo'g'inlar aruzning asosini tashkil qilsa ham, vazn hosil qiluvchi asosiy mezon bo'g'in emas, balki **juzvlar** va juzvlardan hosil bo'luvchi **ruknlardir**.

#### Juzvlar

**Juzvning ma'nosi bo'lak** bo'lib, *bir cho'ziq bo'g'in yoki uning bir yoki bir necha qisqa bo'g'in bilan turli tarzda birikuvidan yuzaga kelgan bo'lak juzv deyiladi*. Juzvlar uch xil bo'ladi: 1) *sabab*; 2) *vatad*; 3) *fosila*. Bu haqda Zahiriddin

Muhammad Bobur «Risoi aruz» asarida shunday deb yozadi: «*Bilgilkim, she' rning avzonining madori uch juzv biladur: sabab va vatad va fosila*».

**Sabab.** Bir cho'ziq bo'g'indan yoki ikki qisqa bo'g'inning birikuvidan hosil bo'lgan juzv sabab deyiladi. Demak, sabab ikki xil bo'ladi:

a) *bir cho'ziq bo'g'indan iborat sabab*: –. Masalan, may (–), gul (–), to (–) so'zlari kabi. Bunday sabab *sababi xafif* – yengil sabab deyiladi;

b) *ikki qisqa bo'g'indan iborat sabab*: VV. Masalan, ke–cha (VV), de–ma (VV) so'zlari kabi. Bunday sabab *sababi saqil* – og'ir sabab deyiladi.

Sababi saqilning o'zidagina iborat she'r vazni yo'q, ammo sababi xafif bilan she'r yozish mumkin:

Ey oy, kel–kim, yo:–ring–dur–man,  
– |– |– |– |– |– |– |–  
Fur–qat sho:–mi: zo:–ring–dur–man.  
– |– |– |– |– |– |– |–

**Vatad.** Bir cho'ziq bo'g'inning bir qisqa bo'g'in bilan birikuvidan hosil bo'lgan juzv vatad deyiladi. Cho'ziq bo'g'in qisqa bo'g'indan oldin kelishi ham, keyin kelishi ham mumkin. Shunga ko'ra vatadlar ikki xil bo'ladi:

a) *cho'ziq bo'g'in qisqa bo'g'indan keyin kelgan vatad*: V–. Masalan, cha–man (V–), ki–rib (V–) so'zlari kabi. Bunday vatad *vatadi majmu'* – qo'shilgan vatad deyiladi;

b) *cho'ziq bo'g'in qisqa bo'g'indan oldin kelgan vatad*: –V. Masalan, lo:–la (–V), kel–sa (–V) so'zlari kabi. Bunday vatad *vatadi mafruq* – ajralgan vatad deyiladi.

Vatadlardan iborat she'r:

Qa–di: ha–vo:–si–din ga–hi: sha–jar sa–ri: na–zar qi–lay,  
V – | V – | V – | V – | V – | V – | V –  
Yu–zi: xa–yo:–li–din ga–hi: cha–man sa–ri: gu–zar qi–lay.  
V – | V – | V – | V – | V – | V – | V –

**Fosila.** Bir cho'ziq bo'g'inning o'zidan oldin kelgan ikki yoki uch qisqa bo'g'in bilan birikuvidan hosil bo'lgan juzv fosila deyiladi. Demak, fosila ham ikki xil:

a) *ikki qisqa bo'g'inli fosila*: VV–. Masalan, ne qi–lay (VV–), yi–qi–lay (VV–) so'zlaridagi kabi. Bunday fosila *fosilayi sug'ro* – kichik fosila deyiladi;

b) *uch qisqa bo'g'inli fosila*: VVV–. Masalan, yi–qi–la–yin (VVV–), ya–sha–ma–gan (VVV–) so'zlaridagi kabi. Bunday fosila *fosilayi kubro* – katta fosila deyiladi.

Katta fosila o'zbek adabiyotida mavjud emas. Kichik fosilalardan tuzilgan bayt:

Mi–ra–kim, ti–la–kim chu se–n^o'l–di–ngu bas,  
V V – | V V – | V V – | V V –  
Ne qi–lay ya–na–lar ko'–ra–rim–ni ha–vas.  
V V – | V V – | V V – | V V –

Sabab, vatad, fosila va ularning ko'rinishlari Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon» asarida keltirilgan quyidagi misrada to'la aks etgan. Misrani eslab qoling:

Ul	ko'-zi	qa-ro:	dar-du	g'a-mi-din	chi-da-ma-dim
—	v v	v —	— v	v v —	v v v —
sababi xafif	sababi saqil	vatadi majmu'	vatadi mafruq	fosilayi sug'ro	fosilayi kubro

### Ruknlar

**Rukn** (arabcha ko'plik shakli *arkan*) so'zining ma'nosi *ustun* bo'lib, rukn aruz vaznidagi asosiy o'lchov birligidir. **Sabab, vatad va fosilalarning turli tarzda birikuvidan hosil bo'lgan bo'lak rukn deyiladi.** Ruknlarning aruz vaznidagi o'rni va ahamiyati g'oyat katta bo'lib, Alisher Navoiyning so'zlari bilan aytganda, aruz binosi ana shu ustunlar ustiga bino qilingan. Qisqa va cho'ziq bo'g'inlardan uch xil juzv hosil bo'lsa, juzvlarning o'zaro birikuvidan quyidagi sakkiz rukn yuzaga keladi:

1) **faulun**<sup>1</sup>. Vatadi majmu' (V-) ning sababi xafif (-) bilan birikuvidan hosil bo'ladi. Mazkur rukn uch bo'g'inli bo'lib, birinchi bo'g'in qisqa, ikkinchi va uchinchi bo'g'inlar esa cho'ziq: V- -;

2) **foilun**. Sababi xafif (-) ning vatadi majmu' (V-) bilan birikuvidan hosil bo'ladi. Mazkur rukn ham uch bo'g'inli bo'lib, birinchi va uchinchi bo'g'inlar cho'ziq, ikkinchi bo'g'in esa qisqa: (-V-);

3) **mafoiyun**. Vatadi majmu' (V-) ning ikki sababi xafif (- -) bilan birikuvidan hosil bo'ladi. Mazkur rukn to'rt bo'g'inli bo'lib, birinchi bo'g'in qisqa, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi bo'g'inlar cho'ziq: V- - -;

4) **foilotun**. Vatadi majmu' (V-) ning ikki sababi xafif (- -) o'rtasida kelishidan hosil bo'ladi. Mazkur rukn ham to'rt bo'g'inli bo'lib, birinchi bo'g'in cho'ziq, ikkinchi bo'g'in qisqa, uchinchi va to'rtinchi bo'g'inlar esa cho'ziq: -V- -;

5) **mustaf'ilun**. Ikki sababi xafif (- -) ning vatadi majmu' (V-) bilan birikuvidan hosil bo'ladi. Mazkur rukn ham to'rt bo'g'inli bo'lib, birinchi, ikkinchi va to'rtinchi bo'g'inlar cho'ziq, uchinchi bo'g'in esa qisqa: - -V-;

6) **maf'uvlotu**<sup>2</sup>. Ikki sababi xafif (- -) ning vatadi maf'ruq (-V) bilan birikuvidan hosil bo'ladi. Mazkur rukn ham to'rt bo'g'inli bo'lib, birinchi, ikkinchi va uchinchi bo'g'inlar cho'ziq, to'rtinchi bo'g'in esa qisqa: - - -V;

7) **mafoilatun**. Vatadi majmu' (V-)ning fosilayi sug'ro (VV-) bilan birikuvidan hosil bo'ladi. Mazkur rukn besh bo'g'inli bo'lib, birinchi, uchinchi va to'rtinchi bo'g'inlar qisqa, ikkinchi va beshinchi bo'g'in esa cho'ziq: V-VV-;

<sup>1</sup> Ba'zi kitoblarda *faulun* deb beriladi. Bu tarzda yozish xato. Chunki rukndagi ikkinchi bo'g'in cho'ziq, faulun deb yozilsa, uni qisqa bo'g'indan farqlab bo'lmaydi. Shuning uchun cho'ziq bo'g'inni «uv», qisqa bo'g'inni esa «u» bilan ifodalash lozim.

<sup>2</sup> Ba'zi kitoblarda «*maf'ulotu*» tarzida beriladi. Bu holda ham chalkashlik yuzaga keladi. Chunki rukn tarkibidagi birinchi «u» bilan ifodalangan bo'g'in cho'ziq, ikkinchi bo'g'in esa qisqa. Shuning uchun cho'ziq bo'g'inni «uv», qisqa bo'g'inni «u» bilan ifodalash lozim.

8) *mutafoilun*. Fosilai sug'ro (VV-) ning vatadi majmu' (V-) bilan birikuvidan hosil bo'ladi. Mazkur rukn ham besh bo'g'inli bo'lib, birinchi, ikkinchi va to'rtinchi bo'g'inlar qisqa, uchinchi va beshinchi bo'g'inlar esa cho'ziq: VV-V-.

Ruknlar, ularning tarkibi, nomi, chizmasi va ulardagi bo'g'inlar soni quyidagi jadvalda aks etgan:

<i>T/r</i>	<i>Ruknlar nomi</i>	<i>Tarkibi</i>	<i>Chizmasi</i>	<i>Bo'g'inlar</i>
1	<i>fauvlun</i>	vatadi majmu'+sababi xafif	V--	3
2	<i>foilun</i>	sababi xafif+vatadi majmu'	-V-	3
3	<i>mafoiylun</i>	vatadi majmu'+sababi xafif+sababi xafif	V---	4
4	<i>foilotun</i>	sababi xafif+vatadi majmu'+ sababi xafif	-V--	4
5	<i>mustaf'ilun</i>	sababi xafif+sababi xafif+ vatadi majmu'	--V-	4
6	<i>maf'uvlotu</i>	sababi xafif+sababi xafif+vatadi maf'ruq	---V	4
7	<i>mafoilatun</i>	vatadi majmu'+fosilai sug'ro	V-V V-	5
8	<i>mutafoilun</i>	fosilai sug'ro+vatadi majmu'	V V-V-	5

Aruz vaznidagi mazkur sakkiz rukn *asllar* yoki *asliy ruknlar* deb ataladi, chunki vaznlar shu sakkiz rukndan hosil bo'ladi. Asl ruknlar vazn ichida kelganda *solim ruknlar* deyiladi.

Garchi asl ruknlar sakkizta bo'lsa ham, Alisher Navoiyning yozishicha, forsiy va turkiy she'riyatda ulardan uchasi: *foilun*, *mafoilatun* va *mutafoilun* ruknlari qo'llanmagan. Bahrlar va vaznlar turkiy, jumladan, o'zbek adabiyotida asosan quyidagi besh rukndan hosil bo'lgan: 1) *mafoiylun*; 1) *foilotun*; 3) *mustaf'ilun*; 4) *maf'uvlotu*; 5) *fauvlun*.

Shuni esda tutish lozimki, juzvlar ham, ularning birikuvidan hosil bo'ladigan ruknlar ham allaqanday mavhum tushunchalar emas. *Ruknlar – tildagi mavjud so'zlarning tuzilishini umumiy tarzda aks ettiruvchi o'ziga xos bir qolip*. Boshqacha qilib aytganda, tildagi so'zlar o'ziga xos vaznlarga ega bo'lib, ruknlar o'sha vaznlarni ifodalovchi shartli so'zlardir. Masalan, *latofat*, *mijozing*, *visolin* so'zlari *fauvlun*; *lolarux*, *xonumon* so'zlari *foilun*; *tasavvurdan*, *guharrezlik* so'zlari *mafoiylun*; *mehribonim*, *aylanibman* so'zlari *foilotun*; *mayxonadan*, *oqilligim* so'zlari *mustaf'ilun* qolipidagi so'zlardir. *Aruz vaznida she'r ana shu umumiy qoliplarga mos tushuvchi so'zlar asosida yaratiladi*. Biroq, shu bilan birga, so'z va qolip aynan bir narsa emas, qolip so'zga nisbatan kengroq tushuncha. Aruz qoidasiga ko'ra bir qolip:

a) so'zning bir qismidan: **musofir**(man), **qabihguf**(tor) – *fauvlun*; **borakal**(loh), **yaxshiroq**(dur) – *foilun*;

b) bir so'z va boshqa so'zning bir qismidan: **berib shoh**(lig'), **o'z ollin**(da) – *fauvlun*; **sarvi gul**(ro'), **ul pari**:(vash) – *foilun*; **aning afso**:(nasi), **topilg'ay**

**sho:**(yad) – *mafoiylun*; **shishadek ko'ng**(lumdadur), **to Navo:iy**(dek) –*foilotun*;  
**ko:fir ko'zung**(ning), **borgo:hig'a:** – *mustaf'ilun*;

v) ikki so'zdan: **tanim yuz, urub tosh** – *fauvlun*; **haq olib, ul pari:** – *foilun*;  
**navo to:pib, malaksan yo** – *mafoiylun*; **o'n sakiz ming, kimga soyam** – *foilotun*;  
**aylab ani:, mushkin qoshi:** – *mustaf'ilun*;

d) uch so'zdan tuzilishi mumkin: **bu fo:niy dun**(yadin) – *mafoiylun*; **bir buti: be:**(badal) – *foilotun*; **so'z aytu-r^el** – *mustaf'ilun*.

Demak, ruknlar ma'lum tuzilish va ohangga ega bo'lgan so'z yoki ritmik bo'laklardir. Muayyan vazn ana shu bo'laklarga mos keluvchi so'zlardan hosil bo'ladi.

Masalan, quyidagi bayt «*mafoiylun*» qolipidagi bo'laklardan tuzilgan:

Xazon yafro: | g'i yanglig' gul | yuzung hajri: | da sarg'ardim,

V – – – | V – – – | V – – – | V – – –

*mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun*

Ko'rub rah-m^ay | lagil, ey lo: | laruh, bu cheh | rai: zardim.

V – – – | V – – – | V – – – | V – – –

*mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun*

Quyidagi bayt esa «*mustaf'ilun*» qolipidagi bo'laklardan tuzilgan:

Mushkin qoshi: | ning hay'ati: | ul chashmi jal | lod ustina:,

– – V – | – – V – | – – V – | – – V –

*mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun*

Qatlim uchun | «nas» keltirur | «nun» eltibon | «sod» ustina.

– – V – | – – V – | – – V – | – – V –

*mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun*

## 5-мавзу: Zihof va furu'

Режа:

1. Зихоф тушунчаси.

2. Фуруъ тушунчаси.

3. Фаръий рукнлар.

Aruz vaznining murakkab jihatlaridan biri shundaki, ruknlar sakkiz asliy ruknning o'zidagina iborat emas. Ularning soni amalda anchagina ko'p. Buning sababi shuki, asliy ruknlar ijod jarayonida xilma-xil o'zgarishlarga uchraydi. Asliy ruknlar tarkibida, jumladan, quyidagi o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin:

a) rukn tarkibidagi bir yoki bir necha bo'g'in tushib qoladi;

b) cho'ziq bo'g'in qisqa bo'g'inga, qisqa bo'g'in cho'ziq bo'g'inga aylanadi;

v) ba'zan esa bo'g'inlar ham tushib qoladi, ham qisqa bo'g'in cho'ziq bo'g'inga, cho'ziq bo'g'in esa qisqa bo'g'inga aylanadi.

Asliy ruknlarda yuz beradigan bunday o'zgarishlar *zihof*, ruknning zihofga uchrashi natijasida paydo bo'lgan yangi ko'rinishlari esa *furu' yoki far'iy ruknlar* deb ataladi. *Zihof* (ko'pligi *zihofot*) so'zining ma'nosi–*o'zgarish, furu'* (birligi *far'*)

so'zining ma'nosi esa *shu'ba* yoki *tarmoqdir*. Aruz haqidagi ilmda har bir zihofning ham, ruknning zihofga uchrashi natijasida paydo bo'ladigan har bir far'iy ruknning ham o'z nomi bor. Masalan, «*mafoiylun*»ning (V– – –) oxirgi «*lun*» bo'g'ini tushib qolsa, qolgan «*mafoiy*» qismi «*fauvlun*» deb, oxirgi bo'g'inning tushishi «*hazf*», «*hazf*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn (V– –) esa «*mahzuf*» deb nomlanadi; yoki *foilotunning* (–V– –) birinchi «*fo*» cho'ziq bo'g'ini qisqa «*fa*» bo'g'iniga aylansa, rukn «*failotun*», «*fo*»ning «*fa*»ga aylanishi «*xabn*», far'iy rukn (VV– –) esa «*maxbun*» deyiladi.

Turkiy, jumladan, o'zbek she'riyatida uchraydigan besh rukn Navoiy va Boburlarning ko'rsatishicha, 44 xil zihofga uchrab, buning natijasida 60 xil far'iy rukn hosil bo'ladi. Agar bunga asliy ruknlarning o'zini ham qo'shadigan bo'lsak, ruknlarning soni 65 taga yetadi.

Ruknlar sonining ko'payishi vaznni murakkablashtirish bilan birga, uning imkoniyatlarini ham behad kengaytirib yuboradi. Shayx Ahmad binni Xudoydod Taroziyning «Funun ul-balog'a» asarida yozilishicha, asliy va far'iy ruknlarning turli tarzda birikuvidan 366 vazn hosil qilish mumkin. Zahiriddin Muhammad Bobur esa «Risolai aruz» asarida bu ruknlardan yuzaga kelgan 537 vaznni ko'rsatib o'tadi.

Endi ruknlar, ularda uchraydigan zihoflar hamda ulardan hosil bo'ladigan far'iy ruknlar bilan tanishamiz. Biroq barcha ruknlarni birdaniga emas, balki alohida-alohida – shu rukndan hosil bo'ladigan vaznlar bilan birgalikda ko'rib chiqamiz. Bu – har bir ruknning zihof va furu'larini hamda ulardan hosil bo'ladigan vaznlarni eslab qolishni osonlashtiradi.

### **6-мавзу. «Mafoiylun» (V– – –) rukni va uning zihoflari**

#### **Режа:**

**1. Рукн таркибида юзага келадиган миқдор ўзгаришлари.**

**2. Рукн таркибида юзага келадиган сифат ўзгаришлари.**

Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon»da ko'rsatishicha, «mafoiylun» ruknining zihoflari ham, furu'lari ham o'n bitta. Ya'ni «mafoiylun» tarkibida o'n bir xil o'zgarish sodir bo'lib, ulardan o'n bir xil far'iy rukn yuzaga keladi. Ular quyidagilar:

1) *mafoilun*. «*Mafoiylun*» (V– – –) uchinchi «*iy*» cho'ziq bo'g'inining «*i*» qisqa bo'g'iniga aylanishidan hosil bo'ladi: V–V–. Rukndagi bu o'zgarish «*qabz*», «*qabz*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*maqbus*» deyiladi;

2) *mafoiylu*. «*Mafoiylun*» (V– – –) to'rtinchi «*lun*» cho'ziq bo'g'inining «*lu*» qisqa bo'g'iniga aylanishidan hosil bo'ladi: V– –V. Rukndagi bu o'zgarish «*kaff*», «*kaff*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*makfuf*» deyiladi;

3) *mafoiyl*. «*Mafoiylun*» (V- - -) oxiridagi «*un*» qismining tushishidan hosil bo'ladi, natijada uchinchi cho'ziq bo'g'in o'ta cho'ziq bo'g'inga aylanadi: V-~.<sup>3</sup> Rukndagi bu o'zgarish «*qasr*», «*qasr*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*maqsur*» deyiladi;

4) *maf'uvlun*. «*Mafoiylun*» (V- - -) birinchi «*ma*» qisqa bo'g'inining tushirilishidan hosil bo'ladi: - - -. Qolgan qism «*foiylun*» deyilmay, «*foiylun*» bilan vazn jihatidan bir xil bo'lgan «*maf'uvlun*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*xarm*», «*xarm*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*axram*» deyiladi;

5) *maf'uvlu*. «*Mafoiylun*» (V- - -) birinchi «*ma*» qisqa bo'g'inining tushirilishi hamda to'rtinchi «*lun*» cho'ziq bo'g'inining «*lu*» qisqa bo'g'iniga aylanishidan hosil bo'ladi: - - V. Qolgan qism «*foiylun*» deyilmay, «*foiylun*» bilan vazn jihatidan bir xil bo'lgan «*maf'uvlu*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*xarb*», «*xarb*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*axrab*» deyiladi;

6) *foilun*.<sup>4</sup> «*Mafoiylun*» (V- - -) birinchi «*ma*» qisqa bo'g'inining tushirilishi va uchinchi «*iy*» cho'ziq bo'g'inining «*i*» qisqa bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: - V-. Rukndagi bu o'zgarish «*shatar*», «*shatar*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*ashtar*» deyiladi;

7) *fauvlun*.<sup>5</sup> «*Mafoiylun*» (V- - -) oxirgi «*lun*» bo'g'inining tushishidan hosil bo'ladi: V- - -. Qolgan qism «*mafoiy*» deyilmay, «*mafoiy*» bilan vazn jihatidan bir xil bo'lgan «*fauvlun*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*hazf*», «*hazf*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*mahzuf*» deb nomlanadi;

8) *fauvl*. «*Mafoiylun*» (V- - -) oxirgi «*lun*» bo'g'ini hamda uchinchi bo'g'indagi «*iy*» qismining tushishishidan hosil bo'ladi, natijada ikkinchi cho'ziq bo'g'in o'ta cho'ziq bo'g'inga aylanadi: V~. Qolgan qism «*mafo'*»<sup>6</sup> deyilmay, «*mafo'*» bilan vazn jihatidan bir xil bo'lgan «*fauvl*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*xatm*», «*xatm*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*axtam*» deyiladi;

9) *faul*. «*Mafoiylun*» (V- - -) «*iy*» va «*lun*» bo'g'inlarining tushishidan hosil bo'ladi: V-. Qolgan qism «*mafo*» deyilmay, «*mafo*» bilan vazn jihatidan bir xil bo'lgan «*faul*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*jabb*», «*jabb*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*ajabb*» deyiladi;

<sup>3</sup> Masalan, «*mafoiylun*»ga teng bo'lak «*bo'-lay zo:-ring*» bo'lsa, oxirgi bo'g'in «*-ring*» emas, uning bir qismi - «*-ing*» tushadi. Natijada oxirgi bo'g'indagi «*r*» uchinchi bo'g'inga o'tib, uchinchi bo'g'in o'ta cho'ziq bo'g'inga aylanadi: *bo'-lay zor / V- ~ / mafoiyl*.

<sup>4</sup> Bu yerda «*foilun*» - «*mafoiylun*»dan hosil bo'lgan *far'iy rukn*. Uni «*foilun*» asliy rukni bilan chalkashtirmaslik lozim.

<sup>5</sup> Bu yerda «*fauvlun*» - «*mafoiylun*»dan hosil bo'lgan *far'iy rukn*. Uni «*fauvlun*» asliy rukni bilan chalkashtirmaslik lozim.

<sup>6</sup> Rukn aslida «*mafoiylun*» emas, «*mafo'iylun*». Rukn tarkibidagi «*'*» - «*ayn*» deb ataluvchi arab tiliga xos bo'lgan undosh tovushni ifodalovchi harf. «*Mafoiylun*» bo'g'inlarga quyidagicha ajraladi: *ma-fo:-'iy-lun*. Shuning uchun ham tushiriluvchi «*-iy*» bo'g'in emas, bo'g'inning bir qismi. «*-iy*» tushgach, «*'*» ikkinchi bo'g'inga o'tib, u o'ta cho'ziq bo'g'inga aylanadi. Masalan: *ki-to:-bim-dan / V- - - / mafo'iylun // ki-tob / V ~ / fauyl*. «*Kitobimdan*» so'zidagi oxirgi «*-dan*» («*lun*») bo'g'ini va uchinchi bo'g'in «*-bim*»ning «*-im*» («*iy*») qismi tushdi.

10) *fo'*. «*Mafoiylun*» (V— —) birinchi «*ma*» qisqa bo'g'ini va oxirigi «*lun*» bo'g'inining tushishi hamda uchinchi bo'g'indagi «*iy*» qismining olib tashlanishidan hosil bo'ladi, natijada ikkinchi cho'ziq bo'g'in o'ta cho'ziq bo'g'inga aylanadi: ~.<sup>7</sup> Rukndagi bu o'zgarish «*zalal*», «*zalal*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*azall*» deyiladi;

11) *fa'*. «*Mafoiylun*» (V— —) birinchi «*ma*» qisqa bo'g'ini hamda uchinchi va to'rtinchi cho'ziq bo'g'inlar: «*iy*» va «*lun*»ning tushirilishidan hosil bo'ladi: —.<sup>8</sup> Rukndagi bu o'zgarish «*batr*», «*batr*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*abtar*» deyiladi.

Shunday qilib, «*mafoiylun*» ruknining, agar solim ko'rinishini ham qo'shadigan bo'lsak, o'n ikki ko'rinishi mavjud. Lekin ruknlarning ko'pligidan cho'chimaslik lozim, chunki ulardan oltitasi faqat misra oxirida, oltitadan to'rttasi esa faqat ruboiy janridagi she'rlarda uchraydi, xolos. «*Mafoiylun*» rukni, uning zihofoti, undan hosil bo'ladigan far'iy ruknlar va ularning misralardagi o'rnini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin:

<i>T/r</i>	<i>rukn nomi</i>	<i>zihof</i>	<i>far'iy rukn nomi</i>	<i>chizmasi</i>	<i>misradagi o'rni</i>
1	mafoiylun	—	solim	V— — —	hamma ruknlarda
2	mafoilun	qabz	maq buz	V—V—	1,2,3-ruknlarda
3	mafoiylu	kaff	makfuf	V— —V	1,2,3-ruknlarda
4	mafoiyl	qasr	maqsur	V—~	oxirgi ruknda
5	maf'uvlun	xarm	axram	— — —	1,2,3-ruknlarda
6	maf'uvlu	xarb	axrab	— —V	1,2,3-ruknlarda
7	foilun	shatar	ashtar	—V—	1,2,3-ruknlarda
8	fauvlun	hazf	mahzuf	V— —	oxirgi ruknda
9	fauvl	xatm	axtam	V~	oxirgi ruknda
10	faul	jabb	ajabb	V—	oxirgi ruknda
11	fo'	zalal	azall	~	oxirgi ruknda
12	fa'	batr	abtar	—	oxirgi ruknda

### 7-мавзу: Vaznlar. Taqti'

#### Режа:

1. Вазн тушунчаси.
2. Рукнларнинг мисрадаги ўрнига номланиши.
3. Вазнларнинг номланиши.
4. Тактиъ қоидалари

<sup>7</sup> Masalan: ki-to:-bim-dan, tushadi: «*ki-*», «*-im*», «*-dan*»; qoladi: «*-tob*» / *fo'* = *azall*.

<sup>8</sup> Masalan: ki-to:-bim-dan, tushadi: «*ki-*», «*-bim*», «*-dan*»; qoladi: «*-to:*» / *fa'* = *abtar*.



Aruz vaznida ajoyib bir izchillik bor. Ko'rib o'tdikki, aruz vaznidagi eng kichik o'lchov birligi bo'g'in bo'lib, bo'g'inlarning birikuvidan juzvlar, juzvlarning birikuvidan ruknlar yuzaga keladi. Ruknlarning birikuvidan esa aruzdagi eng katta va asosiy mezon–vazn hosil bo'ladi.

Vaznning amal qilish doirasi bayt. Garchi muayyan vaznning yuzaga chiqish chegarasi bir misra bo'lsa ham, aruzshunoslikda she'riy asarning vaznini belgilash uchun misra emas, bayt asos qilib olingan. Demak, *vazn bayt, ya'ni ikki misra doirasida takrorlanib keluvchi ruknlarning muayyan birikmasidir*. Masalan:

1) *mafoiylun mafoiylun*  
*mafoiylun mafoiylun*

Yoki:

2) *mafoiylun mafoiylun fauvlun*  
*mafoiylun mafoiylun fauvlun*

Yoki:

3) *maf'uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun*  
*maf'uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun*

Baytdagi ruknlarning eng kam miqdori har misrada ikkitadan to'rtta, eng ko'p miqdori esa to'rttadan sakkizta. Aruz vaznida har bir ruknning o'z nomi bor: *birinchi misraning* birinchi rukni «*sadr*», oxirgi rukni «*aruz*»; *ikkinchi misraning* birinchi rukni «*ibtido'*», oxirgi rukni «*zarb*»; *o'rtadagi* ruknlar esa «*hashv*» deyiladi. Masalan, bayt sakkiz ruknli bo'lsa, ruknlar nomi quyidagicha bo'ladi:

*Sadr hashv hashv aruz*  
*Ibtido hashv hashv zarb*

Har bir ruknning o'z nomi bo'lganidek, har bir vaznning ham o'z nomi bor. Vaznlarning nomlari quyidagilardan kelib chiqadi:

1) ularning qaysi asliy ruknlardan hosil bo'lganligi. Masalan, agar vazn «*fauvlun*» ruknidan tuzilgan bo'lsa, «*mutaqorib*»; «*mafoiylun*» ruknidan tuzilgan bo'lsa, «*hazaj*»; «*foilotun*» ruknidan tuzilgan bo'lsa, «*ramal*»; «*mustaf'ilun*» ruknidan tuzilgan bo'lsa, «*rajaz*» deyiladi (Bu haqda «Bahrlar» bobida batafsil so'z yuritiladi). Yuqoridagi misol uchun keltirilgan uchala vazn ham «mafoiylun» va uning furu'laridan tuzilgan. Demak, har uchala baytning ham bahri – hazaj;

2) ruknlarning baytdagi miqdori. Agar ruknlar soni bir misrada ikkita–baytda *to'rtta bo'lsa*, bu vazn *murabba'*; bir misrada uchta – baytda *oltita bo'lsa*, bu vazn *musaddas*; bir misrada to'rtta – baytda *sakkizta bo'lsa*, bu vazn *musamman* deyiladi. Yuqoridagi 1-vaznda to'rt rukn bor, demak, u – murabba'; 2-vaznda olti rukn bor, demak, u – musaddas; 3-vaznda esa sakkiz rukn bor, demak, u – musamman;

3) tarkibida qaysi solim yoki far'iy ruknlar mavjudligi.

Yuqoridagi 1-vazn faqat solim ruknlardan tuzilgan, demak, u – *solim solim*:

*solim solim*

*solim*                      *solim*

2-vaznning sadr, ibtido' va hashvlari *solim* (mafoiylun), aruz va zarblari esa mahzuf (fauvlun), demak, u – *solim solim mahzuf*:

*solim*                      *solim*                      *mahzuf*  
*solim*                      *solim*                      *mahzuf*

3-vaznning sadr va ibtido'si *axrab* (maf'uvlu), hashvlari *makfuf* (mafoiylu), aruz va zarblari esa mahzuf (fauvlun), demak, u – *axrab makfuf makfuf mahzuf*:

*axrab*                      *makfuf*                      *makfuf*                      *mahzuf*  
*axrab*                      *makfuf*                      *makfuf*                      *mahzuf*

Endi vaznlarning nomlarini bir joyga keltiramiz:

**1-vazn:** *hazaj murabba' solim solim*. Odatda vaznning nomi bo'lgan so'zlarni bir-biri bilan bog'lash uchun *forsiy izofa* deb ataluvchi «i» qo'shimchasi qo'shiladi. U holda 1-vaznning nomi quyidagicha bo'ladi: *hazaji murabba'i solimi solim*. Lekin, agar vazn faqat *solim* ruknlardan tuzilgan bo'lsa, ularning hammasini aytish shart emas, bittasini keltirish kifoya. Demak, 1-vaznning nomi: ***hazaji murabba'i solim***. Vaznning nomini o'zbek tilida quyidagicha ifodalash mumkin: ***to'rttalik solim hazaj***;

**2-vaznning** nomi aytilganlardan kelib chiqilsa, quyidagicha bo'ladi: *hazaji musaddasi solimi solimi mahzuf*. Lekin aruz qoidasiga ko'ra, agar vaznda *solim* va *far'iy* ruknlar ishtirok etgan bo'lsa, *solim* ruknlar aytilishi shart emas, *far'iy* ruknni aytish kifoya. Miqdorni bildiruvchi so'z (*murabba'* yoki *musaddas* yoki *musamman*) qolgan ruknlarning *solim* ekanligini bildirib turadi. Demak, 2-vaznning nomi: ***hazaji musaddasi mahzuf***. Vaznning nomini o'zbek tilida quyidagicha ifodalash mumkin: ***oltitalik mahzuf hazaj***;

**3-vazn** faqat *far'iy* ruknlardan tuzilgan, nomlashda *far'iy* ruknlarning hammasi hisobga olinadi: *hazaji musammani axrabi makfufi makfufi mahzuf*. Lekin bir xil ruknlar ikkita bo'lsa va alohida zarurat bo'lmasa, bittasini aytish kifoya. Demak, 3-vaznning nomi: ***hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf***. Vaznning nomini o'zbek tilida quyidagicha ifodalash mumkin: ***sakkiztalik axrabu makfufu mahzuf hazaj***.

Boshqa vaznlar ham shu tarzda nomlanadi.

### ***Taqti'***

Aruz vaznida misra va baytlarning vazni taqti' usulida aniqlanadi. ***Taqti'*** (evropa adabiyotshunosligida *paradigma*) so'zining lug'aviy ma'nosi – kesish, bo'laklarga ajratish. ***Aruz ilmida misra va baytlarni qisqa va cho'ziq bo'g'inlar hamda ruknlarga ajratish qoidalari taqti' deyiladi***.

Taqti' quyidagi uch jarayonni o'z ichiga oladi:

**1. Baytdagi qisqa va cho'ziq bo'g'inlarni aniqlash.** Qisqa va cho'ziq bo'g'inlarni aniqlash qoidalari avvalgi sahifalardan ma'lum. Bayt taqti' qilinganda, o'sha qoidalar asosida baytdagi cho'ziq va qisqa bo'g'inlarni belgilab chiqish lozim:

A-yo:-qing-g'a: tu-shar har lah-za gi:-su:

Ma-sal-dur-kim: «Cha-roq' tu:-bi: qo-ron-g'u:.

V - - - V - - - V - -

**2. Baytni ruknlarga ajratish.** Baytdagi qisqa va cho'ziq misralar aniqlab bo'lingandan so'ng bayt ruknlarga ajratiladi. Ruknlarga ajratishda, avvalo, bo'g'inlar tartibidagi takroriylik va o'xshashlik hisobga olinadi. Agar e'tibor berilsa, misra tarkibidagi qisqa va cho'ziq bo'g'inlarning ma'lum bir bo'lakda boshqa bir yoki ikki bo'lakka o'xshash birikma hosil qilganini ko'rish mumkin. Masalan, yuqoridagi misra bir qisqa bo'g'in bilan boshlanib, so'ngra uch cho'ziq bo'g'in kelgan. So'ng yana bir qisqa va uch cho'ziq bo'g'in takrorlangan. So'nggi bo'lakda bir cho'ziq bo'g'in kam bo'lsa ham, tartib avvalgi bo'laklarga o'xshaydi. Demak, baytni ruknlarga quyidagicha ajratish lozim:

A-yo:-qing-g'a: tu-shar har lah-za gi:-su:

Ma-sal-dur-kim: // «Cha-roq' tu:-bi: // qo-ron-g'u»:.

V - - - - // V - - - // V - -

Mazkur bayt ikki bo'g'inli bo'laklarga ajratilsa ham, o'xshash ruknlar yuzaga kelishi mumkin:

A-yo:-qing-g'a: tu-shar har lah-za gi:-su:

Ma-sal // -dur-kim: // «Cha-roq' // tu:-bi: // qo-ron- // g'u:.

V - // - - // V - // - - // V - // -

Ammo bu to'g'ri emas, chunki bir misradagi ruknlar soni to'rttadan oshmasligi lozim. Misrani uch bo'g'inli ruknlarga ajratish ham xato: ruknlar soni to'rtta bo'lsa ham, hosil bo'lgan bo'laklar bir-biriga o'xshamaydi:

A-yo:-qing-g'a: tu-shar har lah-za gi:-su:

Ma-sal-dur // -kim: «Cha-roq' // tu:-bi: qo // -ron-g'u:.

V - - // - - V - // - - V // - -

Agar bir misradagi ruknlar soni to'rttadan oshib ketmasa, ruknlarni ikki bo'g'inli qilib ham ajratish mumkin. Masalan:

Ko'r-sat // ja-mo:-ling // mas-to: // -na-lar-g'a:.

Ish-qing // -da kuy-gan // par-vo: // -na-lar-g'a:.

- - // V - - // - - // V - -

Mazkur baytni ikki ruknga ajratish mumkin emas:

Ko'r-sat ja-mo:-ling // mas-to:-na-lar-g'a:.

Ish-qing-da // kuy-gan // par-vo:-na-lar-g'a:.

- - V - - // - - V - -

Bunday besh bo'g'inli rukn yo'q, bundan tashqari, yuqorida aytilganidek, besh bo'g'inli ruknlar o'zbek adabiyotida deyarli qo'llanmagan:

Baytni uch bo'lakka ham ajratish mumkin emas:

Ko'r-sat ja // -mo:-ling mas // -to:-na-lar // -g'a:.

Ish-qing-da // kuy-gan // par // -vo:-na-lar // -g'a:.

- - V // - - - // - V - // -

Garchi bu holda birinchi rukn «mafoiylun»ning axrab (maf'uvlu), ikkinchi rukn «axram» (maf'uylun), uchinchi rukn ashtar (foilun), to'rtinchi rukn abtar (fa') furu'lariga mos kelsa ham, bu taqti' ham to'g'ri emas, chunki, birinchidan, ruknlar bir-biriga o'xshash emas, holbuki, to'rt ruknli vaznlarda hech bo'lmaganda ikkita rukn bir-biriga o'xshash bo'lishi shart; ikkinchidan esa, oxirgi rukn bir bo'g'inli, holbuki, bir bo'g'inli ruknlar faqat ruboiy janriga mansub she'rlardagina uchraydi, xolos.

Demak, to'g'risi birinchi taqti'. Haqiqatan ham, bu holda birinchi va uchinchi ruknlar «fauvlun»ning «aslam» (fa'lun), ikkinchi va to'rtinchi ruknlar esa «solim» ko'rinishiga mos keladi. Baytning vazni – mutaqoribi musammani aslam.

Shunday qilib, *misralar ruknlarga ajratilganda ruknlar, birinchidan, mumkin qadar bir-biriga o'xshash bo'lishi, ikkinchidan, mavjud asliy va far'iy ruknlarga to'g'ri kelishi, uchinchidan esa, vaznlarning janr xususiyatlariga mos bo'lishi lozim.*

Baytlarni taqti' qilishda bo'g'inlar tartibidagi takroriylik va o'xshashlik bilan birga, misralardagi bo'g'inlarning soni ham muhim ahamiyatga ega. Binobarin, taqti' qilganda bo'g'inlarning misralardagi miqdorini ham hisobga olish lozim.

O'zbek adabiyotida eng ko'p uchraydigan misralar sakkiz, o'n, o'n bir, o'n to'rt, o'n besh va o'n olti bo'g'inli misralardir. Ma'lumki, o'zbek adabiyotida faol qo'llangan asliy ruknlar soni beshta bo'lib, ulardan *fauvlun* uch bo'g'inli, qolgan to'rttasi esa to'rt bo'g'inlidir: *mafoiylun, foilotun, mustaf'ilun, mafuvlotu*. Shu o'rinda, ba'zi istisnolarni hisobga olmaganda, to'rt bo'g'inli asliy ruknlardan hosil bo'lib, o'zbek adabiyotida eng ko'p uchraydigan misralarni ruknlarga ajratish qoidalarini bayon qilamiz:

a) *bir misrada sakkizta bo'g'in bo'lsa, misra ikki ruknga ajratiladi.*

Ruknlardagi bo'g'inlar miqdori quyidagicha bo'ladi: 4+4. Masalan:

Chun shah–r.–din //chiq–dim Qu–dash,

Ko'n–gul bo'–lub //mah–zu:–nu g'ash.

– – V – // – – V –

b) *bir misrada o'nta bo'g'in bo'lsa, u uch ruknga ajratiladi.* Ruknlardagi bo'g'inlar miqdori quyidagicha bo'ladi: 3+4+3. Masalan:

Mun–doq de //–di no:–qi–li: //ma–o:–ni:.,

Qil–g'och bu //ba–di'–a so'z //ba–yo:–ni:.

– – V // V – V – // V – –

*Eslatma: o'n bo'g'inli misralarda bir-biriga o'xshash ruknlar bo'lmaydi – uch rukn uch xil;*

v) *bir misrada o'n bitta bo'g'in bo'lsa, u ham uch ruknga ajratiladi.* Lekin ruknlardagi bo'g'inlar miqdori boshqacharoq bo'ladi: 4+4+3. Demak, ortiqcha bir bo'g'in birinchi ruknga qo'shiladi. Masalan:

Ne–dur ah–vo:–li– //ng, ^ey zo:–ri: //g'a–ri:–bim,

Vi–so:–lim dav //–la–ti:–din be: //–na–si:–bim.

V - - - // V - - - // V - - -

Yoki:

Ko'ng-lu-ma: har //yon-ki boq-sam // do:-g'i bor,

Har ne-cha: dar //-dim-ni de:-sam // do:-g'i bor.

- V - - // - V - - // - ~

Yoki:

So'z gu-ha-ri: //-g'a: e-ru-r^on //-cha: sha-raf,

Kim bo'-la ol //-mas a-nga gav //-har sa-daf.

- V V - // - V V - // - V -

g) *bir misrada o'n to'rtta bo'g'in bo'lsa, u to'rt ruknga ajratiladi.*

Ruknlardagi bo'g'inlar miqdori uch ko'rinishda bo'ladi: a) 3+4+3+4; b) 3+4+4+3; v) 4+4+4+2. O'n to'rt bo'g'inli misralarni ruknlarga ajratishda *birinchi va uchinchi ruknlar tayanch rukn* bo'lib xizmat qiladi: dastlab birinchi ruknni uch bo'g'inli qilib belgilaymiz, so'ng to'rt bo'g'in tashlab (chunki *bunday misralarda ikkinchi rukn har doim to'rt bo'g'inli bo'ladi*), uchinchi rukn uchun ham uch bo'g'in ajratamiz. Agar uchinchi rukndagi bo'g'inlar birinchi rukn bilan bir xil bo'lsa, demak, misra ruknlarga to'g'ri ajratilgan. To'g'riligining yana bir isboti shuki, bu holda ikkinchi va to'rtinchi ruknlar ham bir xil bo'ladi. Masalan:

**Fas-li nav** //-ba-ho:-r^o'l-di: // **ke:-ti-bon** //zi-mis-ton-lar,

**Do's-t.-lar**, //g'a-ni:-mat-dur // **say-r^e-ting** //gu-lis-ton-lar.

- V - // V - - - // - V - // V - - -

Yoki:

**Hij-ron o'** //-qi-din jis-mi: // **ko'p yo:-ra** // e-kan men-dek,

**Kuy-gan ji** //-ga-ri: bag'-ri: // **sad-po:-ra** // e-kan men-dek.

- - V // V - - - // - - V // V - - -

Boshqa baytda esa ruknlar shu tartibda ajratilganda, birinchi va uchinchi ruknlar bir xil bo'lmasligi mumkin: Masalan:

**Sen-san se** //-va-rim, xo:-h. // **i-non, xo:-** // h. i-non-ma.:

**Qon-dur ji** //-ga-rim, xo:-h. // **i-non, xo:** //- h. i-non-ma.:

- - V // V - - V // V - - // V V - -

Agar uchinchi rukn birinchi rukn bilan bir xil bo'lmasa, uchinchi ruknni to'rt bo'g'inli qilish lozim. Bu holda uchinchi rukn ikkinchi rukn bilan bir xil bo'ladi:

**Sen-san se** //-va-rim, xo:-h. // **i-non, xo:-h.** // i-non-ma.:

**Qon-dur ji** //-ga-rim, xo:-h. // **i-non, xo:-h.** // i-non-ma.:

- - V // V - - V // V - - V // V - -

Ba'zan uchinchi ruknni to'rt bo'g'inli qilganda ham, ruknlar bir-biriga o'xshamasligi, jumladan, ikkinchi va uchinchi ruknlar bir xil bo'lmasligi mumkin. Masalan:

**Qa-ro ko'-** //zum, ke-lu mar //-dum-li-g'^em-di // fan qil-g'il,

**Ko'-zum qa** //-ro:-si-da mar //-dum ki-bi: va //-tan qil-g'il.

V - V // - V V - // - V - V // - - -

Bu holda birinchi ruknni ham to'rt bo'g'inli qilish kerak:

**Qa-ro ko'-zum**, // ke-lu mar-dum // **li-g'^em-di fan** // qil-g'il,

**Ko'-zum qa-ro**: // - si-da mar-dum // **ki-bi: va-tan** // qil-g'il.

V - V - // V V - - // V - V - // - -

Endi birinchi va uchinchi ruknlar bir xil bo'ldi. Demak, misra ruknlarga to'g'ri ajratilgan;

d) *bir misrada o'n beshta bo'g'in bo'lsa, u ham to'rt ruknga ajratiladi.*

Ruknlardagi bo'g'inlar miqdori quyidagicha bo'ladi: 4+4+4+3. Masalan:

Ul na gun-baz // -dur, e-shi:-gi:, // tuy-nu-gi:-din // yo'q ni-shon,

Ne:-cha gul-gun // -po':-sh. qiz-lar // man-zi-l^ay-lab // -dur ma-kon.

- V - - // - V - - // - V - - // - V ~

e) *bir misrada o'n oltita bo'g'in bo'lsa, u ham to'rt ruknga ajratiladi.*

Ruknlardagi bo'g'inlar miqdori quyidagicha bo'ladi: 4+4+4+4. Masalan:

Na bo'l-g'ay bir // na-fas men ham // ya-no:-g'ing uz // -ra xol bo'l-sam,

La-bing yap-ro: // -g'i-din tom-gan // ki go':-yo: qat // -ra bol bo'l-sam.

V - - - // V - - - // V - - - // V - - -

Yoki:

Biz-ki bu-kun // ja-hon a-ro: // kish-va-ri faq // -r. sho:-hi-miz,

Bo:-shi-mi-z^uz // -ra o:-hi-miz // shu':-la-si-dur // ku-lo:-hi-miz.

- V V - // V - V - // - V V - // V - V -

**3. Ruknlarning nomini aniqlash.** Misralar ruknlarga ajratilgandan keyin taqti'ni oxiriga yetkazish uchun, ruknlar tuzilishi - rukndagi bo'g'inlarning soni va joylashish tartibiga qarab ularning qaysi solim yoki far'iy ruknga mos kelishini aniqlash lozim. Masalan, birinchi misoldagi birinchi va ikkinchi ruknlarning birinchi bo'g'inlari qisqa, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi bo'g'inlari cho'ziq. Bu rukn «mafoiylun»ning solim ko'rinishiga to'g'ri keladi: V - - - // *mafoiylun*. Uchinchi ruknning birinchi bo'g'ini qisqa, ikkinchi, uchinchi bo'g'inlari esa cho'ziq. Bu rukn «mafoiylun»ning «mahzuf» ko'rinishi «fauvlun»ga to'g'ri keladi: V - - // *fauvlun*:

A-yo:-qing-g'a: // tu-shar har lah // -za gi:-su:

Ma-sal-dur-kim: // «Cha-roq' tu:-bi: // qo-ron-g'u:.

V - - - // V - - - // V - -

*mafoiylun*

*mafoiylun*

*fauvlun*

Endi yuqorida ko'rilgan usul bilan baytning vaznini nomlaymiz: *hazaji musaddasi mahzuf* (oltitalik mahzuf hazaj).

Yoki boshqa bayt:

Mun-doq de // -di no:-qi-li: // ma-o:-ni:.

Qil-g'och bu // ba-di:-'a so'z // ba-yo:-ni:.

- - V // V - V - // V - -

Birinchi ruknning birinchi va ikkinchi bo'g'inlari cho'ziq, uchinchi bo'g'ini esa qisqa. Uch bo'g'inli bu rukn «mafoiylun»ning «axrab» ko'rinishi bo'lgan

«maf'uvlu»ga to'g'ri keladi: – – V // **maf'uvlu**. Ikkinchi rukn to'rt bo'g'inli bo'lib, birinchi va uchinchi bo'g'inlari qisqa, ikkinchi va to'rtinchi bo'g'inlari esa cho'ziq. Bu rukn «mafoiylun»ning «maqbuza» ko'rinishi bo'lgan «mafoilun»ga to'g'ri keladi: V – V – // **mafoilun**. Uchinchi rukn uch bo'g'inli bo'lib, birinchi bo'g'in qisqa, ikkinchi, uchinchi bo'g'inlar esa cho'ziq. Bu rukn «mafoiylun»ning «mahzuf» ko'rinishi bo'lgan «fauvlun»ga to'g'ri keladi: V – – // **fauvlun**:

Mun–doq de //–di no:–qi–li: //ma–o:–ni:;

Qil–g'och bu //ba–di:–'a so'z //ba–yo:–ni:.

– – V // V – V – // V – –

**maf'uvlu mafoilun fauylun**

Bu vaznning nomini ham yuqoridagi usul bilan aniqlasak, baytning vazni **hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf** bo'ladi (oltitalik axrabu maqbuzu mahzuf hazaj).

Boshqa ruknlarning nomi ham shu tarzda belgilanadi.

### **Bahrlar**

***Bir yoki ikki asliy rukn asosida yuzaga keladigan vaznlar to'plami bahr deyiladi.***

Masalan, avvalgi mavzulardan ma'lumki, «mafoiylun»ning solim va far'iy ko'rinishlaridan quyidagi vaznlar yuzaga keladi: 1) *hazaji musaddasi mahzuf*; 2) *hazaji musaddasi maqsur*; 3) *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf*; 4) *hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur*; 5) *hazaji musaddasi axrabi ashtari mahzuf*; 6) *hazaji musammani solim*; 7) *hazaji musammani axrab*; 8) *hazaji musammani ashtar*; 9) *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* va hokazo. Ana shunday bir rukndan hosil bo'lgan vaznlar yig'indisi bahr deyiladi. «Mafoiylun» ruknidan «hazaj», «foilotun» ruknidan «ramal», «mustaf'ilun» ruknidan «rajaz», «fauylun» ruknidan «mutaqorib» bahrlari yuzaga keladi.

Aruz vaznida hammasi bo'lib 19 bahr bor. Bahrlar bir asl ruknning takrori yoki ikki asl ruknning o'zaro birikuvidan hosil bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra ular ikkiga bo'linadi:

1) ***muttafiq ul-arkon bahrlar*** – bir xil ruknli bahrlar;

2) ***muxtalif ul-arkon bahrlar*** – har xil ruknli bahrlar.

Agar bahr bir asl ruknning takroridan hosil bo'lgan bo'lsa, ***muttafiq ul-arkon***, ikki asl ruknning birikuvidan hosil bo'lgan bo'lsa, ***muxtalif ul-arkon*** bahr deyiladi.

***Muttafiq ul-arkon*** bahrlarning soni 7 ta. Ular bizga ma'lum bo'lgan sakkiz asl rukndan yettitasining takroridan hosil bo'ladi. Asliy ruknlar va ular asosida yuzaga keladigan muttafiq ul-arkon bahrlar quyidagi jadvalda ko'rsatilgan:

<b><i>T/r</i></b>	<b><i>ruknlari nomi</i></b>	<b><i>bahrlar</i></b>
1	<i>fauylun</i>	<i>mutaqorib</i>
2	<i>foilun</i>	<i>mutadorik</i>

3	<i>mafoiylun</i>	<i>hazaj</i>
4	<i>foilotun</i>	<i>ramal</i>
5	<i>mustaf'ilun</i>	<i>rajaz</i>
6	<i>mutafoilun</i>	<i>komil</i>
7	<i>mafoilatun</i>	<i>vofir</i>

Asliy ruknlardan «**maf'uvlotu**»ning takroridan hosil bo'luvchi bahr yo'q.

**Muxtalif ul-arkon** bahrlarning soni 12 ta. Muxtalif ul-arkon bahrlar asliy ruknlarning qay usulda birikuviga ko'ra o'z navbatida yana ikkiga bo'linadi:

a) *ikki ruknning galma-gal takroridan tuzilgan bahrlar*. Bunday bahrlarning soni 8 ta. Ular quyidagi jadvalda aks etgan:

<i>T/r</i>	<i>ruknlari nomi</i>	<i>bahrlar</i>
1	<i>mafoiylun + foilotun + mafoiylun + foilotun</i>	<i>muzore'</i>
2	<i>foilotun + mustaf'ilun + foilotun + mustaf'ilun</i>	<i>xafif</i>
3	<i>mustaf'ilun + foilotun + mustaf'ilun + foilotun</i>	<i>mujtass</i>
4	<i>mustaf'ilun + maf'uvlotu + mustaf'ilun + maf'uvlotu</i>	<i>munsarih</i>
5	<i>maf'uvlotu + mustaf'ilun + maf'uvlotu + mustaf'ilun</i>	<i>muqtazab</i>
6	<i>fauvlun + mafoiylun + fauvlun + mafoiylun</i>	<i>tavil</i>
7	<i>mustaf'ilun + foilun + mustaf'ilun + foilun</i>	<i>basit</i>
8	<i>foilotun + foilun + foilotun + foilun</i>	<i>madid</i>

Bu usulda tuzilgan bahrlarda qaysi rukn qaysi o'rinda kelishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki ruknlarning o'rni o'zgarishi bilan bahrlarning nomi ham o'zgarib ketadi. Masalan, «foilotun» «mustaf'ilun»dan avval kelsa, xafif; keyin kelsa, mujtass; «mustaf'ilun» «maf'uvlotu»dan avval kelsa, munsarih; keyin kelsa, muqtazab bahrlari hosil bo'ladi;

b) *ketma-ket ikkita bir xil va bitta boshqa ruknning birikuvidan tuzilgan bahrlar*. Bunday bahrlarning soni 4 ta. Ular quyidagilar:

<i>T/r</i>	<i>ruknlari nomi</i>	<i>bahrlar</i>
1	<i>mafoiylun + mafoiylun + foilotun</i>	<i>qarib</i>
2	<i>foilotun + mafoiylun + mafoiylun</i>	<i>mushokil</i>
3	<i>foilotun + foilotun + mustaf'ilun</i>	<i>g'arib</i>
4	<i>mustaf'ilun + mustaf'ilun + maf'uvlotu</i>	<i>sari'</i>

Ushbu bahrlarni, boshqa bahrlardan farqli o'laroq, murabba' va musamman shakllarda qo'llashning iloji yo'q. Shuning uchun ular she'riyatda faqat musaddas shakllarda uchraydi, xolos.

Shuni ham esda tutish lozimki, garchi bahrlar soni 19 ta bo'lsa ham, ulardan 6 tasi: *vofir, muqtazab, basit, qarib, mushokil va g'arib* bahrlari o'zbek she'riyatida mutlaqo qo'llanilmagan, ular asosan arab she'riyatiga mansub vaznlardir. 4 bahr: *madid, mutadorik, komil va tavil* bahridagi she'rlar ham o'zbek adabiyotida juda kam. O'zbek adabiyotida she'rlar ko'proq quyidagi 9 vaznda yozilgan: *ramal, hazaj,*



*muzore', rajaz, xafif, mujtass, munsarih, sari', mutaqorib.* Eng faol ishlatilgan vaznlar esa ikkita: *ramal va hazaj.*

## 8-мавзу: Hazaj bahri va uning vaznlari

Режа:

1. Ҳазаж баҳрининг мураббаъ вазнлари.
2. Ҳазаж баҳрининг мусаддас вазнлари.
3. Ҳазажи мусаддаси маҳзуф ва бошқа вазнлар.

Avval aytib o'tilganidek, hazaj bahri «mafoiylun» ruknining takroridan hosil bo'ladi. «Mafoiylun» rukni o'zbekcha so'zlarning tuzilishiga juda mos. «Mafoiylun» ruknidan hosil bo'lgan vaznlar vazmin, dardli, shu bilan birga, yoqimli bir musiqiy ohangga ega. Shuning uchun o'tmish adabiyotida hazaj bahri vaznlari juda ko'p qo'llangan. Hazaj bahri adabiyotimiz tarixida murabba', musaddas va musamman ko'rinishlarida uchraydi:

### *Murabba' vaznlar*

*Hazaji murabba'i solim.* Mazkur vazn «maoiylun» solim ko'rinishining (mafoiylun // V - - - ) har misrada ikki marta takrorlanishidan yuzaga keladi:

mafoiylun      mafoiylun  
V - - - //      V - - -

Masalan:

Yu-rak, sen-san me-ning so:-zim,  
Ti-lim-ni: nay-ga jo'r et-ding.

V - - - // V - - -  
*mafoiylun              mafoiylun*

*solim                      solim*

### **Usmon Nosir. Yurak**

Yoki:

Ko'-ngil, sen mun-cha-lar ne:-ga:  
Ki-shan-lar bir-la do'st-lash-ding?  
Na far-yo:-ding, na do:-ding bor,  
Ne-chun sen mun-cha sust-lash-ding?

V - - - //      - - - -  
*mafoiylun              mafoiylun*

*solim                      solim*

### **Cho'lpon. Ko'ngul**

### *Musaddas vaznlar*

Hazaj bahrining quyidagi musaddas (oltilik) vaznlari ko'p uchraydi:

**1. Hazaji musaddasi mahzuf.** Mazkur vaznning birinchi va ikkinchi ruknlari «mafoiylun»ning solim (V – – –), uchinchi rukni esa mahzuf (fauvlun // V – –) ko'rinishiga teng bo'ladi:

mafoiylun            mafoiylun            fauvlun  
V – – – //            V – – – //            V – –

Masalan:

Ni-go:-ro:, sen-si-zin man-din ne ho:-sil,

A-gar jon bo'l-ma-sa:, tan-din ne ho:-sil.

V – – – // V – – – // V – –

mafoiylun            mafoiylun            fauvlun  
solim                    solim                    mahzuf

#### Atoiy

Yoki:

De-di: shah-zo:-da-ni:, kel-gil ya-qin-roq,

O'-zi:-ga: qil-di ham-ro:-zi: qa-rin-roq.

V – – – // V – – – // V – –

mafoiylun            mafoiylun            fauvlun  
solim                    solim                    mahzuf

#### Alisher Navoiy. Farhod va Shirin

**2. Hazaji musaddasi maqsur.** Mazkur vaznning avvalgi vazndan farqi shundaki, bu vaznning uchinchi rukni mahzuf emas, maqsur (mafoiyl // V – ~) bo'ladi:

mafoiylun            mafoiylun            mafoiyl  
V – – – //            V – – – //            V – ~

Masalan:

Qo'-pib o:-lin-da chun yer o'p-ti Far-hod,

Ha-ki:-mi: do:-ni-sho:-muz et-ti bun-yod.

V – – – // V – – – // V – ~

mafoiylun            mafoiylun            mafoiyl  
solim                    solim                    maqsur

#### Alisher Navoiy. Farhod va Shirin

**Eslatma:** mazkur ikki vazn bir-biriga yaqin bo'lganligidan (farq faqat oxirgi bo'g'inning cho'ziq yoki o'ta cho'ziq ekanligida) bir asar doirasida baravar qo'llanaveradi. Keltirilgan misollardan ham ko'rinib turibdiki, «Farhod va SHirin» dostonida har ikkala vaznni ham uchratish mumkin.

**3. Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf.** Mazkur vaznning birinchi rukni «mafoiylun»ning axrab (maf'uvlu // – – V), ikkinchi rukni maqbuz (mafoilun // V – V –), uchinchi rukni esa mahzuf (fauvlun // V – –) ko'rinishidan iborat:

maf'uvlu            mafoilun            fauvlun  
– – V //            V – V – //            V – –

Masalan:

Mun–doq de–di no:–qi–li: ma–o:–ni:,  
Qil–g’och bu ba–di:–’a so’z ba–yo:–ni:.

– – V // V – V – // V – –

maf’uvlu mafoilun fauvlun

axrab maqbuz mahzuf

#### Alisher Navoiy. Layli va Majnun

**4. Hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur.** Mazkur vaznning avvalgi vazndan farqi shundaki, bu vaznning uchinchi rukni «mafoiylun»ning mahzuf emas, maqsur (mafoiyl // V–~) ko’rinishi bo’ladi:

maf’uvlu mafoilun mafoiyl  
– – V // V – V – // V – ~

Masalan:

Kim qoch–ti chu ul ra–mi:–da pay–vand,

Ul tun u–yi–din ra–mi:–da mo:–nand.

– – V//V – V – // V – ~

maf’uvlu mafoilun mafoiyl

axrab maqbuz maqsur

#### Alisher Navoiy. Layli va Majnun

**5. Hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf yoki maqsur:** Mazkur vaznning birinchi rukni «mafoiylun»ning axram (maf’uvlun // – – –), ikkinchi rukni ashtar (foilun // – V –), uchinchi rukni esa mahzuf yoki maqsur (fauvlun // V – –, mafoiyl // V – ~) ko’rinishidan iborat bo’ladi:

maf’uvlun foilun fauvlun yoki mafoiyl  
– – – // – V – // V – – yoki V – ~

Masalan:

«Lay–li:, Lay–li:» de–bon che–kib un,

El deb: «Maj–nun–du–r^ush–bu Maj–nun».

– – – // – V – // V – ~

maf’uvlun foilun mafoiyl

axram ashtar maqsur

#### Alisher Navoiy. Layli va Majnun

**Eslatma:** Mazkur to’rt vazn (*hazaji musammani axrabi maqbuzi mahzuf, hazaji musaddasi axrabi maqbuzi maqsur, hazaji musaddasi axrami ashtari mahzuf hamda hazaji musaddasi axrami ashtari maqsur*) bir-biriga yaqin bo’lganligi uchun bir asar doirasida baravar qo’llanaveradi. Keltirilgan misollardan ham ko’rinib turibdiki, «Layli va Majnun» dostonida har to’rt vazni ham uchratish mumkin.

### 9-мавзу: Hazaj bahri va uning vaznlari

Режа:

#### 1. Ҳазаж баҳрининг мусамман вазнлари.

## 2. Ҳазажи мусаммани солим.

### 3. Ҳазажи мусаммани ахраб ва бошқа вазнлар.

Hazaj bahri musamman (sakkizlik) vaznlaridan quyidagilar o'zbek adabiyoti tarixida ko'p qo'llangan:

1. *Hazaji musammani solim*. Mazkur vaznning to'rtala rukni ham «mafoiylun»ning solim (V – – – ) ko'rinishidan iborat:

mafoiylun      mafoiylun      mafoiylun      mafoiylun  
V – – – //    V – – – //    V – – – //    V – – –

Masalan:

Xa-zon yaf-ro:-g'i yang-lig' gul yu-zing haj-ri:-da sar-g'ar-dim,

Ko'-rib rah-m^ay-la-gil, ey lo:-la ruh, bu: cheh-ra-i: zar-dim.

V – – – // V – – – // V – – – // V – – –  
*mafoiylun*      *mafoiylun*      *mafoiylun*      *mafoiylun*  
*solim*              *solim*              *solim*              *solim*

#### Bobur

Yoki:

Shi-fo:-yi: vas-l. qad-rin haj-r^i-la: be:-mo:-r^o'-lan-dan so'r,

Zu-lo:-li: zav-q.-shav-qin tash-na-i: diy-do:-r^o'-lan-dan so'r,

V – – – // V – – – // V – – – // V – – –  
*mafoiylun*      *mafoiylun*      *mafoiylun*      *mafoiylun*  
*solim*              *solim*              *solim*              *solim*

#### Fuzuliy

«*Hazaji musammani solim*» vazni o'zbek adabiyotidagi eng sevimli vaznlardan biridir. Ko'p qo'llanishi nuqtai nazaridan u o'zbek adabiyotida faqat «*ramali musammani mahzuf*» vaznidan keyin turadi, xolos.

2. *Hazaji musammani axrab*. Mazkur vaznning birinchi va uchinchi ruknlari «mafoiylun»ning «axrab» (– – V // maf'uvlu), ikkinchi va to'rtinchi ruknlari esa solim (V – – –) ko'rinishidan iborat bo'ladi:

maf'uvlu      mafoiylun      maf'uvlu      mafoiylun  
– – V //    V – – – //    – – V //    V – – –

Masalan:

Sho'x ik-ki g'i-zo:-ling-ni: noz uy-qu-si-din uy-g'at,

To: uy-qu-la-ri: ket-sun, gul-zor i-chi-da: o'y-nat.

– – V // – – – // – – – V // V – – –  
*maf'uvlu* *mafoiylun*      *maf'uvlu*      *mafoiylun*  
*axrab*              *solim*              *axrab*              *solim*

#### Navoiy

Yoki:

Kul-bam sa-ri jo:-no:-nim kel-mas-mu e-kin o:-yo:.

Haj-ri:-da yo-mon ho:-lim bil-mas-mu e-kin o:-yo:.

– – V//V – – – // – – V//V – – –  
*maf'uvlu mafoiylun maf'uvlu mafoiylun*  
*axrab solim axrab solim*

### Munis

3. **Hazaji musammani ashtar.** Makur vaznning birinchi va uchinchi ruknlari «mafoiylun»ning «ashtar» (–V– // foilun), ikkinchi va to'rtinchi ruknlari esa solim ko'rinishidan iborat:

foilun mafoiylun foilun mafoiylun  
 – V – // V – – – // – V – // V – – –

Masalan:

Kel–di o:–chi–lur cho:–g'i:, o'z–li–ging na–mo:–yon qil,  
 Par–cha–lab ki–shan–lar–ni: har to–mon pa–ri:–shon qil.

– V – // V – – – // – V – // V – – –  
*foilun mafoiylun foilun mafoiylun*  
*ashtar solim ashtar solim*

### Hamza

Yoki:

Fas–li nav–ba–ho:–r^o'l–di: ke:–ti–bon zi–mis–ton–lar,  
 Do's–t.–lar, g'a–ni:–mat–dur say–r^e–ting gu–lis–ton–lar.

– V – // V – – – // – V – // V – – –  
*foilun mafoiylun foilun mafoiylun*  
*ashtar solim ashtar solim*

### Furqat

4. **Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf.** Mazkur vaznning birinchi rukni «mafoiylun»ning «axrab» (– – V // maf'uvlu), ikkinchi va uchinchi ruknlari «makfuf» (V – – V // mafoiylu), to'rtinchi rukni esa «mahzuf» (V – – // fauvlun) ko'rinishidan iborat:

maf'uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun  
 – – V // V – – V // V – – V // V – –

Masalan:

Sen–dek ma–nga bir yo:–ri ja–fo:–ko:–r. to–pil–mas,  
 Men–dek sa–nga bir zo:–ri va–fo:–do:–r. to–pil–mas.

– – V // V – – V//V – – V//V – –  
*maf'uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun*  
*axrab makfuf makfuf mahzuf*

### Bobur

Yoki:

Ishq maz–ha–bi–ga: taq–vi–yu to:–at chi–da–yol–mas,  
 Tas–be:–hu sa–no:, zuh–du i–bo:–dat chi–da–yol–mas.

– – V//V – – V//V – – V//V – –

<i>maf'uvlu</i>	<i>mafoiylu</i>	<i>mafoiylu</i>	<i>fauvlun</i>
<i>axrab</i>	<i>makfuf</i>	<i>makfuf</i>	<i>mahzuf</i>

### Mashrab

Mazkur vazn ham sevimli vaznlardan biridir. Atoiy, Lutfiy, Navoiy, Mashrab, Munis va boshqa shoirlar o'zlarining ko'plab she'rlarini shu vaznda bitganlar.

**Eslatma:** Sharq adabiyotidagi mashhur mastazod janri ham *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* vaznida bitilgan. Mustazodning ushbu vaznda bitilgan g'azallardan farqi shundaki, mustazod janridagi she'rlarda g'azalga o'xshagan har bir uzun misradan (– – V // V – – V // V – – V //V – – || maf'uvlu mafoiylu mafoiylu fauylun) so'ng ularga uzun misraning birinchi va to'rtinchi ruknlariga teng keladigan qisqa misracha (– – V // V – – || maf'uvlu // fauylun) qo'shiladi. Shuning uchun ham bu janrga «orttirilgan, ziyoda qilingan» degan ma'noda mustazod deb nom berilgan. Mustazod vaznining ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

maf'uvlu	mafoiylu	mafoiylu	fauylun
– – V //	V – – V //	V – – V //	V – –
axrab	makfuf	makfuf	mahzuf
		maf'uvlu	fauylun
		– – V //	V – –
		axrab	mahzuf

Masalan:

Ish–qing o'–ti–din o'r–ta–na–dur jo:–ni ni–zo:–rim,

– – V//V – – V //V – – V//V – –

<i>maf'uvlu</i>	<i>mafoiylu</i>	<i>mafoiylu</i>	<i>fauylun</i>
<i>axrab</i>	<i>makfuf</i>	<i>makfuf</i>	<i>mahzuf</i>

Ul nav–'i– ki mash'–al.

– – V // V – –

<i>maf'uvlu</i>	<i>fauylun</i>
<i>axrab</i>	<i>mahzuf</i>

Xo:–kis–ta–r^o'–lib yel–ga bo–rur gar–di g'u–bo:–rim,

– – V //V – – V //V – – V //V – –

<i>maf'uvlu</i>	<i>mafoiylu</i>	<i>mafoiylu</i>	<i>fauylun</i>
<i>axrab</i>	<i>makfuf</i>	<i>makfuf</i>	<i>mahzuf</i>

Jis–mim bo' –li–bon hal

– – V // V – –

<i>maf'uvlu</i>	<i>fauylun</i>
<i>axrab</i>	<i>mahzuf</i>

### Munis

Yoki:

Bu xas–ta vu–ju:–dim–ni me–ni: o'r–ta–di bir yo'l

– – V //V – – V //V – – V //V – –

<i>maf'uvlu</i>	<i>mafoiylu</i>	<i>mafoiylu</i>	<i>fauvlun</i>		
<i>axrab</i>	<i>makfuf</i>	<i>makfuf</i>	<i>mahzuf</i>		
				Ul zul-fi	pa-ri:-shon
				- - V //	V - ~
				<i>maf'uvlu</i>	<i>mafoiyl<sup>1</sup></i>
				<i>axrab</i>	<i>maqsur</i>

Ul gul yu-zi-ning shav-qi-da men vo:-la-yi bul-bul,

- - V//V - - V // V - - V // V -

<i>maf'uvlu</i>	<i>mafoiylu</i>	<i>mafoiylu</i>	<i>fauvlun</i>
<i>axrab</i>	<i>makfuf</i>	<i>makfuf</i>	<i>mahzuf</i>

Ul g'un-cha -yi xan-don.

- - V // V - ~

<i>maf'uvlu</i>	<i>mafoiyl</i>
<i>axrab</i>	<i>maqsur</i>

### Mashrab

Gadoiy, Navoiy, Mashrab, Munis va Ogahiylarning mustazodlari mazkur vaznda bitilgan.

## 11-мавзу. «Foilotun» (-V- -) rukni va uning zihoflari. Ramal bahri vaznlari

### Режа:

#### 1. «Foilotun» (-V- -) rukni va uning zihoflari.

#### 2. Рамал бахрининг мусаддас вазнлари.

#### 3. Рамали мусаддаси маҳзуф ва бошқа вазнлар.

«Foilotun» rukni hammasi bo'lib o'n xil zihof – o'zgarishga uchraydi, buning natijasida uning o'n besh far'iy ko'rinishi yuzaga keladi. Ular quyidagilar:

1) *foiliyyon*. «Foilotun»dagi (-V- -) oxirgi «*tun*» cho'ziq bo'g'inning «*ton*» o'ta cho'ziq bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: -V- ~. Yuzaga kelgan «foiloton» vazn jihatidan u bilan bir xil bo'lgan «*foiliyyon*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*tasbig'*», «*tasbig'*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*musabbag'*» deyiladi;

2) *failotun*. «Foilotun»dagi (-V- -) birinchi «*fo*» cho'ziq bo'g'inning «*fa*» qisqa bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: VV- -. Rukndagi bu o'zgarish «*xabn*», «*xabn*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*maxbun*» deyiladi;

3) *failiyyon*. «Failotun»dagi (VV- -) oxirgi «*tun*» cho'ziq bo'g'inning «*ton*» o'ta cho'ziq bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: -V-~. Yuzaga kelgan «failoton» vazn jihatidan u bilan teng bo'lgan «*failiyyon*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*tasbig'*», «*tasbig'*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa

<sup>1</sup> Ilgari ta'kidlanganidek, oxirgi ruknda «mafoiylun»ning «*mahzuf*» (V - - // *fauvlun*) va «*maqsur*» (V - ~ // *mafoiyl*) zixoflari almashinib kelishi mumkin. Agar maqsur bo'lsa, mustazodning vazni «*hazaji musammani axrabi makfufi maqsur*» bo'ladi.

«musabbagʻ» deyiladi. Ammo u solim rukn «foilotun»dan emas, balki maxbun rukn «failotun»dan hosil boʻlganligi uchun musabbagʻli maxbun maʼnosida «**maxbuni musabbagʻ**» deb nomlanadi;

4) **foilotu**. «Foilotun»dagi (–V– –) toʻrtinchi «**tun**» choʻziq boʻgʻinning «**tu**» qisqa boʻgʻinga aylanishidan hosil boʻladi:–V–V. Rukndagi bu oʻzgarish «**kaff**», «kaff» zihofi natijasida paydo boʻlgan farʼiy rukn esa «**makfuf**» deyiladi;

5) **failotu**. «Foilotun»dagi (–V– –) birinchi «**fo**» va toʻrtinchi «**tun**» choʻziq boʻgʻinlarining qisqa «**fa**» va «**tu**» boʻgʻinlariga aylanishidan hosil boʻladi: (VV–V). Rukndagi bu oʻzgarish «**shakl**», «shakl» zihofi natijasida paydo boʻlgan farʼiy rukn esa «**mashkul**» deyiladi;

6) **foilot** yoki **foilon**. «Foilotun» (–V– –) oxiridagi «**un**» qismining tushishidan hosil boʻladi, natijada uchinchi choʻziq boʻgʻin oʻta choʻziq boʻgʻinga aylanadi: –V~.<sup>9</sup> Rukndagi bu oʻzgarish «**qasr**», «qasr» zihofi natijasida paydo boʻlgan farʼiy rukn esa «**maqsur**» deyiladi;

7) **failot** yoki **failon**. «Foilot» yoki foilon» (–V~ // maqsur) farʼiy rukndagi birinchi «**fo**» choʻziq boʻgʻinning «fa» qisqa boʻgʻinga aylanishidan hosil boʻladi: –V~. Rukndagi bu oʻzgarish «**xabn**», «xabn» zihofi natijasida paydo boʻlgan farʼiy rukn esa «**maxbun**» deyiladi. Ammo u solim rukn «foilotun»dan emas, balki maqsur rukn «foilon»dan hosil boʻlganligi uchun maqsurning maxbuni maʼnosida «**maxbuni maqsur**» deb nomlanadi;

8) **foilun**.<sup>10</sup> «Foilotun» (–V– –) oxirgi «**lun**» boʻgʻinining tushishidan hosil boʻladi: –V–. Qolgan qism «foilo» deyilmay, «foilo»ga vazndosh boʻlgan «**foilun**» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu oʻzgarish «**hazf**», «hazf» zihofi natijasida paydo boʻlgan farʼiy rukn esa «**mahzuf**» deb nomlanadi;

9) **failun**. «Foilun» (–V– // mahzuf) farʼiy rukndagi birinchi «**fo**» choʻziq boʻgʻinning «fa» qisqa boʻgʻinga aylanishidan hosil boʻladi: VV–. Rukndagi bu oʻzgarish «**xabn**», «xabn» zihofi natijasida paydo boʻlgan farʼiy rukn esa «**maxbun**» deyiladi. Ammo u solim rukn «foilotun»dan emas, balki mahzuf rukn «foilun»dan hosil boʻlganligi uchun mahzufning maxbuni maʼnosida «**maxbuni mahzuf**» deb nomlanadi;

10) **mafʼuvlun**. «Foilotun» (–V– –) dagi ikkinchi qisqa boʻgʻinning tushishidan hosil boʻladi:– – –. qolgan «folotun» qismi vazn jihatidan u bilan bir xil boʻlgan «**mafʼuvlun**» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu oʻzgarish «**tashʼis**», «tashʼis» zihofi natijasida paydo boʻlgan farʼiy rukn esa «**mushaʼʼas**» deyiladi;

11) **faʼlun**. «Foilotun» (–V– –) toʻrtinchi «**tun**» boʻgʻinining va uchinchi choʻziq «**lo**» boʻgʻinidagi «**o**» **harfining** tushishidan hosil boʻladi: – –. qolgan «foil»

<sup>9</sup> Masalan, «foilotun»ga teng boʻlak «bu: ki to:-bim» boʻlsa, oxirgi boʻgʻin «-bim» emas, uning bir qismi - «-ing» tushadi. Natijada oxirgi boʻgʻindagi «r» uchinchi boʻgʻinga oʻtib, uchinchi boʻgʻin oʻta choʻziq boʻgʻinga aylanadi: bu: ki-tob / - V ~ / foilot yoki foilon.

<sup>10</sup> Bu yerda «**foilun**» - «foilotun»dan hosil boʻlgan **farʼiy rukn**. Uni «foilun» **asliy rukni** yoki “mafoiylun”ning **ashtar** koʻrinishi boʻlgan “foilun”bilan chalkashtirmaslik lozim.



qismi vazn jihatidan u bilan bir xil bo'lgan «*fa'lun*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*qat'*», «*qat'*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*maqtu'*» deyiladi;

12) *fa'lon*. «Fa'lun» (— — // maqtu') far'iy rukn oxiridagi «*lun*» cho'ziq bo'g'inning «*lon*» o'ta cho'ziq bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi:—~. Rukndagi bu o'zgarish «*tasbig'*», «*tasbig'*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*musabbag'*» deyiladi. Ammo u solim rukn «foilotun»dan emas, balki maqtu' rukn «fa'lun»dan hosil bo'lganligi uchun musabbag'li maqtu' ma'nosida «*maqtu'i musabbag'*» deb nomlanadi;

13) *fail*. «Foilotun» (—V— —) dagi birinchi cho'ziq bo'g'inning qisqa bo'g'inga aylanishi hamda oxirgi «*tun*» bo'g'ini va uchinchi «*lo*» bo'g'inidagi «*o*» harfining tushishidan hosil bo'ladi: V—. Rukndagi bu o'zgarish «*rab'*», «*rab'*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*marbu'*» deyiladi;

14) «*fa'*». «Foilotun» (—V— —) dagi avvalgi uch bo'g'inning tushishidan hosil bo'ladi: —. qolgan «*tun*» qismi vazn jihatidan u bilan bir xil bo'lgan «*fa'*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*jahf'*», «*jahf'*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*majhuf'*» deyiladi;

15) «*fo'*». «Fa'» (— // majhuf) bir cho'ziq bo'g'in tarzidagi far'iy ruknning bir o'ta cho'ziq bo'g'in tarzidagi ruknga aylanishidan hosil bo'ladi: ~. Rukndagi bu o'zgarish «*tasbig'*», «*tasbig'*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*musabbag'*» deyiladi. Ammo u solim rukn «foilotun»dan emas, balki majhuf rukn «fa'»dan hosil bo'lganligi uchun musabbag'li majhuf ma'nosida «*majhufi musabbag'*» deb nomlanadi.

Shunday qilib, «foilotun» ruknining, agar solim ko'rinishini ham qo'shadigan bo'lsak, o'n olti ko'rinishi mavjud bo'ladi. Lekin ruknlarning ko'pligidan cho'chimaslik lozim, chunki ulardan to'rttasi: 1) *maf'uvlun* (— — — // musha''as); 2) *fail* (— // marbu'; 3) *fa'* (— // majhuf; 4) *fo'* (~ // majhufi musabbag') o'zbek adabiyotida uchramaydi. Oltitasi: 1) *foilun* (—V— // mahzuf; 2) *foilon* (—V~ // maqsur); 3) *failun* (VV— // maxbuni mahzuf); 4) *failon* (VV~ // maxbuni maqsur); 5) *fa'lun* (— // maqtu'); 6) *fa'lon* (—~ // maqtu'i musabbag') esa faqat misra oxirida uchraydi, xolos.

«Foilotun» rukni, uning zihoflari, undan hosil bo'ladigan far'iy ruknlar va ularning misralardagi o'rnini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin:

<i>T/ r</i>	<i>rukn nomi</i>	<i>zihof nomi</i>	<i>far'iy rukn nomi</i>	<i>chizmasi</i>	<i>misradagi o'rni</i>
1	foilotun	—	solim	—V—	1,2,3-ruknlarda
2	foiliyyon	tasbig'	musabbag'	—V—~	oxirgi ruknda
3	failotun	xabn	maxbun	V V—~	1,2,3-ruknlarda
4	failiyyon	tasbig'	maxbuni musabbag'	V V—~	oxirgi ruknda

5	foilotu	kaff	makfuf	-V- V	2-ruknda
6	failotu	shakl	mashkul	V V- V	1,3-ruknlarda
7	foilon	qasr	maqsur	-V~	oxirgi ruknda
8	failon	xabn	maxbuni maqsur	V V~	oxirgi ruknda
9	foilun	hazf	mahzuf	-V-	oxirgi ruknda
10	failun	xabn	maxbuni mahzuf	V V-	oxirgi ruknda
11	maf'uvlun	tash'is	musha''as	- - -	oxirgi ruknda
12	fa'lun	qat'	maqtu'	- -	oxirgi ruknda
13	fa'lon	tasbig'	maqtu'i musabbag'	- ~	oxirgi ruknda
14	fail	rab'	marbu'	V -	oxirgi ruknda
15	fa'	jahf	majhuf	-	oxirgi ruknda
16	fo'	tasbig'	majhufi musabbag'	~	oxirgi ruknda

Shu bilan birga, boshqa ruknlarda uchramaydigan, faqat «foilotun» ruknigagina xos bo'lgan bir xususiyatni ham esda tutish lozim: bir she'r doirasida «foilotun» bilan «failotun» ruknlari, shuningdek, «failun», «failon», «fa'lun» va «fa'lon» ruknlari bir-birining o'rnida qo'llanishi mumkin.

«Foilotun» rukni ramal, muzore', xafif va mujtass bahrlarini hosil qilishda ishtirok etadi.

### *Ramal bahri vaznlari*

Ramal bahri, avval ta'kidlanganidek, she'riy misralarda «foilotun» ruknining takrorlanishidan yuzaga keladi. Ramal turkiy, jumladan, o'zbek adabiyotida uzoq tarixga ega bo'lgan bahr bo'lib, vazmin, mahzun va dardli ohangi, mumtoz musiqa ohanglariga uyg'unligi, ishq tuyg'u va kechinmalarini mutaassir ifodalash uchun benihoya qulayligi sabab o'zbek mumtoz adabiyotidan keng o'rin olgan. Ramal bahri o'zbek adabiyotida ko'proq musaddas va musamman shakllarida qo'llangan.

### *Musaddas vaznlar*

O'zbek adabiyotida ramal bahrining quyidagi musaddas vaznlari uchraydi:

1. **Ramali musaddasi mahzuf.** Mazkur vaznning birinchi va ikkinchi ruknlari «foilotun»ning solim (-V- -), uchinchi rukni esa mahzuf (-V - // foilun) ko'rinishiga tengdir:

foilotun	foilotun	foilun
- V - - //	- V - - //	- V -

Masalan:

Chun g'a-raz so'z-din e-rur ma':-ni: a-nga:,

No:–qi–l<sup>o</sup>–l–sa: xo:–h. xo:–tun, xo:–h. er.  
 – V – –// – V – –// – V –  
*foilotun foilotun foilon*  
*solim solim mahzuf*

### Navoiy

Yoki:

Ul yu–zi: oy–kim ja–hon–ning jo:–ni–dur,  
 Bu: za–mo:–na: xo’b–la–ri:–ning xo:–ni–dur.  
 – V – –// – V – –// – V –  
*foilotun foilotun foilon*  
*solim solim mahzuf*

### Sayfi Saroiy

Mazkur vaznda juda ko’p lirik she’rlar hamda Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostoni yozilgan.

2. **Ramali musaddasi maqsur.** Mazkur vaznning ramali musaddasi mahzufdan farqi shundaki, undagi uchinchi rukn «foilotun»ning «mahzuf» emas, «maqsur» (– V ~) far’iy ko’rinishi bo’ladi:

foilotun foilotun foilon  
 – V – – // – V – – // – V ~

Masalan:

Ey ko’–ngul, yor–siz sa–ngo: ne bo:–r. bor,  
 Qay–da–kim ul zul–fi an–bar bo:–r. bor.  
 – V – –// – V – –// – V ~  
*foilotun foilotun foilon*  
*solim solim maqsur*

### Lutfiy

Yoki:

Qil–ma–g’il zin–ho:–r. iz–hor eh–ti–yoj,  
 Kim a–ziz el–ni: qi–lur xor eh–ti–yoj.  
 – V – –// – V – –// – V ~  
*foilotun foilotun foilon*  
*solim solim maqsur*

### Nodira

**Eslatma:** ramali musaddasi mahzuf va ramali musaddasi maqsur vaznlari bir-biriga yaqin bo’lganligi uchun bir asar doirasida birgalikda qo’llanaveradi. Kichik hajmli she’rlarning bu ikki vazndan qaysi birida yozilganligini belgilashda ularning matla’si – birinchi bayti yoki juft misralari hisobga olinadi. Agar matla’ ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan bo’lsa, ayrim toq misralar ramali musammani maqsur vaznida yozilgan bo’lsa ham, she’rning vazni ramali musammani mahzuf deb, agar aksincha bo’lsa, ramali musammani maqsur deb belgilanadi. Yirik hajmli asarlarda esa ramali musaddasi mahzuf vaznida bitilgan baytlar ko’pchilikni tashkil

qilgani uchun ularning vazni ramali musaddasi mahzuf bo'ladi. Masalan, Navoiyning «Lison ut-tayr» dostonidagi ko'pgina baytlar ramali musaddasi maqsur vaznida yozilgan. Lekin shunday bo'lsa ham, aksariyat baytlar ramali musaddasi mahzuf vaznida yozilgani uchun dostonning vazni ramali musaddasi mahzufdir.

3. **Ramali musaddasi solimi maxbuni mahzuf.** Mazkur vaznning birinchi rukni «foilotun»ning solim (-V- -), ikkinchi rukni maxbun (VV- - // failotun), uchinchi rukni esa maxbuni mahzuf (VV- // failun) ko'rinishiga teng bo'ladi:

foilotun	failotun	failun
- V - - //	V V - - //	V V -

Masalan:

Xo:-lu xat-ting u-za, ey tur-fa sa-nam,  
Ay-la-ding nuq-ta xa-t^us-ti:-da ra-qam.

- V - - // V V - - // V V -

<i>foilotun</i>	<i>failotun</i>	<i>failun</i>
<i>solim</i>	<i>maxbun</i>	<i>maxbuni mahzuf</i>

#### Navoiy

4. **Ramali musaddasi maxbuni mahzuf.** Mazkur vaznning ramali musaddasi solimi maxbuni mahzuf vaznidan farqi shundaki, undagi birinchi rukn ham «foilotun»ning «maxbun» (failotun // VV - -) far'iy ko'rinishida bo'ladi:

failotun	failotun	failun
V V - - //	V V - - //	V V -

Masalan:

Ey me-ning jo:-ni-m^o-lib yax-shi-li-g'ing,  
Be-ri-bon jon ya-na yax-shi: qi-li-g'ing.

V V - - // V V - - // V V -

<i>failotun</i>	<i>failotun</i>	<i>failun</i>
<i>maxbun</i>	<i>maxbun</i>	<i>maxbuni mahzuf</i>

#### Navoiy

5. **Ramali musaddasi solimi maxbuni maqsur.** Mazkur vaznning birinchi rukni «foilotun»ning solim (-V- -), ikkinchi rukni maxbun (VV- - // failotun), uchinchi rukni esa maxbuni maqsur (VV~ // failon) ko'rinishiga teng bo'ladi:

foilotun	failotun	failon
- V - - //	V V - - //	V V ~

Masalan:

Ey Na-vo:-iy, ti-la-sang so:-g'a-ri fayz,

- V - - // V V - - // V V ~

<i>foilotun</i>	<i>failotun</i>	<i>failon</i>
<i>solim</i>	<i>maxbun</i>	<i>maxbuni maqsur</i>

Bo'l-ma bu: day-r.-da as-lo: gus-tox.

#### Navoiy

6. **Ramali musaddasi maxbuni maqsur.** Mazkur vaznning *ramali musaddasi solimi maxbuni maqsur* vaznidan farqi shundaki, undagi birinchi rukn ham «foilotun»ning «maxbun» (failotun // VV – –) far’iy ko’rinishida bo’ladi:

failotun	failotun	failon
V V – – //	V V – – //	V V ~

Masalan:

La–bi–ng<sup>^</sup>an–fo:–si–di–n<sup>^</sup>er–di:–ki, Ma–sih

V V – – // V V – – // V V ~

*foilotun*                      *failotun*                      *failon*

*solim*                              *maxbun*                              *maxbuni maqsur*

O’–lu–g<sup>^</sup>ih–yo:–si–da iz–hor et–ti:.

### Navoiy

7. **Ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu’.** Bu vaznning birinchi rukni «foilotun»ning solim (– V– –), ikkinchi rukni maxbun (failotun // V V– –), oxirgi rukni esa maqtu’ (fa’lun // – –) dan iborat bo’ladi:

foilotun	failotun	fa’lun
– V – – //	V V – – //	– –

Masalan:

Bo–ru–r<sup>^</sup>ul mas–t. ya–na: noz ay–lab,

Xal–q<sup>^</sup>i–la: ar–ba–da o:–g’oz ay–lab.

– V – – // V V – – // – –

*foilotun*                      *failotun*                      *fa’lun*

*solim*                              *maxbun*                              *maqtu’*

### Navoiy

8. **Ramali musaddasi maxbuni maqtu’.** Mazkur vaznning *ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu’* vaznidan farqi shundaki, undagi birinchi rukn ham ikkinchi rukn singari «foilotun»ning «maxbun» ko’rinishi–«failotun» (VV – –) bo’ladi. Uchinchi rukn esa «foilotun»ning maqtu’ ko’rinishi–«fa’lun» (– –)dir:

failotun	failotun	fa’lun
V V – – //	V V – – //	– –

Masalan:

La–bi–ng<sup>^</sup>an–fo:–si–di–n<sup>^</sup>er–di:–ki, Ma–sih

O’–lu–g<sup>^</sup>ih–yo:–si–da iz–hor et–ti:.

V V – – // V V – – // – –

*failotun*                      *failotun*                      *fa’lun*

*maxbun*                              *maxbun*                              *maqtu’*

### Navoiy

9. **Ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu’i musabbag’.** Bu vaznning birinchi rukni «foilotun», ikkinchi rukni «failotun», oxirgi rukni esa «foilotun»ning maqtu’i musabbag’ ko’rinishi «fa’lon» (– ~) dan iborat bo’ladi:

foilotun            failotun            fa'lon  
 – V – – //        V V – – //        – ~

Masalan:

Bo'l–ma–sa: tel–ba, pa–riy–ni: men–dek

Kim qi–lur bo'y–la ta–mo:–sho:– gus–tox.

– V – – // V V – – // – ~

foilotun            failotun            fa'lon  
 solim                maxbun            maqtu'i musabbag'

### Navoiy

10. **Ramali musaddasi maxbuni maqtu'i musabbag'**. Bu vaznning *ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu'i musabbag'* dan farqi shundaki, uning birinchi rukni ham ikkinchi rukni singari «foilotun»ning maxbun ko'rinishi–«failotun» (VV–) bo'ladi. Uchinchi rukn esa «foilotun»ning maqtu'i musabbag' ko'rinishi «fa'lon»dir:

failotun            failotun            fa'lon  
 V V – – //        V V – – //        V ~

Masalan:

Xo:–li–ng^ul hin–du e–rur–kim, bo'l–mish

La–bi–ng^us–ti:–da sha–kar–ho: gus–tox.

V V – – // V V – – // – ~

failotun            failotun            fa'lon  
 solim                maxbun            maqtu'i musabbag'

### Navoiy

**Eslatma:** avval ta'kidlanganidek, «foilotun»ning ikki to'rt bo'g'inli ruknlari: «foilotun» va failotun» hamda ikki va uch bo'g'inli to'rt rukni: «failun», «failon», «fa'lun», «fa'lon» ruknlari bir she'r doirasida bir-birining o'rnida kelaverishi mumkin. Buning natijasida bir asarda **ramali musaddasi maxbuni mahzuf yoki ramali musaddasi maxbuni maqtu'** vazni asosiy vazn bo'lib qolavergani holda, ramal bahrining ikki-uchtadan to sakkiztagacha turli vaznlari yuzaga keladi. Masalan, Muhammad Solihning ramal bahrida yozilgan “Shayboniynoma” dostonida shu hol ko'zga tashlanadi:

1. Chun ti–lo:–vat bi–la mash–g'u:–l. bo'–lur,

– V – – // V V – – // V V –

foilotun            failotun            failun  
 ramali musaddasi solimi maxbuni mahzuf

2. A–nga ar–vo:–hi mu–qad–das o'–qi–lur.

V V – – // V V – – // V V –

failotun            failotun            failun  
 ramali musaddasi maxbuni mahzuf

3. Qay–da–kim bo'l–di–ki, bu: shu'–la ba–land,

Yo'q–tu–rur he:–ch. ni–ma: ol–li–da band.

– V – – // V V – – // V V ~  
*foilotun failotun failon*  
*ramali musaddasi solimi maxbuni maqsur*

4. Qa–la–mi: do:–g’i e–rur mush–k.–fi–shon,  
 Xa–ti–dek ber–ma–di–lar he:–ch. ni–shon.

V V – – // V V – – // V V ~  
*foilotun failotun failon*  
*ramali musaddasi maxbuni maqsur*

5. Nur Sa–id o’g’–li Mu–ham–mad So–lih.

– V – – // V V – – // – –  
*foilotun failotun fa’lun*  
*ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu’*

5. La–qa–bi: So:–li–hu o’:–zi: to:–lih.

V V – – // V V – – // – –  
*foilotun failotun fa’lun*  
*ramali musaddasi maxbuni maqtu’*

7. Dar–d. bir–la: ke–cha–lar yig’–lar zor,

– V – – // V V – – // – ~  
*foilotun failotun fa’lon*  
*ramali musaddasi solimi maxbuni maqtu’i musabbag’*

8. Ke–cha–lar yig’–la–mo–g’i:–da: ish bor.

V V – – // V V – – // – ~  
*foilotun failotun fa’lon*  
*ramali musaddasi maxbuni maqtu’i musabbag’*

## 12-мавзу. «Foilotun» (–V–) rukni va uning zihoflari. Ramal bahri vaznlari

**Режа:**

**1. Ramal bahrining musamman vaznlari.**

**2. Ramali musammани махзуф.**

**3. Ramali musammани махбуни махзуф ва бошқа вазнлар.**

### *Musamman vaznlar*

Turkiy xalqlar, jumladan, o’zbek adabiyotida ramal bahri, ayniqsa, uning sakkiz ruknli vaznlari keng qo’llangan. Mumtoz g’azallar bilan birga, boshqa janrlardagi she’rlarning ham aksariyat qismi ramal bahri vaznlarida yaratilgan. O’zbek adabiyotida ramal bahrining quyidagi sakkiz ruknli vaznlari uchraydi:

1. **Ramali musammани maxbun.** O’zbek adabiyotida kamroq uchraydigan mazkur vaznning birinchi rukni «foilotun»ning solim (– V – –), ikkinchi, uchinchi va to’rtinchi ruknlari esa maxbun (V V – – // failotun) ko’rinishiga tengdir:

foilotun failotun failotun failotun

-V-- // VV-- // VV-- // VV--

Masalan:

Sub-hi dav-lat yu-zu-ng, ^ey tav-sa-ni gar-dun sa-nga ash-hab,

Bo:-shi-ng ^us-ti:-da-gi dur o'y-la-ki, tong bo:-shi-da kav-kab.

- V - - // V V - - // V V - - // V V - -

*foilotun*

*failotun*

*failotun*

*failotun*

solim

maxbun

maxbun

maxbun

### Navoiy

2. **Ramali musammani mashkul.** Mazkur vaznning 1 va 3-ruknlari «foilotun»ning mashkul (failotu // VV-V), 2 va 4-ruknlari esa solim (foilotun // -V-) ko'rinishiga teng bo'ladi:

failotu            foilotun            failotu            foilotun  
VV-V //        -V-- //        VV-V //        -V--

Masalan:

Ke-cha-lar e-mas fa-lak-ni: yo-ru-g' ^ay-la-gan si-to:-ra.,

Chi-qa-r ^o:-hi-m ^o:-ta-shi:-din bo'-li-nib ne-cha: sha-ro:-ra:.

V V - V // - V - - // V V - V // - V - -

*failotu*

*foilotun*

*failotu*

*foilotun*

*mashkul*

*solim*

*mashkul*

*solim*

### Furqat

3. **Ramali musammani mahzuf.** Mazkur vaznning 1,2,3-ruknlari «foilotun»ning solim (foilotun // -V- -), 4-rukni esa mahzuf (foilon // -V-) ko'rinishiga teng bo'ladi:

foilotun            foilotun            foilotun            foilon  
-V-- //        -V-- //        -V-- //        -V-

Masalan:

Kun Ha-mal-g'a: kir-di er-sa:, kel-di o:-lam nav-ro'-zi:,

Kech-ti Bah-man, zam-ha-rir qish, qol-ma-di: qo:-ri:, bu-zi:.

- V - - // - V - - // - V - - // - V - -

*foilotun*

*foilotun*

*foilotun*

*foilon*

*solim*

*solim*

*solim*

*mahzuf*

### Rabg'uziy

Yoki:

Qat-ra-yam no:-chi:-z., am-mo: zo:-ti qul-zum Tur-di-man,

Kel-tu-ran am-vo:-j.-g'a: bah-ri: ta-lo:-tum Tur-di-man.

- V - - // - V - - // - V - - // - V - -

*foilotun*

*foilotun*

*foilotun*

*foilon*

*solim*

*solim*

*solim*

*mahzuf*

### Turdi



*Ramali musammani mahzuf* o'zbek mumtoz adabiyotida eng ko'p qo'llangan vazndir. O'tmish shoirlarining devonlaridagi aksariyat she'rlar *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilgan. Masalan, Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" devonidagi 3132 she'rdan 1156 tasi, jumladan 2600 g'azaldan 1089 tasi, ya'ni 42 foizi, Boburning 113 g'azalidan 42 tasi, Muqimiyning 226 lirik she'ridan 117 tasi shu vaznda yozilgan.<sup>11</sup> Boshqa shoirlar ijodida ham bu vaznda yaratilgan she'rlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Buning sababi mazkur vaznning o'ynoqiligi, jozibadorligi, inson ichki kechinmalarini ifodalash uchun qulayligidir.

4. ***Ramali musammani maqsur***. Mazkur vaznning 1,2 va 3-ruklari ramali musammani mahzuf bilan bir xil: foilotun // foilotun // foilotun. 4-rukni esa «foilotun»ning maqsur ko'rinishi «foilon» (– V ~):

foilotun	foilotun	foilotun	foilon
– V – – //	– V – – //	– V – – //	– V ~

Masalan:

Ul na gum–baz–dur, e–shi:–gi:, tuy–nu–gi:–din yo'q ni–shon,  
Ne:–cha gul–gun–po':–sh. qiz–lar man–zi–l^ay–lab–dur ma–kon.

– V – – //	– V – – //	– V – – //	– V ~
<i>foilotun</i>	<i>foilotun</i>	<i>foilotun</i>	<i>foilon</i>
<i>solim</i>	<i>solim</i>	<i>solim</i>	<i>maqsur</i>

**Uvaysiy**

Yoki:

Bir sa–ri: az–m^ay–la, jo:–yi: no:–mu–sul–mon–dur bu mulk,  
Fit–na–yi: av–bo:–sh., zul–mu: kuf–ru tug'–yon–dur bu mulk.

– V – – //	– V – – //	– V – – //	– V ~
<i>foilotun</i>	<i>foilotun</i>	<i>foilotun</i>	<i>foilon</i>
<i>solim</i>	<i>solim</i>	<i>solim</i>	<i>maqsur</i>

**Turdi**

***Eslatma:*** *ramali musammani mahzuf* va *ramali musammani maqsur* vaznlari bir-biriga yaqin vaznlar bo'lgani uchun bir she'r doirasida almashinib qo'llanishi mumkin.

5. ***Ramali musammani solimi maxbuni mahzuf***. Mazkur vaznning 1-rukni «foilotun»ning solim (foilotun // –V– –), 2,3-ruklari maxbun (failotun // –V—), 4-rukni esa maxbuni mahzuf (failun // VV–) ko'rinishiga teng bo'ladi:

foilotun	failotun	failotun	failun
– V – – //	V V – – //	V V – – //	V V –

Masalan:

Dav–r. el so:–g'a–ri–ni: qil–di ma–yi: no:–b. to'–la:;  
Juz me–ning es–ki sa–fo:–lim–ni–ki, xu:–no:–b. to'–la:.

<sup>11</sup> A.Hojiyahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. - Toshkent: «SHarq» nashriyot-matbaa kontserni Bosh tahririyati, 1999, 165-bet.

– V – – // V V – – // V V – – // V V –  
*foilotun failotun failotun failun*  
*solim maxbun maxbun maxbuni mahzuf*

### Navoiy

6. **Ramali musammani maxbuni mahzuf.** Mazkur vaznning *ramali musammani solimi maxbuni mahzuf*dan farqi shundaki, undagi birinchi rukn ham ikkinchi va uchinchi ruknlar singari «foilotun»ning «maxbun» koʻrinishi–«failotun» (VV – –) boʻladi:

failotun failotun failotun failun  
 V V – – // V V – – // V V – – // V V –

Masalan:

Ke–cha goʻ:–yo: e–shi–tib shuh–ra–ti til–lo: pu–li–ni,  
 Ha–pa–lak qoʻr–qu–si–din uch–ti mi–so:–li: ka–pa–lak.

V V – – // V V – – // V V – – // V V –  
*failotun failotun failotun failun*  
*maxbun maxbun maxbun maxbuni mahzuf*

### Maxmur

7. **Ramali musammani solimi maxbuni maqsur.** Mazkur vaznning 1-rukni «foilotun»ning solim (foilotun // –V– –), 2,3-ruknari maxbun (failotun // VV– –), 4-rukni esa maxbuni maqsur (failon // VV~) koʻrinishiga teng boʻladi:

foilotun failotun failotun failon  
 – V – – // V V – – // V V – – // V V ~

Masalan:

Vah–ki haj–rin–da ja–hon boʻl–di koʻ–zum–ga: zu–lu–mot,  
 Kim bo–rur yay–qa–li–bu: qay–t.–ma–s<sup>^</sup>ul o:–bi ha–yot.

– V – – // V V – – // V V – – // V V ~  
*foilotun failotun failotun failon*  
*solim maxbun maxbun maxbuni maqsur*

### Navoiy

8. **Ramali musammani maxbuni maqsur.** Mazkur vaznning *ramali musammani solimi maxbuni maqsur*dan farqi shundaki, undagi birinchi rukn ham ikkinchi va uchinchi ruknlar singari «foilotun»ning «maxbun» koʻrinishi–«failotun» (VV – –) boʻladi:

failotun failotun failotun failon  
 V V – – // V V – – // V V – – // V V ~

Masalan:

Bu cha–man ich–ra xa–zon sar–sa–ri–din sar–v. ki–bi:,  
 Gʻa–mi yoʻq tuz–lu–k<sup>^</sup>i–la: kim–ki shi–or et–ti sa–bot.

V V – – // V V – – // V V – – // V V ~  
*failotun failotun failotun failon*

*maxbun*                      *maxbun*                      *maxbun*                      *maxbuni maqsur*

**Navoiy**

9. **Ramali musammani solimi maxbuni maqtu'**. Mazkur vaznning 1-rukni «foilotun»ning solim (foilotun // -V- -), 2,3-ruklari maxbun (failotun // - V- -), 4-rukni esa maqtu' (fa'lun // - -) ko'rinishiga teng bo'ladi:

foilotun              failotun              failotun              fa'lun  
- V- - //      V V- - //      V V- - //      - -

Masalan:

Ne:-cha bo'l-g'ay ma-nga haj-r^ich-ra ta-zal-lum, yo: Rab,

Ay-la bu: zul-m^a-ro ho:-lim-g'a ta-rah-hum, yo: Rab?

- V - - //      V V - - //      V V - - //      - -

*foilotun*              *failotun*              *failotun*              *fa'lun*  
*solim*                      *maxbun*                      *maxbun*                      *maqtu'*

**Navoiy**

10. **Ramali musammani maxbuni maqtu'**. Mazkur vaznning *ramali musammani solimi maxbuni maqtu'*dan farqi shundaki, undagi birinchi rukn ham, ikkinchi va uchinchi ruknlar singari, «foilotun»ning «maxbun» ko'rinishi-«failotun» (VV - -) bo'ladi:

failotun              failotun              failotun              fa'lun  
V V- - //      V V- - //      V V- - //      - -

Masalan:

Gah-ga-he: xas-ta Na-vo:-iy ta-ni-g'a: jon yet-kur,

Bi-ti-ging-din-ki, sa-vo:-di:-ni ko'-rub jon top-tim.

V V - - //      V V - - //      V V - - //      - -

*failotun*              *failotun*              *failotun*              *fa'lun*  
*maxbun*                      *maxbun*                      *maxbun*                      *maqtu'*

**Navoiy**

11. **Ramali musammani solimi maxbuni maqtu'i musabbag'**. Mazkur vaznning 1-rukni «foilotun»ning solim (foilotun // -V- -), 2,3-ruklari maxbun (failotun // - V- -), 4-rukni esa maqtu'i musabbag' (fa'lon // - ~) ko'rinishiga teng bo'ladi:

foilotun              failotun              failotun              fa'lon  
- V- - //      V V- - //      V V- - //      - ~

Masalan:

Yo'q ha-ri:-fe:-ki, fa-no: dash-ti-da qo'l-lar tu-tu-shib,

Bo'l-sa yo'l qat-'i-da ham-po:-y. ma-nga:-vu: ham-dast.

- V - - //      V V - - //      V V - - //      - ~

*foilotun*              *failotun*              *failotun*              *fa'lon*  
*solim*                      *maxbun*                      *maxbun*                      *maqtu'i musabbag'*

**Navoiy**

12. *Ramali musammani maxbuni maqtu'i musabbag'*. Mazkur vaznning *ramali musammani solimi maxbuni maqtu'i musabbag'* vaznidan farqi shundaki, undagi birinchi rukn ham, ikkinchi va uchinchi ruknlar singari, «foilotun»ning «maxbun» ko'rinishi—«failotun» (VV --) bo'ladi:

failotun	failotun	failotun	fa'lon
V V-- //	V V-- //	V V-- //	-- ~

Masalan:

Bu ma-hol am-r.-du-rur, chun-ki ta-xay-yul bir-la:,

Qi-la ol-mon i-ki la'-li:-ni ta-mo:-sho: gus-tox.

V V -- // V V -- // V V -- // -- ~

<i>failotun</i>	<i>failotun</i>	<i>failotun</i>	<i>fa'lon</i>
<i>maxbun</i>	<i>maxbun</i>	<i>maxbun</i>	<i>maqtu'i musabbag'</i>

### Navoiy

**Eslatma:** ramal bahrining sakkiz vazni: *ramali musammani solimi maxbuni mahzuf*, *ramali musammani maxbuni mahzuf*, *ramali musammani solimi maxbuni maqsur*, *ramali musammani maxbuni maqsur*, *ramali musammani solimi maxbuni maqtu'*, *ramali musammani maxbuni maqtu'*, *ramali musammani solimi maxbuni maqtu'i musabbag'*, *ramali musammani maxbuni maqtu'i musabbag'* vaznlari bir-biriga o'xshash bo'lganligidan bir she'r doirasida almashinib qo'llanishi mumkin. Shuning uchun bir she'rda, bu vaznlardan bir yoki ikkitasi asosiy vazn bo'lgani holda, yana bir, ikki, uch qo'shimcha vaznlarni uchratish mumkin. Asosiy vaznlar matla'ga xos bo'lsa, yordamchi vaznlar ko'pincha toq misralarga to'g'ri keladi. Masalan, Navoiyning quyidagi g'azalining asosiy vaznlari *ramali musammani solimi maxbuni maqsur* hamda *ramali musammani solimi maxbuni maqtu'i musabbag'*:

Zo:-r.-men zul-fu yu-zi: fur-qa-ti-din sho:-mu sa-boh,

So:-qi-yo:, bo:-da ke-tur, qay-da me-nu:, qay-da sa-loh?

-- V -- // V V -- // V V -- // V V ~

<i>foilotun</i>	<i>failotun</i>	<i>failotun</i>	<i>failon</i>
<i>solim</i>	<i>maxbun</i>	<i>maxbun</i>	<i>maxbuni maqsur</i>

Lekin 3-baytning 1-misrasi *ramali musammani solimi maxbuni mahzuf* vaznida:

Men me-nu: ku:-yi xa-ro:-bo:-tu ma-y^ich-mak tu-nu kun,

-- V -- // V V -- // V V -- // V V --

<i>foilotun</i>	<i>failotun</i>	<i>failotun</i>	<i>failun</i>
<i>solim</i>	<i>maxbun</i>	<i>maxbun</i>	<i>maxbuni mahzuf</i>

Qo'p-qi-1, ^ey shay-xu sa-lo:-him-g'a ko'-p^et-ma: il-hoh.

-- V -- // V V -- // V V -- // -- ~

<i>foilotun</i>	<i>failotun</i>	<i>failotun</i>	<i>fa'lon</i>
<i>solim</i>	<i>axbun</i>	<i>maxbun</i>	<i>maqtu'i musabbag'</i>

4-baytning 1-misrasi *ramali musammani solimi maxbuni maqtu'* vaznida:

Xo-na-qah-din chu sa-har may-ka-da-g'a: yuz-lan-dim,  
 - V - - // V V - - // V V - - // - -  
*foilotun failotun failotun fa'lun*  
*solim maxbun maxbun maqtu'*

Har ta-raf-din yu-zu-ma: och-ti e-shik-lar Fat-toh.  
 - V - - // V V - - // V V - - // - ~

*foilotun failotun failotun fa'lon*  
*solim maxbun maxbun maqtu'i musabbag'*

6-baytning 1-misrasi esa *ramali musammani maxbuni mahzuf* vaznida yozilgan:

Qa-cho-n^ul ru:-hi mu-sav-var-ki, sa-mo': ich-ra ki-rar,  
 V V - - // V V - - // V V - - // V V -

*foilotun failotun failotun failun*  
*maxbun maxbun maxbun maxbuni mahzuf*

Ev-ri-lur bo:-shi-g'a qud-s^am-ki-na-si:-din ar-voh.  
 - V - - // V V - - // V V - - // - ~

*foilotun failotun failotun fa'lon*  
*solim maxbun maxbun maqtu'i musabbag'*

### 13-мавзу: *Muzore' bahri vaznlari*

1. *Muzore' bahrining xosil b'lishi.*

2. *Muzore'i musammani axrab.*

3. *Muzore'i musammani axrabi makfuifi mahzuf va boshqalar.*

*Muzore' bahri*, yuqorida ta'kidlanganidek, «mafoiylun» va «foilotun» ruknlarining galma-gal takrorlanib kelishiga asoslangan bahrdir. *Muzore'i musammani solim* vazni quyidagicha bo'ladi:

mafoiylun foilotun mafoiylun foilotun  
 V--- // -V-- // V--- // -V--

O'zbek adabiyotida bu bahrning quyidagi musamman shakllari qo'llanib kelgan:

1. *Muzore'i musammani axrab.* Mazkur vaznning 1 va 3-ruklari «mafoiylun»ning axrab (maf'uvlu // -- V), 2 va 4-ruklari esa «foilotun»ning solim (foilotun // - V--) ko'rinishiga teng bo'ladi:

maf'uvlu foilotun maf'uvlu foilotun  
 -- V // -V-- // -- V // -V--

Masalan:

Kul-bam-g'a bas-ki gar-dun g'am to:-shi yog'-du-rub-dur,

Sab-rim u-yi:-de-k^ul ham yem-rul-g'a-li: tu-rub-dur.

- - V// - V - - // - - V// - V - -

*maf'uvlu foilotun maf'uvlu foilotun*  
*axrab solim axrab solim*

## Navoiy

Yoki:

Xat-ting a-ro: u-zo:-ring sab-za: i-chi:-da lo:-la:,

Ul chash-mi pur xu-mo:-ring lo:-la:-da-g'i: g'a-zo:-la:.

-	-	V//	-	V	-	-	//	-	-	V//	-	V	-	-
<i>maf'uvlu</i>			<i>foilotun</i>		<i>maf'uvlu</i>			<i>foilotun</i>						
<i>axrab</i>			<i>solim</i>		<i>axrab</i>			<i>solim</i>						

## Bobur

2. *Muzore'i musammani axrabi musabbag'*. Mazkur vaznning *muzore'i musammani axrab* vaznidan farqi shundaki, undagi 4-rukn «foilotun»ning solim emas, musabbag' (foiliyyon // - V- ~) ko'rinishiga teng bo'ladi:

maf'uvlu	foilotun	maf'uvlu	foiliyyon
-- V //	- V-- //	-- V //	- V- ~

Masalan:

Rux-so:-ri jo:-ni-bi:-da: ul xo:-li an-ba-ro:-lud,

O't go':-sha-si:-da go':-yo: an-bar tu-shub qi-lur dud.

-	-	V//	-	V	-	-	//	-	-	V//	-	V	-	~
<i>maf'uvlu</i>			<i>foilotun</i>		<i>maf'uvlu</i>			<i>foiliyyon</i>						
<i>axrab</i>			<i>solim</i>		<i>axrab</i>			<i>musabbag'</i>						

## Navoiy

3. *Muzore'i musammani axrabi makfufi mahzuf*. Mazkur vaznning 1-rukni «mafoiylun»ning axrab (maf'uvlu // -- V), 2-rukni «foilotun»ning makfuf (foilotu // - V - V), 3-rukni «mafoiylun»ning makfuf (mafoiylu // V - - V), 4-rukni esa «foilotun»ning mahzuf (foilon // - V-) ko'rinishiga teng bo'ladi:

Maf'uvlu	foilotu	mafoiylu	foilon
-- V //	- V- V //	V-- V //	- V-

Masalan:

Jo:-nim-di-n^o'z-ga yo:-ri va-fo:-do:-r. top-ma-dim,

Ko'ng-lum-di-n^o'z-ga mah-ra-mi as-ro:-r. top-ma-dim.

-	-	V//	-	V	-	V//V	-	-	V//	-	V	-
<i>maf'uvlu</i>			<i>foilotu</i>		<i>mafoiylu</i>			<i>foilon</i>				
<i>axrab</i>			<i>makfuf</i>		<i>makfuf</i>			<i>mahzuf</i>				

## Bobur

4. *Muzore'i musammani axrabi makfufi maqsur*. Mazkur vaznning *muzore'i musammani axrabi makfufi mahzuf* vaznidan farqi shundaki, undagi 4-rukn «foilotun»ning mahzuf emas, maqsur (foilon // - V ~) ko'rinishiga teng bo'ladi:

maf'uvlu	foilotu	mafoiylu	foilon
-- V //	- V- V //	V-- V //	- V~

Masalan:

To: bo'l-mi-sham bu o:-la-m^a-ro: o:-sh.-no:-yi umr,

Chek–mak du–rur i–shim ke–cha–kun–duz ja–fo:–yi umr.

– – V// – V – V//V – – V// – V ~

*maf'uvlu foilotu mafoiylu foilon*

*axrab makfuf makfuf maqsur*

### Ogahiy

#### 14-мавзу: «Mustaf'ilun» rukni va uning zihoflari. Rajaz bahri vaznlari

##### Режа:

#### 1. «Mustaf'ilun» (– –V–) rukni va uning zihoflari

#### 2. Ражази мураббаи солим.

#### 3. Ражази мусаммани солим ва бошқа вазнлар

#### «Mustaf'ilun» (– –V–) rukni va uning zihoflari

«Mustaf'ilun» rukni hammasi bo'lib 9 xil zihofga uchraydi, natijada undan 14 xil far'iy rukn yuzaga keladi. Ular quyidagilar:

1) *Mustaf'ilun*. «Mustaf'ilun» (– –V–) 4-cho'ziq bo'g'inining o'ta cho'ziq bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: – –V~. Rukndagi bu o'zgarish «*izola*», «*izola*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *muzol* deb ataladi;

2) *mafoilon*. «Mustaf'ilun» (– –V–) birinchi «*mus*» cho'ziq bo'g'inidan «*s*» harfining tushib, «*mu*» qisqa bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: V–V–. Yuzaga kelgan «*mutaf'ilun*» unga vazndosh bo'lgan «*mafoilon*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*xabn*», «*xabn*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *maxbun* deb ataladi;<sup>12</sup>

3) *mafoilon*. «Mafoilon» (*maxbun* // V–V–) 4-cho'ziq bo'g'inining o'ta cho'ziq bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: V–V~. Rukndagi bu o'zgarish «*izola*», «*izola*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *muzol* deb ataladi. Ammo u solim rukn «*mafoiylun*»dan emas, balki *maxbun* rukn «*mafoilon*»dan hosil bo'lganligi uchun muzolli *maxbun* ma'nosida «*maxbuni muzol*» deb nomlanadi;

4) *muftailun*. «Mustaf'ilun» (– –V–) ikkinchi «*taf*» cho'ziq bo'g'inining «*ta*» qisqa bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: –VV–. Yuzaga kelgan «*musta'ilun*» unga vazndosh bo'lgan «*muftailun*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*tayy*», «*tayy*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *matviy* deb ataladi;

5) *muftailun*. «Muftailun» (*matviy* // –VV–) 4-cho'ziq bo'g'inining o'ta cho'ziq bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: –VV~. Rukndagi bu o'zgarish «*izola*», «*izola*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *muzol* deb ataladi. Ammo u solim rukn «*mustaf'ilun*»dan emas, balki *matviy* rukn «*muftailun*»dan hosil bo'lganligi uchun muzolli *matviy* ma'nosida «*matviyi muzol*» deb nomlanadi;

<sup>12</sup> Mazkur far'iy rukni «*mafoiylun*»dan hosil bo'lgan far'iy rukn «*mafoilon*» bilan chalkashtirmaslik lozim. Garchi nomlanishi bir xil bo'lsa ham, ular ikki xil asliy ruknga tegishli, shuningdek, ular ikki xil zihof natijasida yuzaga kelgan: «*mafoiylun*»da «*qabz*» (shuning uchun u *maqbus*), «*mustaf'ilun*»da esa «*xabn*» (shuning uchun u *maxbun*). Bu fikr keyingi *maf'uvlun*, *fauvlun*, *fa'lun*, *foilon*, *mafoilotun* far'iy ruknlariga ham tegishli.

6) *failatun*. «Mustaf'ilun» (– –V–) 1-«*mus*» cho'ziq bo'g'inidan «*s*» tushib, uning «*mu*» qisqa bo'g'inga hamda 2-«*taf*» cho'ziq bo'g'indan «*f*» tushib, uning «*ta*» qisqa bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: VVV–. Qolgan «*mutailun*» unga vazndosh bo'lgan «*failatun*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*xabl*», «*xabl*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *maxbul* deyiladi;

7) *failaton*. «Failatun» (maxbul // VVV–) 4-cho'ziq bo'g'inining o'ta cho'ziq bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: VVV~. Rukndagi bu o'zgarish «*izola*», «*izola*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *muzol* deb ataladi. Ammo u solim rukn «mustaf'ilun»dan emas, balki maxbul rukn «failatun»dan hosil bo'lganligi uchun muzolli maxbul ma'nosida «*maxbuli muzol*» deb nomlanadi;

8) *maf'uvlun*. «Mustaf'ilun» (– –V–) oxirgi «*lun*» cho'ziq bo'g'inidan «*un*» qismining tushishi natijasida hosil bo'ladi:– – –. Qolgan «mustaf'il» unga vazndosh bo'lgan «*maf'uvlun*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*qat'*», «*qat'*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *maqtu'* deyiladi;

9) *fauvlun*. «Mustaf'ilun» (– –V–) 1-«*mus*» cho'ziq bo'g'inidan «*s*» tushib, «*mu*» qisqa bo'g'inga aylanishi hamda oxirgi «*lun*» cho'ziq bo'g'indan «*un*» qismining tushishi natijasida hosil bo'ladi: V– –. Qolgan «*mutaf'il*» unga vazndosh bo'lgan «*fauvlun*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*taxli'*», «*taxli'*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *muxalla'* deyiladi;

10) *fa'lun*. «Mustaf'ilun» (– –V–) 3,4-bo'g'inlarining tushishi natijasida hosil bo'ladi: – –. Qolgan «*mustaf*» unga vazndosh bo'lgan «*fa'lun*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*hazaz*», «*hazaz*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *mahzuz* deyiladi;

11) *foilun*. «Mustaf'ilun» (– –V–) 1-bo'g'inining tushishi natijasida hosil bo'ladi: –V–. Qolgan «*taf'ilun*» unga vazndosh bo'lgan «*foilun*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*raf'*», «*raf'*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *marfu'* deyiladi;

12) *mustaf'ilotun*. «Mustaf'ilun» (– –V–) 3-qisqa bo'g'inidan so'ng unga bir cho'ziq bo'g'in qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi:– –V– –. Rukndagi bu o'zgarish «*tarfil*», «*tarfil*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *muraffal* deyiladi;

13) *mafoilotun*. «Mafoilun» (maxbun // V–V–) ning 3-qisqa bo'g'inidan so'ng unga bir cho'ziq bo'g'in qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi: V–V—. Rukndagi bu o'zgarish «*tarfil*», «*tarfil*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *muraffal* deyiladi. Ammo u solim rukn «mustaf'ilun»dan emas, balki maxbun rukn «mafoilun»dan hosil bo'lganligi uchun maxbunning muraffali ma'nosida «*maxbuni muraffal*» deb nomlanadi;

14) *muftailotun*. «Muftailun» (matviy //–VV–) ning 3-qisqa bo'g'inidan so'ng unga bir cho'ziq bo'g'in qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi: –VV—. Rukndagi bu o'zgarish «*tarfil*», «*tarfil*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *muraffal* deyiladi. Ammo u solim rukn «mustaf'ilun»dan emas, balki matviy rukn



«muftailun»dan hosil bo'lganligi uchun matviyning muraffali ma'nosida «*matviyi muraffal*» deb nomlanadi.

«Mustaf'ilun» rukni, uning zihoflari hamda ulardan hosil bo'ladigan far'iy ruknlarni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin:

<i>T/r</i>	<i>rukn nomi</i>	<i>zihof nomi</i>	<i>far'iy rukn nomi</i>	<i>chizmasi</i>
1	mustaf'ilun	–	solim	– –V–
2	mustaf'ilon	izola	muzol	– –V ~
3	mafoilun	xabn	maxbun	V–V–
4	mafoilon	izola	maxbuni muzol	V–V ~
5	muftailun	tayy	matviy	– VV–
6	muftailon	izola	matviyi muzol	– V V ~
7	failatun	xabl	maxbul	V V V–
8	failaton	izola	maxbuli muzol	V V V ~
9	maf'uvlun	qat'	maqtu'	– – –
10	fauvlun	taxli'	muxalla'	V – –
11	fa'lun	hazaz	mahzuz	– –
12	foilun	raf'	marfu'	– V–
13	mustaf'ilotun	tarfil	muraffal	– –V– –
14	mafoilotun	tarfil	maxbuni muraffal	V–V– –
15	muftailotun	tarfil	matviyi muraffal	– V V– –

Shunday qilib, «mustaf'ilun»ning 9 xil zihofga uchrashi natijasida uning 14 xil far'iy ko'rinishi yuzaga keladi. Ammo o'zbek adabiyotida «mustaf'ilun» va uning quyidagi far'iy ruknlari qo'llanadi, xolos:

<i>T/r</i>	<i>rukn nomi</i>	<i>rukn nomi</i>	<i>chizmasi</i>	<i>misradagi o'rni</i>
1	mustaf'ilun	solim	– –V–	1,2,3,4-ruklarda
2	mustaf'ilon	muzol	– –V ~	oxirgi ruknda
3	mafoilun	maxbun	V–V–	2,4-ruklarda
4	mafoilon	maxbuni muzol	V–V ~	oxirgi ruknda
5	muftailun	matviy	– VV–	1,2,3-ruklarnda

«Mustaf'ilun» va uning far'iy ko'rinishlari «mustaf'ilun»ning takroridan tuziladigan rajaz bahri hamda «mustaf'ilun» ishtirok etadigan xafif va mujtass, munsarih va sari' bahrlarida qo'llaniladi.

### *Rajaz bahri vaznlari*

Rajaz bahri, bizga ma'lumki, «mustaf'ilun» ruknining takroridan yuzaga keladi. O'zbek mumtoz adabiyotida rajaz bahrining quyidagi murabba' va musamman vaznlari uchraydi:

1. **Rajazi murabbai solim.** Mazkur vazn «mustaf'ilun» solim (– – V–) ko'rinishining har misrada ikki marta – bir baytda to'rt marta takrorlanishidan hosil bo'ladi:

mustaf'ilun	mustaf'ilun
mustaf'ilun	mustaf'ilun
--V- //	--V-

Masalan:

Qol–may sha–har–da: to:–qa–tim,  
 Qish–loq chi–qar–dim o:–da–tim,  
 Xo:–hi: ya–yov, bo'l–sun o–tim,  
 Goh say–r. ham dar–kor e–kan.

– – V – // – – V –

<i>mustaf'ilun</i>	<i>mustaf'ilun</i>
<i>solim</i>	<i>solim</i>

### Muqimiy. Sayohatnoma

2. **Rajazi murabbai muzol.** Mazkur vaznning *rajazi murabbai solim* vaznidan farqi shundaki, undagi ikkinchi ruknlar «mustaf'ilun»ning «muzol» ko'rinishi– «mustaf'ilon» (– –V~) bo'ladi:

mustaf'ilun	mustaf'ilon
mustaf'ilun	mustaf'ilon
--V- //	--V~

Masalan:

Far–yo:–d.–kim, gar–du:–ni dun,  
 Ay–lar yu–rak–bag'–rim–ni xun,  
 Ko'r–dim–ki, bir ah–li: fu–nun,

– – V – // – – V ~

<i>mustaf'ilun</i>	<i>mustaf'ilon</i>
<i>solim</i>	<i>muzol</i>

Char–x^an–ga kaj–raf–tor e–kan.

### Muqimiy. Sayohatnoma

**Eslatma:** *rajazi murabbai solim* va *rajazi murabbai muzol* vaznlari bir-biriga yaqin bo'lganligidan bir asar doirasida almashinib qo'llanaveradi.

3. **Rajazi musammani solim.** Mazkur vazn «mustaf'ilun» solim (– –V–) ko'rinishining har misrada to'rt marta – bir baytda sakkiz marta takrorlanishidan hosil bo'ladi:

mustaf'ilun	mustaf'ilun	mustaf'ilun	mustaf'ilun
mustaf'ilun	mustaf'ilun	mustaf'ilun	mustaf'ilun
--V- //	--V- //	--V- //	--V-

Masalan:

Bir kun me-ni: ul qo:-ti-li: maj-nun-shi-or o'l-tur-g'u-si:,  
 Us-ruk chi-qib, jav-lon u-rib, de:-vo:-na-vor o'l-tur-g'u-si:.  
 - - V - // - - V - // - - V - // - - V -  
*mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun*  
*solim solim solim solim*

### Navoiy

Yoki:

Mush-kin qo-shi:-ning hay-'a-ti: ul chash-mi jal-lod us-ti-na:,  
 Qat-lim u-chun nas kel-ti-rur «nun» el-ti-bon «sod» us-ti-na:.  
 - - V - // - - V - // - - V - // - - V -  
*mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun*  
*solim solim solim solim*

### Ogahiy

4. **Rajazi musammani muzol.** Mazkur vaznning *rajazi musammani solim* vaznidan farqi shundaki, undagi to'rtinchi ruknlar «mustaf'ilun»ning «muzol» ko'rinishi-«mustaf'ilon» (-V~) bo'ladi:

mustaf'ilun	mustaf'ilun	mustaf'ilun	mustaf'ilon
mustaf'ilun	mustaf'ilun	mustaf'ilun	mustaf'ilon
--V- //	--V- //	--V- //	--V~

Masalan:

Lut-f^ay-la-b, ^ey pay-ki: sa-bo:, ho:-lim-ni sul-to:-nim-g'a ayt,  
 Ya':-ni:-ki jo:-nim dar-di-ni: ish-qi:-da jo:-no:-nim-g'a ayt.  
 - - V - // - - V - // - - V - // - - V ~  
*mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilon*  
*solim solim solim muzol*

**Eslatma:** mazkur vazn *rajazi musammani solim* vaznidan faqat oxirgi bo'g'inning o'ta cho'ziqligi bilangina farq qiladi. Shuning uchun har ikki vazn bir she'rda qo'llanaverishi mumkin.

5. **Rajazi musammani matviyi maxbun.** Mazkur vaznning 1 va 3-ruklari «mustaf'ilun»ning matviy (muftailun //VV-), 2 va 4-ruklari esa maxbun (mafoilun //V-V-) ko'rinishiga teng bo'ladi:

muftailun	mafoilun	muftailun	mafoilun
muftailun	mafoilun	muftailun	mafoilun
-VV- //	V-V- //	-VV- //	V-V-

Masalan:

Gar a-la-mim-g'a cho:-ra yo'q, bo'l-ma-sa bo'l-ma-sun ne-tay,  
 Var g'a-mi-ma: shu-mo:-ra yo'q, bo'l-ma-sa bo'l-ma-sun ne-tay.  
 - V V - // V - V - // - V V - // V - V -  
*muftailun mafoilun muftailun mafoilun*

matviy

maxbun

matviy

maxbun

### Navoiy

## 15-мавзу: Xafif bahri va uning vaznlari. Mujtass bahri va uning vaznlari

### Режа:

1. Хафиф бахрининг ҳосил бўлиши.
2. Хафиф бахри вазнлари.
3. Мужтасс бахрининг ҳосил бўлиши.
4. Мужтасс бахри вазнлари.

### *Xafif bahri vaznlari*

Xafif «foilotun» va «mustaf'ilun» ruknlarining birikuvidan hosil bo'ladigan bahrdir. Xafif o'zbek adabiyotida asosan musaddas shakllarda qo'llangan. Bu bahrning quyidagi musaddas vaznlari uchraydi:

1. *Xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf*. Mazkur vaznning birinchi rukni «foilotun»ning solim (–V– –), ikkinchi rukni «mustaf'ilun»ning maxbun (V–V– // mafoilun), uchinchi rukni esa «foilotun»ning maxbuni mahzuf (VV– // failun) ko'rinishiga teng bo'ladi:

foilotun	mafoilun	failun
foilotun	mafoilun	failun
– V – – //	V – V – //	V V –

Masalan:

Tel–ba–lik sen–si–z, ^ey pa–ri:, me–nga ish,

Ko'k–su–ma: tosh u–rar–me–n, ^eg–ni–ma nish.

–	V	–	–	//	V	–	V	–	//	V	V	–
---	---	---	---	----	---	---	---	---	----	---	---	---

<i>foilotun</i>	<i>mafoilun</i>	<i>failun</i>
<i>solim</i>	<i>maxbun</i>	<i>maxbuni mahzuf</i>

### Navoiy

2. *Xafifi musaddasi maxbuni mahzuf*. Mazkur vaznning *xafif musaddasi solimi maxbuni mahzuf* vaznidan farqi shundaki, undagi birinchi rukn «foilotun»ning solim emas, «maxbun» (failotun // VV – –) ko'rinishida bo'ladi:

failotun	mafoilun	failun
failotun	mafoilun	failun
V V – – //	V – V – //	V V –

Masalan:

Ho:–ja–tim qad–di–ngiz xi–ro:–mi–du–rur,

Qo'–pi–bon ho:–ja–tim ra–vo qi–li–ngiz.

V	V	–	–	//	V	–	V	–	//	V	V	–
---	---	---	---	----	---	---	---	---	----	---	---	---

<i>failotun</i>	<i>mafoilun</i>	<i>failun</i>
<i>maxbun</i>	<i>maxbun</i>	<i>maxbuni mahzuf</i>

### Navoiy

3. *Xafifi musaddasi solimi maxbuni maqsur*. Mazkur vaznning birinchi rukni «foilotun»ning solim (-V- -), ikkinchi rukni «mastaf'ilun»ning maxbun (V-V- // mafoilun), uchinchi rukni esa «foilotun»ning maxbuni maqsur (VV~ // failon) ko'rinishiga teng bo'ladi:

foilotun	mafoilun	failon
foilotun	mafoilun	failon
- V - - //	V - V - //	V V ~

Masalan:

Har ne-cha:-kim sa-nga: ja-fo:-da ru-sux,

Men ja-fo:-kash-ga-dur va-fo:-da ru-sux.

- V - - // V - V - // V V ~

<i>foilotun</i>	<i>mafoilun</i>	<i>failon</i>
<i>solim</i>	<i>maxbun</i>	<i>maxbuni maqsur</i>

### Navoiy

4. *Xafifi musaddasi maxbuni maqsur*. Mazkur vaznning *xafifi musaddasi solimi maxbuni maqsur* vaznidan farqi shundaki, undagi birinchi rukn «foilotun»ning solim emas, «maxbun» (failotun // VV - -) ko'rinishida bo'ladi:

failotun	mafoilun	failon
failotun	mafoilun	failon
V V - - //	V - V - //	V V ~

Masalan:

Yu-zi mir-'o:-ti-n^o:-r.-zu: qil-g'an

Ke-ra-k^et-sa: a-yon sa-fo:-da ru-sux.

V V - - // V - V - // V V ~

<i>failotun</i>	<i>mafoilun</i>	<i>failon</i>
<i>maxbun</i>	<i>maxbun</i>	<i>maxbuni maqsur</i>

### Navoiy

5. *Xafifi musaddasi solimi maxbuni maqtu'*. Bu vaznning birinchi rukni «foilotun»ning solim (-V- -), ikkinchi rukni «mastaf'ilun»ning maxbun (mafoilun // V-V-), oxirgi rukni esa «foilotun»ning maqtu' (fa'lun // - -) ko'rinishidan iborat bo'ladi:

foilotun	mafoilun	fa'lun
foilotun	mafoilun	fa'lun
- V - - //	V - V - //	- -

Masalan:

Har ne-cha: jav-r. qil-sa noz ah-li.,

Tor-t.-may nay-la-gay ni-yoz ah-li.:

- V - - // V - V - // - -

<i>foilotun</i>	<i>mafoilun</i>	<i>fa'lun</i>
<i>solim</i>	<i>maxbun</i>	<i>maqtu'</i>

### Navoiy

6. *Xafifi musaddasi maxbuni maqtu'*. Mazkur vaznning *xafifi musaddasi solimi maxbuni maqtu'* vaznidan farqi shundaki, undagi birinchi rukn «foilotun»ning solim emas, «maxbun» ko'rinishi «failotun» (VV --) dir:

failotun	mafoilun	fa'lun
failotun	mafoilun	fa'lun
V V-- //	V- V - //	--

Masalan:

Ga-r^o'-qing jon-g'a qas-d. qil-di, ne bok,

Ki a-ning bu: o'-q^er-di maq-su:-di:.

V V - - // V - V - // - -

<i>failotun</i>	<i>mafoilun</i>	<i>fa'lun</i>
<i>maxbun</i>	<i>maxbun</i>	<i>maqtu'</i>

### Navoiy

7. *Xafifi musaddasi solimi maxbuni maqtu'i musabbag'*. Bu vaznning birinchi rukni «foilotun»ning solim (-V- -), ikkinchi rukni mustaf'ilunning maxbun (mafoilun // V-V-), uchinchi rukni esa «foilotun»ning maqtu'i musabbag' ko'rinishi «fa'lon» (- ~) dan iborat bo'ladi:

foilotun	mafoilun	fa'lon
foilotun	mafoilun	fa'lon
- V-- //	V- V - //	- ~

Masalan:

Faq-r. ah-li:-g'a po:-d.-sho: muh-toj,

O'y-la-kim sho:-h.-g'a: ga-do: muh-toj.

- V - - // V V - - // - ~

<i>foilotun</i>	<i>mafoilun</i>	<i>fa'lon</i>
<i>solim</i>	<i>maxbun</i>	<i>maqtu'i musabbag'</i>

### Navoiy

8. *Xafifi musaddasi maxbuni maqtu'i musabbag'*. Bu vaznning *xafifi musaddasi solimi maxbuni maqtu'i musabbag'* vaznidan farqi shundaki, birinchi rukn «foilotun»ning solim emas, maxbun ko'rinishi-«failotun» (VV --) bo'ladi:

failotun	mafoilun	fa'lon
failotun	mafoilun	fa'lon
V V-- //	V- V - //	- ~

Masalan:

Ish-ti-yo:-qim ko'-p, ^eh-ti-yo:-jim ham,

A-nga mush-to:-q.-men va yo: muh-toj.

V V - - // V - V - // - ~

<i>failotun</i>	<i>mafoilun</i>	<i>fa'lon</i>
<i>maxbun</i>	<i>maxbun</i>	<i>maqtu'i musabbag'</i>

### Navoiy

**Eslatma:** avval ta'kidlanganidek, «foilotun»ning ikki to'rt bo'g'inli rukni: «foilotun» va «failotun» hamda ikki va uch bo'g'inli to'rt rukni: «failun», «failon», «fa'lun», «fa'lon» ruknlari bir she'r doirasida bir-birining o'rnida kelaverishi, buning natijasida esa bir asarda **xafifi musaddasi maxbuni mahzuf yoki ramali musaddasi maxbuni maqtu'** vazni asosiy vazn bo'lib qolavergani holda, xafif bahrining ikki-uchtadan to sakkiztagacha turli vaznlari qo'llanishi mumkin. Masalan, Alisher Navoiyning xafif bahrida yozilgan «Sab'ai sayyor» dostonida shu hol ko'zga tashlanadi. «Sab'ai sayyor» xafif bahrining asosan ikki vaznida yozilgan: a) xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf; b) xafifi musaddasi solimi maxbuni maqtu'. Lekin dostonida birinchi rukndagi «foilotun»ning «failotun», oxirgi rukndagi «failun»ning «failon» va «fa'lun»ning «fa'lon» bilan o'zaro almashinib kelishi natijasida dostonida quyidagi sakkiz vazn yuzaga kelgan:

1. De:-di-kim: «Shah-g'a ne: i-to:-b. du-rur,  
Kim bu so'z-kim, de-dim, sa-vo:-b. du-rur.  
- V - - // V - V - // V V -  
foilotun mafoilun failun  
xafifi musaddasi solimi maxbuni mahzuf
2. De-di ba':-zi: «Bu nav-' . dil-ka-sh^e-mas,  
Zu-a-fo: qat-li tiy-g'^i-la: xa-sh^e-mas.  
V V - - / V - V - // V V -  
failotun mafoilun failun  
xafifi musaddasi maxbuni mahzuf
3. Shah-g'a-kim, bo'l-mi-sh^er-di o:-shi-qu mast,  
Bul-'a-jab ik-ki ish be-rib e-di dast.  
- V - - // V - V - // V V ~  
foilotun mafoilun failon  
xafifi musaddasi solimi maxbuni maqsur
4. Shah chu ul lah-v^i-la: bo'-lub mash-'uf,  
I-shi-din top-ma-s^ er-di he:-ch. vu-quf.  
V V - - // V - V - // V V ~  
failotun mafoilun failon  
xafifi musaddasi maxbuni maqsur
5. Shah-ki is-mo:-'i bu: ma-qo:-l^ et-ti.,  
- V - - // V - V - // - -  
foilotun mafoilun fa'lun  
xafifi musaddasi solimi maxbuni maqtu'
6. G'a-za-bi: o':-ti ish-ti-'o:-l^ et-ti.,  
V V - - // V - V - // - -  
failotun mafoilun fa'lun  
xafifi musaddasi maxbuni maqtu'

7. Shah chu ko'r-guz-di ish-da bu: o:-yin.

— V — — // V — V — // — ~

*foilotun mafoilun fa'lon*

*xafifi musaddasi solimi maxbuni maqtu'i musabbag'*

8. Ta-ma-'^et-ti: ni-go:-ri-din tah-sin.

V V — — // V — V — // — ~

*failotun mafoilun fa'lon*

*xafifi musaddasi maxbuni maqtu'i musabbag'*

### **Mujtass bahri vaznlari**

Mujtass «mustaf'ilun va «foilotun» ruknlarining birikuvidan yuzaga keladigan bahrdir, bu bahrning birinchi va uchinchi ruknlari «mustaf'ilun», ikkinchi va to'rtinchi ruknlari esa «foilotun»dan iborat. Mujtassi musammani solim vazni quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

mustaf'ilun	foilotun	mustaf'ilun	foilotun
mustaf'ilun	foilotun	mustaf'ilun	foilotun
— V — //	— V — //	— V — //	— V — //

O'zbek mumtoz adabiyotida mujtass bahrining asosan sakkiz ruknli vaznlari uchraydi. Ular quyidagilar:

1. **Mujtassi musammani maxbuni mahzuf.** Bu vaznning birinchi va uchinchi ruknlari «mustaf'ilun»ning maxbun (mafoilun // V — V —), ikkinchi rukni «foilotun»ning maxbun (failotun // VV — —), to'rtinchi rukni esa «foilotun»ning maxbuni mahzuf ko'rinishi «failun» (VV —) dan iborat bo'ladi:

mafoilun	failotun	mafoilun	failun
mafoilun	failotun	mafoilun	failun
V — V — //	V V — — //	V — V — //	V V — //

Masalan:

Ko'-ngul-ki, ish-qi-da der-san ba-lo: ne bo'l-g'u-si-dur,

Ne-kim bo'-lur, sa-nga bo'l-g'ay, ma-ngo: ne bo'l-g'u-si-dur.

V — V — // V V — — // — V — // V V —

*mafoilun failotun mafoilun failun*

*maxbun maxbun maxbun maxbuni mahzuf*

### **Navoiy**

2. **Mujtassi musammani mahbuni maqsur.** Mazkur vaznning *mujtassi musammani maxbuni mahzuf* vaznidan farqi shundaki, oxirgi rukn «foilotun»ning maxbuni mahzuf emas, maxbuni maqsur (failon // VV~) tarmogiga teng bo'ladi.

mafoilun	failotun	mafoilun	failon
mafoilun	failotun	mafoilun	failon
V — V — //	V V — — //	V — V — //	V — ~ //

Masalan:



E-mas ki-shi:-ga bu dun-yo:-ga mul-ku mo:-l. ka-mol,  
 Hu-su:-li il-mu hu-nar kel-di be:-za-vo:-l. ka-mol.  
 V - V - // V V - - // V - V - // V V ~  
*mafoilun failotun mafoilun failon*  
*maxbun maxbun maxbun maxbuni maqsur*

### Muhammadniyoz Komil

3. **Mujtassi musammani maxbuni maqtu'**. Bu vaznning birinchi va uchinchi ruknlari «mustaf'ilun»ning maxbun (mafoilun // V - V -), ikkinchi rukni «foilotun»ning maxbun (failotun // VV - -), to'rtinchi rukni esa «foilotun»ning maqtu' ko'rinishi «fa'lun» (- -) dan iborat bo'ladi:

mafoilun	failotun	mafoilun	fa'lun
mafoilun	failotun	mafoilun	fa'lun
V - V - //	V V - - //	V - V - //	- -

Masalan:

Qa-ro: ko'-zum ke-lu mar-dum-li-g'^em-di fan qil-g'il,  
 Ko'-zum qa-ro:-si-da mar-dum ki-bi: va-tan qil-g'il.

V - V - //	V V - - //	V - V - //	- -
<i>mafoilun</i>	<i>failotun</i>	<i>mafoilun</i>	<i>fa'lun</i>
<i>maxbun</i>	<i>maxbun</i>	<i>maxbun</i>	<i>maxbuni mahzuf</i>

### Navoiy

4. **Mujtassi musammani maxbuni maqtu'i musabbag'**. Mazkur vaznning *mujtassi musammani maxbuni maqtu'* vaznidan farqi shundaki, oxirgi rukn «foilotun»ning maqtu' emas, maqtu'i musabbag' (fa'lon // - ~) far'iy ko'rinishi bo'ladi.

mafoilun	failotun	mafoilun	fa'lon
mafoilun	failotun	mafoilun	fa'lon
V - V - //	V V - - //	V - V - //	- ~

Masalan:

Me-ni: ha-vo:-si-da de:-vo:-na ay-la-di: ul sho'x,  
 Ju-nu:-ni ish-q^i-la af-so:-na ay-la-di: ul sho'x.

V - V - //	V V - - //	V - V - //	- ~
<i>mafoilun</i>	<i>failotun</i>	<i>mafoilun</i>	<i>fa'lon</i>
<i>maxbun</i>	<i>maxbun</i>	<i>maxbun</i>	<i>maxbuni musabbag'</i>

### Navoiy

*Eslatma:* mujtass bahrining to'rt vazni: *mujtassi musammani maxbuni mahzuf*, *mujtassi musammani maxbuni maqsur*, *mujtassi musammani maxbuni maqtu'*, *mujtassi musammani maxbuni maqtu'i musabbag'* vaznlari bir she'r doirasida almashinib qo'llanishi mumkin. Masalan, Navoiyning mashhur «Qaro ko'zum...» g'azali mujtass bahrining uch vaznida yozilgan:

1) **mujtassi musammani maxbuni maqtu'**:

Qa-ro: ko'-zum ke-lu mar-dum-li-g'^em-di fan qil-g'il,

Ko'–zum qa–ro:–si–da mar–dum ki–bi: va–tan qil–g'il.

V – V – // V V – – // V – V – // – –

*mafoilun failotun mafoilun fa'lun*

*maxbun maxbun maxbun maxbuni mahzuf*

**2) mujtassi musammani maxbuni maqtu'i musabbag':**

Fi–ro:–q. to:–g'i–da to:–pil–sa tup–ro–g'im, ey charx,

V – V – // V V – – // V – V – // – ~

*mafoilun failotun mafoilun fa'lon*

Xa–mir e–tib ya–na ul tog'–da ko':–h.–kan qil–g'il.

**3) mujtassi musammani maxbuni mahzuf:**

Yu–zi:–da ter–ni ko'–rib o'l–sa–m, ^ey ra–fi:–q. me–ni:.,

V – V – // V V – – // V – V – // V V –

*mafoilun failotun mafoilun failun*

**16-мавзу: «Maf'uvlotu» (– – –V) rukni**

**va uning zihoflari“. Munsarih bahri va uning vaznlari. Sari' bahri va uning vaznlari**

**Режа:**

**1. “Мафъувлоту” рукни ва унинг зихофлари.**

**2. Munsarih bahri va uning vaznlari.**

**3. Sari' bahri va uning vaznlari.**

Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon»da ko'rsatishicha, «maf'uvlotu» ruknining «zihofoti to'qqizdur va furu'i o'n to'rt». Demak, “maf'uvlotu” tarkibida to'qqiz xil o'zgarish sodir bo'lib, ulardan o'n to'rt xil far'iy rukn yuzaga keladi. Ular quyidagilar:

1) *mafoiylu*. «Maf'uvlotu» (– – –V) birinchi «*maf*» cho'ziq bo'g'inidan «*f*» harfining tushib, «*ma*» qisqa bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: V– –V. Qolgan «*mauvlotu*» unga vazndosh bo'lgan «*mafoiylu*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*xabn*», «*xabn*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *maxbun* deb ataladi.<sup>13</sup>

2) *foilotu*. «Maf'uvlotu» (– – –V) ikkinchi «*uv*» cho'ziq bo'g'inidan «*v*» harfi tushib, «*u*» qisqa bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: –V–V. Qolgan «*maf'ulotu*» unga vazndosh bo'lgan «*foilotu*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*tayy*», «*tayy*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *matviy* deb ataladi;

3) *failotu*. «Maf'uvlotu» (– – –V) birinchi «*maf*» cho'ziq bo'g'inidan «*f*» harfi tushib, «*ma*» qisqa bo'g'inga hamda ikkinchi «*uv*» cho'ziq bo'g'inidan «*v*» harfi tushib, «*u*» qisqa bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: VV–V. Qolgan «*maulotu*»

<sup>13</sup> Mazkur far'iy rukni «*mafoiylun*»dan hosil bo'lgan far'iy rukn «*mafoiylu*» bilan chalkashtirmaslik lozim. Garchi nomlanishi bir xil bo'lsa ham, ular ikki xil asliy ruknga tegishli, shuningdek, ular ikki xil zihof natijasida yuzaga kelgan: «*mafoiylun*»da «*kaff*» (shuning uchun u *makfuf*), «*maf'uvlotu*»da esa «*xabn*» (shuning uchun u *maxbun*). Bu fikr keyingi *foilotu*, *failotu*, *maf'uvlun*, *fa'lun*, *foilun*, *foilon*, *fo'* va *fa'* far'iy ruknlariga ham tegishli.

unga vazndosh bo'lgan «*failotu*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*xabl*», «*xabl*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *maxbul* deb ataladi;

4) *maf'uvlon*. «Maf'uvlotu» (— — —V) oxirgi «*tu*» bo'g'inidan «*u*» tovushining tushishidan hosil bo'ladi: — —~. Qolgan «maf'uvlot» unga vazndosh bo'lgan «*maf'uvlon*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*vaqf*», «*vaqf*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *mavquf* deb ataladi;

5) *maf'uvlun*. «Maf'uvlotu» (— — —V) oxirgi «*tu*» bo'g'inining tushishidan hosil bo'ladi: — — —. Qolgan «maf'uvlo» unga vazndosh bo'lgan «*maf'uvlun*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*kashf*», «*kashf*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *makshuf* deb ataladi;

6) *maf'uvlu*. Maf'uvlotu» (— — —V) birinchi «*maf*» cho'ziq bo'g'inining tushishidan hosil bo'ladi: — — V. Qolgan «'uvlotu» unga vazndosh bo'lgan «*maf'uvlu*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*raf*», «*raf*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *marfu'* deb ataladi;

7) *fauvlun*. «Maf'uvlun» (makshuf // — — —) far'iy ruknning 1-«*maf*» cho'ziq bo'g'inidan «*f*» harfi tushib, «*ma*» qisqa bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: V— —. Yuzaga kelgan «mauvlun» unga vazndosh bo'lgan «*fauvlun*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*xabn*», «*xabn*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *maxbun* deb ataladi. Ammo u solim rukn «maf'uvlotu»dan emas, balki makshuf rukn «maf'uvlun»dan hosil bo'lganligi uchun makshufning maxbuni ma'nosida «*maxbuni makshuf*» deb nomlanadi;

8) *fauvlon*. «Maf'uvlon» (mavquf // — —~) far'iy ruknning 1-«*maf*» cho'ziq bo'g'inidan «*f*» harfi tushib, «*ma*» qisqa bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: V—~. Yuzaga kelgan «mauvlon» unga vazndosh bo'lgan «*fauvlon*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*xabn*», «*xabn*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *maxbun* deb ataladi. Ammo u solim rukn «maf'uvlotu»dan emas, balki mavquf rukn «maf'uvlon»dan hosil bo'lganligi uchun mavqufning maxbuni ma'nosida «*maxbuni mavquf*» deb nomlanadi;

9) *foilun*. «Maf'uvlun» (makshuf // — — —) far'iy ruknning 2-«*uv*» cho'ziq bo'g'inidan «*v*» harfi tushib, «*u*» qisqa bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: —V—. Yuzaga kelgan «maf'ulun» unga vazndosh bo'lgan «*foilun*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*tayy*», «*tayy*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *matviy* deb ataladi. Ammo u solim rukn «maf'uvlotu»dan emas, balki makshuf rukn «maf'uvlun»dan hosil bo'lganligi uchun makshufning matviyi ma'nosida «*matviyi makshuf*» deb nomlanadi;

10) *foilon*. «Maf'uvlon» (mavquf // — —~) far'iy ruknning 2-«*uv*» cho'ziq bo'g'inidan «*v*» harfi tushib, «*u*» qisqa bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: —V~. Yuzaga kelgan «maf'ulon» unga vazndosh bo'lgan «*foilon*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*tayy*», «*tayy*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn *matviy* deb ataladi. Ammo u solim rukn «maf'uvlotu»dan emas, balki mavquf rukn

«mafʼuvlon»dan hosil boʻlganligi uchun mavqufning matviyi maʼnosida «*matviyi mavquf*» deb nomlanadi;

11) *failun*. «Foilon» (matviyi makshuf // –V–) farʼiy rukndagi 1-«*fo*» choʻziq boʻgʻinning «*fa*» qisqa boʻgʻinga aylanishidan hosil boʻladi: VV–. Rukndagi bu oʻzgarish «*xabn*», «*xabn*» zihofi natijasida paydo boʻlgan farʼiy rukn *maxbun* deb ataladi. Ammo u solim rukn «mafʼuvlotu»dan emas, balki matviyi makshuf rukn «foilon»dan hosil boʻlganligi uchun matviyi makshufning maxbuni maʼnosida «*maxbuni matviyi makshuf*» deb nomlanadi.

12) *faʼlun*. «Mafʼuvlotu» (– – –V) ning uchinchi «*lo*» hamda toʻrtinchi «*tu*» boʻgʻinlarining tushishidan hosil boʻladi: – –. Qolgan «mafʼuv» unga vazndosh boʻlgan «*faʼlun*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu oʻzgarish «*salm*», «*salm*» zihofi natijasida paydo boʻlgan farʼiy rukn *aslam* deb ataladi;

13) *foʻ*. Mafʼuvlotu» (– – –V) ning avvalgi «*maf*» va «*uv*» choʻziq boʻgʻinlari hamda toʻrtinchi «*tu*» qisqa boʻgʻindan «*u*» tovushining tushishidan hosil boʻladi: ~. Qolgan «lot» unga vazndosh boʻlgan «*foʻ*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu oʻzgarish «*jadʼ*», «*jadʼ*» zihofi natijasida paydo boʻlgan farʼiy rukn *majduʼ* deb ataladi;

14) *faʼ*. Mafʼuvlotu» (– – –V) ning avvalgi «*maf*» va «*uv*» choʻziq boʻgʻinlari hamda toʻrtinchi «*tu*» qisqa boʻgʻinining tushishidan hosil boʻladi: –. Qolgan «lo» unga vazndosh boʻlgan «*faʼ*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu oʻzgarish «*nahr*», «*nahr*» zihofi natijasida paydo boʻlgan farʼiy rukn *manhur* deb ataladi;

«Mafʼuvlotu» rukni, uning zihoflari hamda ulardan hosil boʻladigan farʼiy ruknlar quyidagi jadvalda aks etgan:

<i>T/r</i>	<i>rukn nomi</i>	<i>zihof nomi</i>	<i>farʼiy rukn nomi</i>	<i>chizmasi</i>
1	mafʼuvlotu	–	solim	– – –V
2	mafoiylyu	xabn	maxbun	V – –V
3	foilotu	tayy	matviy	–V –V
4	failotu	xabl	maxbul	VV –V
5	mafʼuvlon	vaqf	mavquf	– – ~
6	mafʼuvlun	kashf	makshuf	– – –
7	mafʼuvlotu	rafʼ	marfuʼ	– – V
8	fauvlun	xabn	maxbuni makshuf	V – –
9	fauvlon	xabn	maxbuni mavquf	V – ~
10	foilon	tayy	matviyi makshuf	–V –
11	foilon	tayy	matviyi mavquf	–V ~
12	failun	xabn	maxbuni matviyi makshuf	VV –
13	faʼlun	salm	aslam	– –
14	foʻ	jadʼ	majduʼ	~

15	fa'	nahr	manhur	–
----	-----	------	--------	---

Shunday qilib, «maf'uvlotu»ning 9 xil zihofga uchrashi natijasida uning 14 xil far'iy ko'rinishi yuzaga keladi. Ammo o'zbek adabiyotida ulardan faqat ikkitasi uchraydi, xolos:

<i>T/r</i>	<i>rukn nomi</i>	<i>rukn nomi</i>	<i>chizmasi</i>	<i>misradagi o'rni</i>
1	foilun	matviyi makshuf	–V–	2,4-ruknlarda
2	foilon	matviyi mavquf	–V~	oxirgi ruknda

Ma'lumki, «maf'uvlotu»ning bir o'zidan hosil bo'ladigan bahr yo'q, u boshqa ruknlar, xususan, «mustaf'ilun» rukni bilan birikib, munsarih, muqtazab va sari' bahrlarining tarkibida ishtirok etadi. Ammo «maf'uvlotu» ishtirok etadigan bahrlardan muqtazab bahri o'zbek adabiyotida qo'llangan emas.

### ***Munsarih bahri vaznlari***

Ma'lumki, bu bahr «mustaf'ilun» va «maf'ulotu» ruknlarining birikuvidan yuzaga keladi. Garchi Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon» asarida munsarih bahrining sakkiz musamman, ikki musaddas va ikki murabba' vazniga misollar keltirsa ham, o'zbek adabiyoti, xususan, Navoiy lirikasining o'zida ham bu bahrning asosan quyidagi ikki musamman vazni ishlatilgan, xolos:

1. ***Munsarihi musammani matviyi makshuf***. Mazkur vaznning 1 va 3-ruklari «mustaf'ilun»ning matviy ko'rinishi «muftailun» (–VV–), 2 va 4-ruklari esa «maf'uvlotu»ning matviyi makshuf ko'rinishi «foilun» (–V–) ga teng bo'ladi:

muftailun	foilun	muftailun	foilun
muftailun	foilun	muftailun	foilun
–V V– //	–V– //	–V V– //	–V–

Masalan:

Sur–ma bi–lan–mu: u–l<sup>^</sup>oy ko'z–ni qa–ro: ay–la–mish,  
Yo'q–sa Xo'–tan jay–ra–ni: mush–k<sup>^</sup>i–chi–da: ag'–na–mish.

–	V V	–//–	V	–//	–	V V	–//–	V	–
<i>muftailun</i>			<i>foilun</i>		<i>muftailun</i>			<i>foilun</i>	
<i>matviy</i>			<i>matviyi</i>	<i>matviy</i>				<i>matviyi makshuf</i>	
			<i>makshuf</i>						

### **Navoiy**

2. ***Munsarihi musammani matviyi mavquf***. Bu vaznning yuqoridagi vazndan farqi shundaki, uning avvalgi uch rukni bir xil bo'lgani holda, oxirgi rukni «maf'uvlotu»ning matviyi makshuf tarmog'i «foilun» emas, balki matviyi mavquf tarmog'i «foilon» (–V~) ga teng bo'ladi:

muftailun	foilun	muftailun	foilon
muftailun	foilun	muftailun	foilon
–V V– //	–V– //	–V V– //	–V~

Masalan:

Qay-si cha-man-din e-sib kel-di sa-bo: yo:-r.-yor,  
Kim da-mi-din tush-ti o't jo:-ni-m^a-ro:, yo:-r.-yor.

- V V - // - V - // - V V - // - V ~

*muftailun*      *foilun*      *muftailun*      *foilon*  
*matviy*      *matviyi*      *matviy*      *matviyi mavquf*  
*makshuf*

### Navoiy

**Eslatma:** *munsarihi musammani matviyi makshuf* va *munsarihi musammani matviyi mavquf* vaznlari bir-biriga yaqin vaznlar bo'lgani uchun bir she'r doirasida almashinib qo'llanishi mumkin.

### Sari' bahri vaznlari

Ma'lumki, sari' bahri ketma-ket kelgan ikkita «mustaf'ilun»ning bitta «maf'ulotu» bilan birikuvidan hosil bo'ladi. Sari' faqat musaddas shaklda qo'llanadigan bahr bo'lib, uning solim ko'rinishi quyidagichadir:

mustaf'ilun	mustaf'ilun	maf'ulotu
mustaf'ilun	mustaf'ilun	maf'ulotu
--V- //	--V- //	---V
<i>solim</i>	<i>solim</i>	<i>solim</i>

O'zbek adabiyotida sari' bahrining quyidagi vaznlari uchraydi:

1. **Sari'i musaddasi matviyi makshuf.** Bu vaznning 1 va 2-ruklari «mustaf'ilun»ning matviy ko'rinishi «muftailun» (-VV-), 3-rukni esa «maf'ulotu»ning matviyi makshuf «foilun» (-V-) ko'rinishiga teng bo'ladi:

muftailun	muftailun	foilun
muftailun	muftailun	foilun
-V V- //	-V V- //	-V-

Masalan:

O:-da-mi-y^er-sang, de-ma-gil o:-da-mi:,

O:-ni-ki yo'q xal-q. g'a-mi:-din g'a-mi:.

- V V - // - V V - // - V -

*muftailun*      *muftailun*      *foilun*  
*matviy*      *matviy*      *matviyi makshuf*

### Navoiy. Hayrat ul-abror

Yoki:

Sab-r. bi-lan Tang-ri be-rur ko:-mi dil,

Sab-r. qi-lu: sab-r. qi-lu: sab-r. qil.

- V V - // - V V - // - V -

*muftailun*      *muftailun*      *foilun*  
*matviy*      *matviy*      *matviyi makshuf*

### «Yusuf va Zulayxo» dostonidan

2. *Sari'i musaddasi matviyi mavquf*. Bu vaznning yuqoridagi vazndan farqi shundaki, uning avvalgi ikki rukni bir xil bo'lgani holda, oxirgi rukni «maf'uvlotu»ning matviyi makshuf tarmog'i «foilon» emas, balki matviyi mavquf tarmog'i «foilon» (-V~) ga teng bo'ladi:

muftailun	muftailun	foilon
muftailun	muftailun	foilon
-V V- //	-V V- //	-V~

Masalan:

Qay-si na-sim, ul-ki e-rur gul-fi-shon,  
Bar-gi gu-lu: nas-ta-ra-n^an-din ni-shon.

- V V -// - V V -// - V ~

<i>muftailun</i>	<i>muftailun</i>	<i>foilon</i>
<i>matviy</i>	<i>matviy</i>	<i>matviyi mavquf</i>

### Navoiy. Hayrat ul-abror

Yoki:

O'n i-ki oy-da: ke-la-dur bir ta-nob,  
O'z-ga-la-ra: ro:-ha-tu men-ga: a-zob.

- V V -// - V V -// - V ~

<i>muftailun</i>	<i>muftailun</i>	<i>foilon</i>
<i>matviy</i>	<i>matviy</i>	<i>matviyi mavquf</i>

### Muqimiy. Tanobchilar

*Eslatma:* *sari'i musaddasi matviyi makshuf* va *sari'i musaddasi matviyi mavquf* vaznlari bir-biriga yaqin vaznlar bo'lgani uchun bir she'r doirasida almashinib qo'llanishi mumkin. Sari' bahrida yozilgan Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror», noma'lum shoirning «Yusuf va Zulayxo» dostonlari hamda Muqimiyning «Tanobchilar» hajviyasida shu xususiyatni ko'rish mumkin.

## 17-мавзу: «Fauvlun» (V-- ) rukni va uning zihoflari. Mutaqorib bahri va uning vaznlari

Режа:

1. «Fauvlun» (V-- ) rukni va uning Zihoflari.

2. Мутақориб баҳри.

3. Мутақорибни мусаммани маҳзуф ва бошқалар.

Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon»da ko'rsatishicha, «fauvlun» ruknining zihoflari ham, furu'lari ham oltita. Ya'ni «fauvlun» tarkibida olti xil o'zgarish sodir bo'lib, ulardan olti xil far'iy rukn yuzaga keladi. Ular quyidagilar:

1) *fauvlu*. «*Fauvlun*» (V-- ) uchinchi «*lun*» cho'ziq bo'g'inidan «*n*» harfi tushib, «*lu*» qisqa bo'g'inga aylanishidan hosil bo'ladi: V-V. Rukndagi bu o'zgarish «*qabz*», «*qabz*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*maqbus*» deyiladi;

2) *fauvl*. «*Fauvlun*» (V-- ) oxiridagi «*un*» qismining tushishidan hosil bo'ladi, natijada ikkinchi cho'ziq bo'g'in o'ta cho'ziq bo'g'inga aylanadi: V~.

Rukndagi bu o'zgarish «*qasr*», «*qasr*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*maqsur*» deyiladi;

3) *faul*. «*Fauvlun*» (V– –) oxirgi «*lun*» bo'g'inining tushishidan hosil bo'ladi: V–. Qolgan «*fauv*» qismi u bilan vazn jihatidan bir xil bo'lgan «*faul*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*hazf*», «*hazf*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*mahzuf*» deb nomlanadi;

4) *fa'lun*. «*Fauvlun*» (V– –) birinchi «*fa*» bo'g'inining tushishidan hosil bo'ladi: – –. Qolgan «*uvlun*» qismi u bilan vazn jihatidan bir xil bo'lgan «*fa'lun*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*salm*», «*salm*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*aslam*» deb nomlanadi;

5) *fa'lu*. «*Fauvlun*» (V– –) birinchi «*fa*» bo'g'ini hamda oxirgi «*lun*» bo'g'inidagi «*n*» harfining tushishidan hosil bo'ladi: –V. Qolgan «*uvlu*» qismi u bilan vazn jihatidan bir xil bo'lgan «*fa'lu*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*sarm*», «*sarm*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*asram*» deb nomlanadi;

6) *fa'*. «*Fauvlun*» (V– –) dan birinchi va ikkinchi bo'g'inlar – «*fauv*»ning tushishidan hosil bo'ladi: –. Qolgan «*lun*» qismi u bilan vazn jihatidan bir xil bo'lgan «*fa'*» bilan almashtiriladi. Rukndagi bu o'zgarish «*batr*», «*batr*» zihofi natijasida paydo bo'lgan far'iy rukn esa «*abtar*» deb nomlanadi.

«*Fauvlun*» rukni, uning zihofoti va undan hosil bo'ladigan far'iy ruknlarni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin:

<i>T/r</i>	<i>rukn nomi</i>	<i>zihof</i>	<i>far'iy rukn nomi</i>	<i>chizmasi</i>	<i>misradagi o'rni</i>
1	fauvlun	–	solim	V– –	hamma ruknlarda
2	fauvlu	qabz	maq buz	V–V	1,3-ruknlarda
3	fauvl	qasr	maqsur	V~	oxirgi ruknda
4	faul	hazf	mahzuf	V–	oxirgi ruknda
5	fa'lun	salm	aslam	– –	1,3-ruknlarda
6	fa'lu	sarm	asram	–V	1,3-ruknlarda
7	fa'	batr	abtar	–	oxirgi ruknda

«*Fauvlun*» ruknining solim va far'iy ko'rinishlari bu rukn takroridan yuzaga keluvchi muta qorib bahri hamda «*fauvlun*» ishtirokida tuziladigan tavil bahrida istifoda etiladi. Tavil bahri, yuqorida ta'kidlanganidek, o'zbek adabiyotida qo'llangan emas.

### *Mutaqorib bahri vaznlari*

1. *Mutaqoribi musammani solim*. Mazkur vaznning to'rtala rukni ham «*fauvlun*» ruknining solim (V– –) ko'rinishidan iborat bo'ladi:

fauvlun      fau vlun      fau vlun      fau vlun



fauvlun	fauvlun	fauvlun	fauvlun
V -- //	V -- //	V -- //	V --

Masalan:

Ya-na: sen-si-zin mu:-ni-sim g'am bo'-lup-tur,  
 Ko'-zum-ga: yu-rak qo:-ni ham-dam bo'-lup-tur.

V	-	-	//	V	-	-	//	V	-	-	//	V	-	-
<i>fauvlun</i>				<i>fauvlun</i>				<i>fauvlun</i>				<i>fauvlun</i>		
<i>solim</i>				<i>solim</i>				<i>solim</i>				<i>solim</i>		

2. **Mutaqoribi musammani mahzuf.** Bu vaznning 1, 2, 3-ruklari «fauvlun»ning solim (V- -), 4-rukni esa mahzuf (faul // V-) ko'rinishidan iborat bo'ladi:

fauvlun	fauvlun	fauvlun	faul
fauvlun	fauvlun	fauvlun	faul
V -- //	V -- //	V -- //	V -

Masalan:

E-lig ay-di em-di: a-yit-g'u: so'-zum,  
 Bu yer-da: mu-ni: em-di ay-tur o'-zum.

V	-	-	//	V	-	-	//	V	-	-	//	V	-
<i>fauvlun</i>				<i>fauvlun</i>				<i>fauvlun</i>				<i>faul</i>	
<i>solim</i>				<i>solim</i>				<i>solim</i>				<i>mahzuf</i>	

### Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig

Yoki:

Si-kan-dar e-shit-gach de-di:-kim: «Yu-rung,  
 A-ni: qay-da bo'l-sa:, to-pib kel-tu-ring!»

V	-	-	//	V	-	-	//	V	-	-	//	V	-
<i>fauvlun</i>				<i>fauvlun</i>				<i>fauvlun</i>				<i>faul</i>	
<i>solim</i>				<i>solim</i>				<i>solim</i>				<i>mahzuf</i>	

### Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy

3. **Mutaqoribi musammani maqsur.** Bu vaznning *mutaqoribi musammani mahzuf* vaznidan farqi shuki, 1, 2, 3-ruklari «fauvlun»ning solim (fauvlun // V- -) ko'rinishi bo'lgani holda, 4-rukni maqsur (fauvl // V~) ko'rinishidan iborat bo'ladi:

fauvlun	fauvlun	fauvlun	fauvl
fauvlun	fauvlun	fauvlun	fauvl
V -- //	V -- //	V -- //	V~

Masalan:

To'-rit-ti: a-ro: o'q-la-rin bir ba-yat,  
 U-lug' bir ki-chig bir e-siz e:-di at.

V	-	-	//	V	-	-	//	V	-	-	//	V	~
<i>fauvlun</i>				<i>fauvlun</i>				<i>fauvlun</i>				<i>fauvl</i>	
<i>solim</i>				<i>solim</i>				<i>solim</i>				<i>maqsur</i>	

### Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig

Yoki:

E-shit-tim-ki Is-kan-da-ri: no:-m.-dor,

Chu bo'l-di: ja-hon ah-li-g'a: ko:-m.-gor.

V - - // V - - // V - - // V ~

fauvlun fauvlun fauvlun fauwl

solim solim solim maqsur

### Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy

**Eslatma:** 1) *mutaqorib bahri* Firdavsiyning «Shohnoma» dostonidan boshlab shohlar haqidagi dostonlarni yozishda qo'llanib kelgan. Yusuf Xos Hojibning «Qudadg'u bilig» va Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonlari ham shu bahrda yozilgan;

2) *mutaqoribi musammani mahzuf* va *mutaqoribi musammani maqsur* vaznlari bir-biriga yaqin vaznlar bo'lgani uchun bir she'r doirasida almashinib qo'llanishi mumkin. Bu xususiyat Yusuf Xos Hojibning «Qudadg'u bilig», Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonlardan keltirilgan misollardan ham ko'rinib turibdi.

4. **Mutaqoribi musammani aslam.** Mazkur vaznning 1 va 3-ruknlari «fauvlun»ning aslam (fa'lun // - -), 2 va 4-ruknlari esa solim (fauvlun // V - -) ko'rinishidan iborat bo'ladi:

fa'lun	fauvlun	fa'lun	fauvlun
fa'lun	fauvlun	fa'lun	fauvlun
- - //	V - - //	- - //	V - -

Masalan:

Ko'r-sat ja-mo:-ling mas-to:-na-lar-ga:,

Ish-qing-da kuy-gan de:-vo:-na-lar-ga:.

- - // V - - // - - // V - -

fa'lun fauvlun fa'lun fauvlun

aslam solim aslam solim

### Mashrab

## 2. AMALIY MASHG'ULOTLAR

**1-mashg'ulot:** Kirish. Aruz vaznining o'ziga xos xususiyatlari. Qisqa va cho'ziq bo'g'inlar

Aruz vazni. Uning shakllanish tarixi. Arab aruzi. Aruz vaznining fors-tojik adabiyotiga kirib kelishi. Aruzning turkiy adabiyotdagi tarixi. Aruz vaznining misralardagi bo'g'inlar miqdorining tengligi bilan birga, sifatining ham bir xilligiga asoslangan vazn ekanligi. Qisqa va cho'ziq bo'g'inlar.**2-mashg'ulot:** O'ta cho'ziq bo'g'inlar. Qo'shimcha qoidalar

**2-mashg'ulot:** O'ta cho'ziq bo'g'inlar Reja:

O'ta cho'ziq bo'g'inlar. Ularning ikki turi. O'ta cho'ziq bo'g'inlarning o'qilish qoidalari. Vasla hodisasi. Qisqa va cho'ziq bo'g'in hosil qilishdagi qo'shimcha qoidalar. **4-mashg'ulot:** Zihof va furu'. "Mafoiyun" rukni va uning zihoflari. Taqti'

**3-mashg'ulot:** Qo'shimcha qoidalar.

Misralardagi qisqa va cho'ziq bo'g'inlarni to'g'ri belgilash va o'qish uchun hisobga olish zarur bo'lgan qo'shimcha qoidalar. Arabcha-forscha so'zlar. O'zbekcha so'zlar. Ikki, yetti, sakkiz, to'qqiz, achchiq, qattiq xati, siri, duri, anga, manga, sanga guliston, Iskandar, nav', sham' kabi so'zlarning bo'g'in hosil qilishdagi o'ziga xos xususiyatlari.

**4-mashg'ulot:** Juzvlar. Ruknlar. Bahrlar

Juzvlar: sabab, vatad, fosila. Rukn tushunchasi. Asliy ruknlar: fauvlun, foilun, mafoiylun, foilotun, mustaf'ilun, mafuvlotu, mutafoilun, mafoilatun. Bahr tushunchasi. Ularning hosil bo'lishi: bir xil ruknlardan hosil bo'lgan bahrlar, ikki xil ruknlardan hosil bo'lgan bahrlar

**5-mashg'ulot:** Zihof va furu'.

Zihof va furu' tushunchasi. Asliy ruknlar tarkibida bo'ladigan o'zgarishlar va ularning turlari. "Mafoiylun" rukni va uning zihoflari

**6-mashg'ulot:** "Mafoiylun" rukni va uning zihoflari

Zihof va furu' tushunchasi. Asliy ruknlar tarkibida bo'ladigan o'zgarishlar va ularning turlari. "Mafoiylun" rukni va uning zihoflari

**7-mashg'ulot:** Vaznlar. Taqti'

Vazn tushunchasi. Uning amal qilish doirasi. Ruknlarning baytdagi o'rniga ko'ra nomlanishi: sadr, aruz, ibtido', zarb va hashv. Vaznlarning qaysi asliy va far'iy rukndan hosil bo'lishi va miqdoriga ko'ra nomlanishi.

Taqti' qoidasi. Misralarni ruknlarga ajratish jarayoni: baytdagi qisqa va cho'ziq bo'g'inlarni aniqlash, baytni ruknlarga ajratish, ruknlarning nomini aniqlash

**9-mashg'ulot:** Xafif bahri va uning vaznlari. Muftass bahri va uning vaznlari

**8-mashg'ulot:** Hazaj bahri va uning vaznlari

Hazaj bahrining «mafoiylun» ruknining takroridan hosil bo'lishi. Musaddas vaznlar. Musamman vaznlar

**9-mashg'ulot:** Hazaj bahri va uning vaznlari

Hazaj bahrining «mafoiylun» ruknining takroridan hosil bo'lishi. Musaddas vaznlar. Musamman vaznlar

**10-mashg'ulot:** Ruboiy vaznlari

Ruboiy vaznlarining «mafoiylun» ruknining takroridan hosil bo'lishi. Axrab va axram ruknlari

**11-mashg'ulot:** "Foilotun" rukni va uning zihoflari. Ramal bahri vaznlari

«Foilotun» ruknining o'n xil zihofga uchrashi, buning natijasida uning o'n besh far'iy ko'rinishi yuzaga kelishi. Ramal bahri. Musaddas vaznlar

**12-mashg'ulot:** Ramal bahri vaznlari

Ramal bahri. Musamman vaznlar.

**13-mashg'ulot:** Muzore' bahri vaznlari

Muzore' bahrining «mafoiylun» va «foilotun» ruknlarining galma-gal takrorlanib kelishidan hosil bo'lishi. Muzore' bahrining «mafoiylun» va «foilotun» ruknlarining galma-gal takrorlanib kelishidan

**14-mashg'ulot:** "Mustaf'ilun" rukni va uning zihoflari. Rajaz bahri vaznlari.

«Mustaf'ilun» ruknining 9 xil zihofga uchrashi, natijada 14 xil far'iy rukn yuzaga kelishi. Rajaz bahri. Rajaz bahrining musaddas vamusamman vaznlari

**15-mashg'ulot:** Xafif bahri va uning vaznlari. Muftass bahri va uning vaznlari

Xafif bahrining «foilotun» va «mustaf'ilun» ruknlarining birikuvidan hosil bo'lishi. O'zbek adabiyotida uning asosan musaddas shakllarda qo'llanishi. Xafif bahri vaznlari.

Mujtass bahrining «mustaf'ilun va «foilotun» ruknlarining birikuvidan yuzaga keladishi. Uning o'zbekadabiyotida kengqo'llanuvchi vaznlari.

**16-mashg'ulot:** “Maf'uvlotu” rukni va uning zihoflari. Munsarih bahri va uning vaznlari. Sari' bahri va uning vaznlari

“Maf'uvlotu” rukni tarkibida to'qqiz xil o'zgarish sodir bo'lib, ulardan o'n to'rt xil far'iy rukn yuzaga keladi. Bu ruknning o'zidan biror bahr hosil bo'lmasligi. Munsarih bahri. Bu bahrning «mustaf'ilun» va «maf'ulotu» ruknlarining birikuvidan yuzaga kelishi. Munsarih bahri vaznlari. Sari' bahri. Uning ketma-ket kelgan ikkita «mustaf'ilun» va bitta «maf'uvlotu»ning birikuvidan hosil bo'lishi. Sari' bahri vaznlari

**17-mashg'ulot:** “Fauvlun” rukni va uning zihoflari. Mutaqorib bahri va uning vaznlari

«Fauvlun» ruknining zihoflari ham, furu'lari ham oltita ekanligi. Mutaqoribbahri. Uning vaznlari

**18-mashg'ulot:** Lutfiy g'azaliyoti vaznlari

Lutfiy devonidagi g'azallarning vaznlarini aniqlash.

**19-mashg'ulot:** Bobur g'azallari vaznlari

Bobur devonidagi g'azallarning vaznlarini aniqlash

## II. MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL EISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Darslik va o'quv qo'llanmalarining (ularning to'la ta'minlanganligi taqdirda) boblari va mavzulami o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. O'qitish va baholash qilishning avtomatlashtirilgan to'zmlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

«Aruz vazni» fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga uo 'naltirish, asarlarni o'qish, mazmunini o'zlashtirish, g'azallarni ifodalii o'qish va tahlil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish. Talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muauuan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

“Aruz vazni” fanidan talabalar mustaqil ishini tashkil etish, reyting ishlanmasi va bahlash mezonlari OO'MTVning 2009-yil 14-avgustdagi “Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to'g'risida”gi 286-sonli, 2010-yil 25-avgustdagi “Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi 333-sonli buyruqlari asosida tayyorlandi.

### MUSTAQIL ISH MAVZULARI VA SHAKLLARI

№	Mavzu nomi	TMI shakli	Soati
1	Atoullloh Husayniyning «Badoyi'u-sanoyi'» kitobini o'qish.	kitobni o'qib-o'zlashtirish	10

2	Navoiyning «Mezon ul-avzon» asarini o'qish.	kitobni o'qib-o'zlashtirish	10
3	Lutfiy devonidagi she'rlarning vaznini aniqlash.	devondagi she'rlarning vaznini aniqlash.	10
4	Atoiy devonidagi she'rlarning vaznini aniqlash.	devondagi she'rlarning vaznini aniqlash.	10
5	Navoiyning «Navodir ush-shabob» devonidagi she'rlarning vaznini aniqlash.	devondagi she'rlarning vaznini aniqlash.	10
6	Navoiyning «Badoyi ul-vasat» devonidagi she'rlarning vaznini aniqlash.	devondagi she'rlarning vaznini aniqlash.	10
7	Bobur devonidagi she'rlarning vaznini aniqlash.	devondagi she'rlarning vaznini aniqlash.	10
			70

#### IV. GLOSARRIY

**AZL** – “Chetlatuvchi” ma’nosini anglatuvchi aruz atamasi bo’lib, adadib tilda cho’ziq o’qiluvchi unilarni she’riy asarlarda vazn talabiga ko’ra qisqa unli tarzida o’qilishini ifodalaydi. **ZARB** - aruz ilmiga ko’ra she’riy baytlarning ikkinchi misrasidagi oxirgi rukn o’rni nomi. **IMOLA** – aruz atamalaridan bo’lib vazn taqazosi bilan tarkibida cho’ziq unli bo’lgan ayrim yopiq hijolarni, unlini cho’zib talaffuz qilish hisobiga o’ta cho’ziq hijo qilib o’qishni ifodalaydi.

**ISTIHLUF** - aruz atamalaridan bo’lib, jonli tilda qisqa talaffuz qilinuvchi ba’zi unilarni she’rni o’qish chog’ida cho’ziq unli sifatida talaffuz qilishni ifodalaydi.

**KOMIL BAHRI** – she’riyatimizda juda kam qo’llangan ayrim yirik iodkorlarning asaridagina qo’llangan bahr bo’lib, mutafoilun aslining takroriga asoslanadi.

**MAKSHUF** - maf’ulotu aslining kashf (ochish) zihofiga duch kelishi natijasida hosil bo’lgan, maf’ulun (chizmasi: - - -) tarmoq rurnining nomi bo’lib, ochilgan degan ma’noni ifodalaydi.

**MAFOILUN** - mustaf’ilun aslining “xabn” zihofiga duch kelishi natijasida hosil bo’lgan tarmoq rukni bo’lib, vazn chizmasida V- V- tarzida ifodalanadi.

**AJUZ (ARUZ)** (ar. عجز – ojiz, kuchsiz) – qarang: **taqti’**

**AMIQ** (ar. عميق – chuqur) – aruz bahrlaridan biri, *foilun* (– v –) va *foilotun* (– v –) asllarining ketma-ket takroridan hosil bo’ladi. A. bahri ilk bor Boburning “Muxtasar” asarida tilga olingan va uning arab she’riyatiga xos emasligi, asosan, fors she’riyatida mavjudligi ta’kidlangan. “Muxtasar”da *amiqi musammani solim* (– v – / – v – – / – v – / – v –) vazniga:

Kel beri, ey parikim, hajrdin xastadurman,  
La’linga tashnadurman, zulfunga bastadurman, –  
bayti misol sifatida keltirilgan.

**AMR VA NAHIY** (ar. امر و نهى – buyurish va man' qilish) - insho yo'llaridan biri, fikrni ifodalash usuli, lirik qahramon kechinmalarining biron bir harakatga undash yoki, aksincha, undan qaytarish, man' qilish tarzida bayon etilishi. O'quvchini yaxshi ishni qilish va yomon ishdan saqlanishga chorlov mazmunidagi baytlarda mohiyatan A. va n. bilan *kalomi jomi'* (q.) san'ati qorishiq qo'llanadi. A. va n. ham deyarli barcha shoirlar ijodida uchraydi. Masalan, Navoiyning:

Nozaninlar benavolarg'a tarahhum aylangiz,  
Lutf agar yo'qtur, g'azab birla takallum aylangiz, –  
baytida amr, ya'ni undash bo'lsa, Haziniyning:  
Ajab motamsaro dunyo ekan poyoni yo'q bilsam,  
Ki sen dunyog'a mag'rur o'lmag'ilkim, hargiz vafo qilmas, –  
baytida nahiy, ya'ni qaytarish mazmuni aks etgan.

**ARIZ** (ar. عريض – enli, keng) – aruz bahrlaridan biri. *Mafoiylun* (V – – –) va *fauvlun* (V – –) asllarining ketma-ket takroridan hosil bo'ladi. Boburgacha yaratilgan ilmi aruzga oid asarlarda mazkur bahr tilga olinmagan. "Muxtasar"da bu bahrni ajam xalqlari yaratganligi ta'kidlangan va uning to'rt vazniga bir baytdan misol keltirilgan. Xususan, Boburning :

Labing marjon, tishing dur, xating rayhon, hading gul,  
Soching anbar, yuzung hur, menging mo'lton, yuzung mul.

bayti *arizi musammani solim* (V – – – \ V – – \ V – – – \ V – –) vaznida yozilgan.

**ARUZ** (ar. عروض – chodirni ushlab turish uchun o'rta qo'yiladigan yog'och) – 1) qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq hijolarning muayyan tartibda guruhlanib takrorlanishiga asoslangan metrik she'r tizimi. Manbalarda aruzga VIII asrda yashagan arab olimi Halil ibn Ahmad tomonidan asos solingani, bu atama olim yashagan vodiy nomi bilan bog'liq ekanligi qayd etiladi. A. ming yillar davomida SHarq adabiyotidagi etakchi she'r tizimi bo'lib keldi, muttasil boyish va rivojlanishda bo'ldi, mukammal sistemaga aylandi, uning qonuniyatlari bilan shug'ullanuvchi soha – *ilmi aruz* (q.) shakllandi. Dastlab arab adabiyotida maydonga kelgan A. she'r tizimi IX asrdayoq forsiy adabiyotda ham qo'llanila boshlagan. Turkiy xalqlar adabiyotida, jumladan, o'zbek adabiyotida ham A. qadimdan qo'llanib kelinadi, degan fikr mavjud: "Bizning O'rta Osiyo turklari tomonidan qachon qabul etilgani aniq emas. Biroq hijriy 462 da Qashqarda yozilgan mashhur "Qutadg'u bilik" kitobining shu aruz vaznida yozilg'ani e'tibor etilsa, juda eskidan qabul etilgani ma'lum bo'latur" (Fitrat). XI asrdan to XIX asr oxiri – XX asr boshlariga qadar A. o'zbek mumtoz adabiyotidagi asosiy she'riy tizim bo'lib keldi. Albatta, forsiy va turkiy adabiyotlar A.ni mexanik tarzda o'zlashtirgan emas, aksincha, u fors va turkiy til xususiyatlariga imkon qadar moslashtirilgan. Tabiiyki, bu hol A.ni boyitgan, arab A., fors A., turkiy A. kabi tushunchalarning yuzaga kelishiga asos bo'lgan.

Mumtoz aruzshunoslikda A.ning ritmik birliklari sifatida *harf* (q.), *juzv* (q.), *rukn* (q.) va *bahr* (q.) ko'rsatilib, bu ko'proq arab A.iga xosdir. O'zbek mumtoz adabiyotshunosligida, jumladan, Navoiyning "Mezon ul-avzon", Boburning "Muxtasar" asarlarida turkiy A. ham shu an'ana yo'lida o'rganilgan. XX asrdan, xususan, Fitratdan boshlab o'zbek aruzshunosligida eng kichik ritmik bo'lak sifatida *hijo* (q.) ko'rsatila boshlandiki, bu A. ilmini o'zbek tili tabiatiga moslash zaruratining

hosilasidir. Natijada o‘zbek aruzshunosligida harf va juzv atamalari passivlashdi, ya’ni turkiy (o‘zbek) A.ning ritmik birliklari sifatida hijo, rukn va bahr e’tirof etildi. Mazkur birliklarning kichigi kattasini hosil qiladi (harflarning ma’lum tartibda birikishidan juzv, juzvlarning ma’lum tartibda takrorlashidan rukn (asl), ruknlarning ma’lum tartibda takrorlanishidan esa bahr), shuningdek, ruknlar sifat yoki miqdor jihatidan *zihof*(q.)ga uchrashidan qator shahobchalar paydo bo‘ladi, bu esa A.ning ritmik imkoniyatlarini kengaytiradi, unga ritmik-intonatsion rang-baranglik beradi. Natijada A. yuzlab vaznlarni o‘z ichiga olgan mukammal tizimga aylanadiki, u qaysidir jihatlari bilan Mendeleev jadvali kabi. YA’ni, nazariy jihatdan barcha vaznlar *taqte*’sini chizib ko‘rsatish, shunga tushadigan she’r yozish mumkin; tizim tarkibidagi ayrim vaznlar faol bo‘lsa, boshqalari juda kam qo‘llanadi; ayrim vaznlar ko‘proq arab, boshqalari fors, tag‘in birlari esa turkiy she’riyatda qo‘llanadi va h.

XX asrning 20-yillariga kelib A. she’riyatimizdagi etakchilik maqomini yo‘qotdi, o‘z o‘rnini tilimiz tabiatiga muvofiqroq bo‘lgan barmoqqa bo‘shatib berdi. SHunga qaramay, XX asrda yashab ijod qilgan Hamid Olimjon, Habibiy, Sobir Abdulla, CHustiy, CHarxiy kabi, shuningdek, ushbu an’anani muvaffaqiyatli davom ettirgan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Oydin Hojieva, Mirzo Kenjabek kabi zamondosh shoirlarimiz ijodida ham A.da yozilgan she’rlar ko‘plab uchraydi.

**BASIT** (ar. بسيط- yoyiq) – aruz bahrlaridan biri, *mustaf’ilun* (– – v –) va *foilun* (– v –) asllarining takroridan hosil bo‘ladi, *mustaf’ilun* rukni boshida ikki sabab (mus va taf) yoyilib turgani uchun shu nomni olgan. Bundan tashqari, B. bahri vaznlarining aruz va zarbida harakatlar, ya’ni qisqa unlilar yoyilgani uchun shunday nomlangan, degan fikrlar ham bor. B. bahri arab she’riyatiga xos bo‘lib, o‘zbek she’riyatida qo‘llanmaydi. Navoiyning “Mezon-ul-avzon” asarida B. bahrining bir vazni, Boburning “Muxtasar” asarida sakkiz vazni turkiy tilda bitilgan maxsus misollar bilan keltirilgan. Xususan, Navoiy:

Ishqing meni tunu kun majnununu zor aylamish,

Ko‘nglumni zoru hazin, jismim nazor aylamish, –

baytini misol qilgan bo‘lib, u *basiti musammani solim* (– – v – / –v – / – – v – / –v –) vaznida yozilgan.

**BAHR** (ar. بحر- dengiz) – aruzda yozilgan she’rda ruknlarning takrorlanish tartibi, konkret she’rdagi o‘lchov asosi. Aruzda *hijo*, *rukn*, *misra* va *bayt* (arab aruzida *harf*, *juzv*, *rukn*, *bahr*, *bayt*) she’rning o‘lchov birliklari bo‘lib, bunda bayt konkret she’rning ritmik jihatdan tugal birligi, boshqalari esa uning tarkibiy qismlari sanaladi. B. misra doirasida voqe bo‘ladi, chunki ilk misradagi ruknlar tartibi keyingi misralarda aynan takrorlanadi. YA’ni, aruzda 8 ta rukn(*asl*)ning muayyan tartibdagi takroridan B.lar hosil bo‘ladi va ularning har biri o‘z nomiga ega. A.Navoiy “Mezon ul-avzon”da ko‘rsatishicha, aruzda 19 ta bahr mavjud, Bobur esa “Muxtasar”da 21 ta bahrni ko‘rsatadi. B.larning ettitasi (*mutaqorib*, *mutadorik*, *hazaj*, *ramal*, *rajaz*, *komil* va *vofir*) bitta rukn takroridan (mas., mafoiylun / mafoiylun... – hazaj; foilotun / foilotun... – ramal) hosil bo‘ladi, birgina *maf’ulotu* asli o‘zi mustaqil holda B. hosil qilmaydi. Bittadan olingan ikkita asl takroridan yana 8 ta B. (*muzori*’, *hafif*, *mujtass*, *munsarih*, *muqtazab*, *tavil*, *madid* va *basit* ) hosil bo‘ladi (mas., mafoiylun / foilotun... – muzori’; foilotun / mustaf’ilun...– hafif). Ikkita bir xil va bitta boshqa asl

takroridan esa qolgan 4 ta B. (*qarib, mushokil, g'arib va sari'*) hosil bo'ladi (mas., foilotun / foilotun / mustaf'ilun – qarib; foilotun / foilotun / mafoiylun – mushokil). O'zbek tili xususiyatlari bilan bog'liq holda she'riyatimizda B.lar qo'llanishdagi faollik darajasiga ko'ra farqlanadi: agar hazaj, ramal, rajaz, muzori', xafif, mujtass, munsarih, sari', mutaqorib B.lari faol qo'llangan bo'lsa, mutadorik, komil tavil B.lari juda kam uchraydi; vofir, muqtazab, madid, basit, qarib, mushokil, g'arib, ariz, amiq B.lari esa she'riyatimizda ishlatilmagan.

**VAZN** (ar. وزن- o'lchov) – konkret she'rda yuzaga chiquvchi ritmik hodisa, metr, o'lchov. So'zlashuv amaliyotida “aruz vazni”, “barmoq vazni” tarzida ishlatish kuzatiladiki, nazariy jihatdan bu to'g'ri emas. CHunki, aslida, aruz ham, barmoq ham ko'plab vaznlarni o'z ichiga olgan she'r tizimlaridir. V. she'r tizimi qonuniyatiga asoslangan holda aniq bir she'rning o'lchovini bildiradi. Masalan, aruz tizimi qisqa va cho'ziq hijolarning muayyan tartibda takrorlanishiga asoslanadi, V. esa takrorlanishning konkret she'rdagi tartibini belgilayotgan o'lchovni bildiradi. Agar “g'azal ramali musaddasi solim vaznida yozilgan” deyilsa, uning bir baytida 6 ta, har bir misrasida uchtadan rukn, har bir ruknda 4 tadan hijo borligi, hijolar “cho'ziq-qisqa-cho'ziq-cho'ziq” tartibida guruhlangani anglashiladi. YA'ni, bu g'azal ritmi shu o'lchov asosida tartibga solingan, uning barcha misra va baytlari ritmik jihatdan shu o'lchovga mosdir.

**VASL** (ar. وصل- ulanish, qo'shilish) – 1) aruzda yozilgan she'rlarda ayrim yopiq hijolar oxiridagi undoshni vazn talabi bilan o'zidan keyingi unli bilan boshlangan so'zning birinchi hijosiga qo'shib o'qish hodisasi. Masalan, Mashrabning:

Sajda aylar **zohid ul** mehrobig'a,

Man qilurman sajda egma qoshima, –

baytidagi “zohid ul” (– – –) birikmasi V. qoidasiga ko'ra “zo-hi-dul” (– v –) tarzida o'qilishi lozim, aks holda she'r vazni buziladi. CHunki bayt ramali musaddasi maqsur (foilotun, foilotun, foilun) vaznida bo'lib, agar V. qoidasiga rioya qilinmasa, birinchi misra *xash*vidagi ikkinchi hijo qisqa bo'lmay qoladi, natijada vaznda buzilish yuzaga keladi. 2) *mutlaq qofiya* (q.) unsuri.

**VASF** (ar. وصف- tavsiflash, tasvirlash, sifatlash) – biror narsa, hodisa yoki shaxsni maqtash, madh etish, chiroyli o'xshatishlar, majoziy iboralar bilan ta'rifu tavsif berish. V. alohida janr emas, balki tavsifiy xarakterdagi qator janrlar(*qasida, madhiya, faxriya* va b.)ga xos ifoda yo'sini, usulidir. V. xarakteridagi she'rlar qasidadan ajralib chiqqan bo'lib, johiliyat davri arab she'riyatida shoirlar o'z tuyasi, oti yoki boshqa vahshiy hayvonlarni, sahrodagi turli hodisalarni V. qilib she'rlar bitgan bo'lsa, keyinchalik uning mavzu ko'lami kengaydi: biror shaxs, shahar, bino, yil fasllari, oy, qalam yoki qalamdon, boshqa biror buyum, zeb-ziynat va sh.k.larni tavsiflash maqsadida she'rlar bitildi. Ko'rinadiki, V.ning mavzusi cheklangan emas. SHunga qaramay, mumtoz she'riyatimizda ma'shuqa yoki uning biror uzvini tavsiflashga bag'ishlangan she'rlar (mas., “Kokuling”, “Sochlaring”, “Qoshlaring”, “Surating” radifli g'azallar) ko'proq uchraydi. Odatda, shoir biror narsani V. qilar ekan, uning jamiyatdagi yoki o'z hayotidagi o'rnini, ahamiyatiga baho beradi, unga o'zining munosabatini ifodalaydi.



**VATAD** (ar. **و ط د** - qoziqcha) – sokin va mutaharrik harflarning muayyan tartibda birikishidan hosil bo‘luvchi ritmik birlik, *juzv* (q.). Harflarning qay tartibda birikishidan kelib chiqib V.ning ikki turi farqlanadi: V.i *majmu'* (yoki maqrun) va V.i *mafruq*. Avval kelgan ikki mutaharrikka bir sokin *harfning* qo‘shilishidan V.i *majmu'* hosil bo‘ladi: “samar”, “bashar”, “qamar” kabi so‘zlar shu vaznga mosdir. Masalan, “qamar”: mutaharrik (qa) + mutaharrik (ma) + sokin (r). V.i *mafruq*da esa ikki mutaharrik orasida bir sokin harf joylashadi: “nola”, “lola”, “zora” kabi so‘zlar shu vaznga mosdir. Masalan, “nola”: mutaharrik (no) + sokin (l) + mutaharrik (a).

**VOFIR** (ar. **و ف ا ر** – mo‘l) – aruz bahrlaridan biri, harakati, ya’ni qisqa unilari ko‘p bo‘lgani uchun shunday nom berilgan. *Mafoilatun* aslining (v – v v –) takroridan hosil bo‘ladi. V. arab she’riyatiga xos bahr bo‘lib, o‘zbek va fors she’riyatida qo‘llanmagan. Faqat Navoiy o‘zining “Mezon ul-avzon” asarida V. bahrining ikki vazniga, Bobur esa “Muxtasar”da yigirma bir vazniga to‘xtalib, ularga maxsus baytlar bitib misol sifatida keltirganlar. Xususan, “Muxtasar”da:

Kel ey qaro ko‘z, manga guzar et,  
Budur sanga so‘z, manga nazar et, –

bayti *vofiri murabba’i solim* (v – v v – \ v – v v –) vazniga misol sifatida keltirilgan.

**JUZV** ( ar. **ج ز و** – bo‘lak, qism, parcha, butun emas) – aruzda sokin va mutaharrik harflarning muayyan tartibda birikishidan hosil bo‘luvchi ritmik birlik, *harf* bilan *rukn* orasidagi ritmik bo‘lak. Hozirgi adabiyotshunoslikda J. termini ko‘proq mazkur ma’noda qo‘llansa-da, mumtoz aruzshunoslikda ushbu tushunchani ba’zan *rukn* (Qays Roziy, Husayniy, Navoiy), ba’zan esa *asl* (Taroziy) deb yuritilgan. J. termini arab aruziga tatbiqan faol, turkiy aruzga nisbatan esa kam qo‘llanadi, chunki turkiy aruzda *hijo* termini *harf* va *juzv* ma’nolarini aksar o‘ziga qamrab oladi. SHu bois ham Fitratdan keyingi o‘zbek aruzshunosligida bu ikki termin o‘rniga *hijo* terminini qo‘llash ko‘proq ommalashgan. J. mutaharrik (cho‘zg‘ili) va sokin (cho‘zg‘isiz) harflarning muayyan tartibda birikishidan hosil bo‘ladi va shundan kelib chiqib J.ning uch xili ajratiladi: *sabab*, *vataad*, *fosila* (q.).

**ZARB** (ar. **ض ر ب** – urmoq, zarba bermoq; ikkinchi misraning so‘nggi bo‘lagini zarb bilan, urg‘u bilan aytish)– qarang: **taqti**

**ZIHOF** (ar. **ز ح ف** – o‘zgargan, aslidan uzoqlashgan, chetlashgan, joyidan qo‘zg‘olgan) – aruz she’r tizimi asosini tashkil qiluvchi 8 *aslning* sifat yoki miqdor jihatidan turli o‘zgarishlarga uchrashi. Asllarning Z.ga uchrashi natijasida ularing turli tarmoqlari – *furu*’lar hosil bo‘ladi. Asllar uch xil yo‘l bilan Z.ga uchrashi mumkin: 1) hijolarning miqdor jihatdan o‘zgarishi. Bunda *rukn* tarkibidagi hijolar soni o‘zgaradi, ya’ni, asosan, *rukn* tarkibidan bir yoki bir necha *hijo* tushib qoladi. Masalan, *foilotun* aslining *hazf* Z.iga uchrashi natijasida oxirgi cho‘ziq *hijo* (*tun*) tushib qoladi va *foilun* (*mahzuf*) *furu*’si hosil bo‘ladi. 2) hijolarning sifat jihatdan o‘zgarishi. Bunda *rukn* tarkibidagi hijolar sifati o‘zgaradi, ya’ni cho‘ziq *hijo* qisqa yoki o‘ta cho‘ziq *hijoga*, qisqa *hijo* cho‘ziq yoki o‘ta cho‘ziq *hijoga*, o‘ta cho‘ziq *hijo* qisqa yoki cho‘ziq *hijoga* aylanadi. Masalan, *mafoiylun* aslining *kaff* Z.iga uchrashi natijasida oxirgi cho‘ziq *hijo* (*lun*) qisqa *hijoga* aylanadi va *mafoiylun* *furu*’si (*makfuf*) hosil bo‘ladi. 3) *rukn* tarkibidagi hijolar bir paytning o‘zida ham miqdor, ham sifat jihatdan o‘zgarishga uchraydi, ya’ni, *rukn* tarkibidagi bir yoki bir necha *hijo*

tushirilib, qolgan hijolardan birida sifat o'zgarishi yuz beradi. Masalan, *mafoiylun* aslining *qasr* Z.iga uchrashi natijasida oxirgi cho'ziq hijo (*lun*) tushirilib, undan oldingi cho'ziq hijo (*iy*) o'ta cho'ziq hijoga (*iyl*) aylanadi va *mafoiyl* furu'si (*maqsur*) hosil bo'ladi.

**ZULQAVOFI'** (ar. ذوالقوافي – uch va undan ortiq qofiyali) – qofiya bilan bog'liq she'r san'atlaridan biri, bayt tarkibida uch yoki undan ortiq qofiyadosh so'zlar juftligini keltirish. Z. ritmi ayricha ta'kidlash orqali baytga o'ziga xos musiqiylik, xushohanglik baxsh etadi. Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidan olingan quyidagi bayt Z.ga yaxshi misol:

Har qissada shukr sol tilimga,  
Har g'ussada sabr ber ilimga.

Mazkur baytda “tilimga – ilimga” juftligi asosiy qofiya bo'lsa, “shukr - sabr” va “qissa - g'ussa” juftliklari ham o'zaro qofiyalanib kelmoqda. Z.ni tarse'dan farqlash kerak (q. *tarse'*). YA'ni, tarse'da misralardagi barcha so'zlar o'zaro qofiyadosh bo'ladi, Z.da esa keltirilgan baytdagi kabi (sol – ber) bir yoki bir necha qofiyadosh bo'lmagan juftliklar qolishi mumkin.

**ZULQOFIYATAYN** (ar. ذوالقافيتين – ikki qofiyali) – qofiya bilan bog'liq she'r san'atlaridan biri, bayt tarkibida asosiy qofiyadan tashqari yana bitta qofiyadosh so'zlar juftligini keltirish, ya'ni Z. baytda qofiyadosh so'zlar juftligi ikkita bo'lishini taqozo qiladi. Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidan olingan quyidagi bayt Z.ga misol bo'ladi:

**Lola** qadahini **toshqa** urdung,

**Jola** guharini **boshqa** urdung.

**IBTIDO** (ar. ابتدا - boshlanish) – qarang: **taqti'**

**IBHOM** (ar. ابهام – yopiq so'zlash, yopib o'tmoq, berkitmoq) – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'atlardan biri. I.da gap bo'laklari (asosan, bosh bo'laklar) shunday joylashtiriladiki, ularning sintaktik vazifasini turlicha (ya'ni, egani kesim, kesimni ega tarzida) tushunish mumkin bo'ladi va shu asosda boshqa bir ma'no kelib chiqadi. YA'ni, I. qo'llangan bayt(misra)dagi gap bo'laklarining o'rnini almashtirib, shunga mos urg'u va ohangda o'qilsa, baytning ikkinchi ma'nosi kelib chiqadi. Masalan, “Visoling shavqidan kun bo'ldi tun” misrasida “tun” ega deb tushnilsa, “tun yorishdi” ma'nosi; “kun” ega deb tushunilganda esa “kun tunga aylandi, kunning o'tgani bilinmay qoldi” ma'nosi anglashilishi mumkin. “Qutadg'u bilig”dagi:

Ba'zisi zolimdan chekadi alam,

Ba'ziga yo'qchilik keltiradi g'am, –

baytida “yo'qchilik keltiradi g'am” jumlasini “yo'qchilik kishiga g'am keltiradi, kishi yo'qchilik tufayli g'am chekadi” tarzida ham, “g'am insonga yo'qchilik keltiradi, g'am chekkan inson yo'chilikka uchrashi mumkin” tarzida ham tushunish mumkin. I. san'ati mumtoz she'riyatda u qadar faol qo'llanmasa ham, o'ziga xosligi bilan hamisha ijodkorlar qiziqishiga sabab bo'lib kelgan. SHu bois hozirgi she'riyatda ham I. san'atining yaxshi namunalarini uchratish mumkin. Masalan, Erkin Vohidovning:

Aslida kim qarardi yotganda xor surma,

Bo'ldi aziz ko'ziga surtganda yor surma,–

matla'sidagi ikkinchi misrani "yor ko'ziga surtgani uchun surma aziz bo'ldi" tarzida ham, "ko'ziga surma surtgani uchun yor aziz bo'ldi" tarzida ham tushunish mumkin.

**ILMI ARUZ** (ar. علم العروض – aruz ilmi) – mumtoz adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi, aruz she'r tizimining o'ziga xos qonuniyatlarini o'rganuvchi soha, aruzshunoslik. I.a.ning asoschisi sifatida IX asrda yashagan arab olimi Halil ibn Ahmad e'tirof etiladi. Arab adabiyoti zaminida paydo bo'lgan aruz she'r tizimi o'tgan asrlar davomida maxsus o'rganilib, alohida ilm sifatida takomillashib bordi, aruz nazariyasiga doir ko'plab tadqiqotlar yaratildi. Halil ibn Ahmaddan keyin arab aruzshunosligida Ibn Usmon Maziniy, Imom Ahmad ibn Abdurabbih, Ibn al-Xatib at-Tabriziy; fors aruzshunosligida Mavlono YUsof Nishoburiy, Rashididdin Votvot, SHams Qays, Nasiriddin Tusiy, Salmon Savojiy, Abdurahmon Jomiy; turkiy aruzshunoslikda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, SHayx Ahmad Xudoydod Taroziy kabi olimlar yaratgan asarlar I.a.ning rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan. Bundan tashqari, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abul Qosim Zamahshariy, Abu YA'qub YUsof ibn Abubakr Sakkokiy kabi allomalarning boshqa masalalarga bag'ishlangan risolalarida ham aruzga oid qimmatli fikr-mulohazalar bildirilganki, I.a. rivojida ularning ham sezilarli ulushi borligi e'tirof etiladi. Hozirgi o'zbek adabiyotshunosligida ham aruz masalalari atroflicha chuqur tadqiq etilgan: o'tgan asrning 20-yillarida Fitrat boshlab bergan aruzshunoslik bobidagi izlanishlarni keyincha S.Mirzaev, A.Rustamov, U.To'ychiev, S.Hasanov, A.Hojiahmedov, A.A'zamov kabi ko'plab olimlar muvaffaqiyatli davom ettirdilar.

**MUJTASS** (ar. مجتث – ildizi bilan yulingan) – aruz bahrlaridan biri, xafifdan yulib olinganga o'xshaganligi uchun shunday nomlanadi. *Mustaf'ilun* (– – v –) va *foilotun* (– v –) asllarining ketma-ket takroridan hosil bo'ladi. O'zbek she'riyatida faol qo'llanadigan bahrlardan biri. Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida M. bahrining to'qqiz vazni, Boburning "Muxtasar"ida esa yigirma vazni misollar bilan ko'rsatib berilgan. SHE'riyatimizda mazkur bahrning, asosan, beshta vaznidan foydalanilgan. Atoyi, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy, Munis, Ogahiy, Nodira kabi mumtoz shoirlar ijodida M. bahrining bir necha vaznida yozilgan she'rlar uchraydi. Navoiyning "Xazoyin-ul maoniy" kulliyotida esa 348 ta she'r (11 foiz) M. bahrida yaratilgan. M. ning o'ziga xos jihatlaridan biri uning ko'p vaznli ekanligidir, ya'ni bir she'rda uning bir necha vaznlari aralash qo'llanishi mumkin. Bu esa she'rga o'ziga xos o'ynoqi ohang baxsh etadi. Navoiyning quyidagi bayti *mujtassi musammani maxbuni maqsur* (v – v – / – v – – / v – v – / – v ~) vaznida yozilgan:

Ko'ngul haroratin anglatti ohi dardolud,  
Uy ichra o't ekanin elga zohir aylar dud.

Nodiraning mashhur:

Nigori gulbadanimni tushimda ko'rsam edim,  
Labi shirinshikanimni tutsshimda ko'rsam edim

matla'li g'azali esa *mujtassi musammani maxbuni mahzuf* (v – v – / v v – – / v – v – / v v –) vaznidadir.

**MUZORI'** (ar. مضارع – o'xshovchi) – aruz bahrlaridan biri, hazaj bahriga o'xshagani uchun shunday nomlangan. Mafoiylun (v – – –) va foilotun (– v – –) asllarining ketma-ket takroridan hosil bo'ladi. M. she'riyatimizda ancha keng

qo'llanadigan bahrlardan sanaladi. Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarida M.ning o'n ikki vazni, Boburning "Muxtasar"ida yigirma to'rt vazni misollar bilan ko'rsatib berilgan. "Qissasi Rabg'uziy"dan boshlab Atoyi, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy kabi mumtoz shoirlar ijodida M. bahrining bir necha vaznlaridan foydalanilgan. Xususan, Navoiyning "Xazoyin-ul maoniy" devonidagi 105 ta turli janrdagi she'rlar mana shu bahrda yaratilgan. Masalan, Navoiy:

Ishqu junun erurlar beixtiyor manda,  
Mendurmanu bu ikki, o'zga ne bor manda.

baytini *muzori'i musammani axrab* (– – v / – v – – / – – v / – v – –) vazniga misol sifatida keltirgan.

## V. ILOVALAR

### 1. ISHCHI O'QUV DASTURI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**  
**O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

**«TASDIQLAYMAN»**

O'quv ishlari bo'yicha prorektor  
v.v.b. \_\_\_\_\_ b.f.n. D.Dehqonov  
« \_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2019 yil

**“Aruz vazni”  
fanining**

**ISHCHI O'QUV DASTURI**  
**2019/2020 o'quv yili kunduzgi ta'lim shakli 3-kurslari uchun**

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Bakalavriat yo'nalishi:	5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek filologiyasi)

**NAMANGAN – 2019**

Fanning ishchi o'quv dasturi Namangan davlat universitetiybyu 2019-y. “\_\_”  
\_\_\_\_\_ \_\_1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq  
tuzilgan.

**Tuzuvchi:**

**PhD, dots. A.Qurboyov**

Fanning ishchi o'quv dasturi o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining 2019 yil \_\_-  
avgustdagi 1–sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet Kengashida ko'rib  
chiqish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:**

**N.Uluqov, f.f.d., prof.**

Ishchi o'quv dastur filologiya fakultetining 2019 yil \_\_-avgustdagi 1-sonli  
Kengashida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

**Fakultet kengashi raisi:**

**Q.Sidiqov**

**Kelishildi:**

**O'quv- uslubiy boshqarma boshlig'i:**

**Z.Mo'minov**

## O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ma'lumki, ming yillik ta'rixga ega bo'lgan o'tmish mumtoz adabiyotining asosiy vazni aruzdir. Aruz vaznida g'azal, mustazod, murabba', muxammas, musaddas, noma, ruboiy, tuyuq, tarkibband, tarje'band, fard, qit'a, chiston, ta'rix, masnaviy kabi she'riy janrlarga mansub bo'lgan ko'plab badiiy asarlar yaratilgan. O'tmish adabiyoti ma'lum ma'noda aruz adabiyotidir. Binobarin, mumtoz adabiyotning g'oyaviy mazmuni va badiiyatini yaxshiroq va chuqurroq anglash uchun aruz vazni va uning o'ziga xos xususiyatlaridan ham xabardor bo'lmoq lozim.

### O'quv fanining maqsad va vazifalari

**Fanning maqsadi** – talabalarda aruz vazni haqida tasavvurlarni shakllantirish.

**Fanning vazifasi** – «Aruz vazni»ni o'qitish davomida talabalarga quyidagi tushunchalarni o'rgatish ko'zda tutilgan:

- Aruz vazning o'tmish she'riyatining asosiy vazni ekanligi;
- Aruz vazning tarixi va bu vazn haqida yaratilgan risolalar;
- Aruz vazning o'ziga xos xususiyatlari: qisqa, cho'ziq va o'ta cho'ziq bo'g'inlar, o'larning o'qilishi;
- Juzvlar: sabab, vatad fosila;
- Ruknlar: asliy va far'iy ruknlar;
- Bahrlar va o'zbek adabiyotida eng ko'p uchraydigan vaznlar.

### Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

**Aruz vazni** o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

mumtoz adabiy merosimiz namunalari aruz vaznida yaratilganligi bois talabalar mazkur vaznning o'ziga xos xususiyatlari, rukn va bahrlar, ularning turlari haqida chuqur bilimga bilim va ko'nikmalarga, mazkur vaznda yaratilgan asarlarni yanada chuqurroq tadqiq etish, ularni baholashda poetik mahorat jihatidan yondashish, muayyan asarning vaznini aniqlay olish, muayyan shoir ijodida qo'llangan vaznlar haqida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish malakasiga ega bo'lishlari kerak.

### Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi

Fanga umumiy 142 soat ajratilgan, ikki semestr – 5,6-semestrlarda o'tiladi. SHundan auditoriya mashg'ulotlari 72 soat bo'lib, har ikki semestr davomida ham haftasiga 2 soatdan o'tiladi.

Semestr	Auditoriya mashg'ulotlari turi bo'yicha o'quv yuklamasi taqsimoti (soat)				Mustaqil ish
	Jami	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Seminar	
5-semestr	38	18	20		36
6-semestr	34	16	18		34
Jami	72	34	38		70

## Ma'ruza mashg'ulotlari mazmuni va unga ajratilgan soatlar

T/r	Mavzular	Qisqacha mazmuni	Soatlar
1	Kirish. Aruz vaznining o'ziga xos xususiyatlari. Qisqa va cho'ziq bo'g'inlar	Aruz vazni. Uning shakllanish tarixi. Arab aruzi. Aruz vaznining fors-tojik adabiyotiga kirib kelishi. Aruzning turkiy adabiyotdagi tarixi. Aruz vaznining misralardagi bo'g'inlar miqdorining tengligi bilan birga, sifatining ham bir xilligiga asoslangan vazn ekanligi. Qisqa va cho'ziq bo'g'inlar.	2
2	O'ta cho'ziq bo'g'inlar.	O'ta cho'ziq bo'g'inlar. Ularning ikki turi. O'ta cho'ziq bo'g'inlarning o'qilish qoidalari. Vasla hodisasi. Qisqa va cho'ziq bo'g'in hosil qilishdagi qo'shimcha qoidalar.	2
3	Qo'shimcha qoidalar	Misralardagi qisqa va cho'ziq bo'g'inlarni to'g'ri belgilash va o'qish uchun hisobga olish zarur bo'lgan qo'shimcha qoidalar. Arabcha-forscha so'zlar. O'zbekcha so'zlar. Ikki, yetti, sakkiz, to'qqiz, achchiq, qattiq xati, siri, duri, anga, manga, sanga guliston, Iskandar, nav', sham' kabi so'zlarning bo'g'in hosil qilishdagi o'ziga xos xususiyatlari.	2
4	Juzvlar. Ruknlar. Bahrlar	Juzvlar: sabab, vatad, fosila. Rukn tushunchasi. Asliy ruknlar: fauvlun, foilun, mafoiylun, foilotun, mustaf'ilun, mafuvlotu, mutafoilun, mafoilatun. Bahr tushunchasi. Ularning hosil bo'lishi: bir xil ruknlardan hosil bo'lgan bahrlar, ikki xil ruknlardan hosil bo'lgan bahrlar	2
5	Zihof va furu'	Zihof va furu' tushunchasi. Asliy ruknlar tarkibida bo'ladigan o'zgarishlar va ularning turlari. "Mafoiylun" rukni va uning zihoflari	2
6	"Mafoiylun" rukni va uning zihoflari	Zihof va furu' tushunchasi. Asliy ruknlar tarkibida bo'ladigan o'zgarishlar va ularning turlari. "Mafoiylun" rukni va uning zihoflari	2
7	Vaznlar. Taqti'	Vazn tushunchasi. Uning amal qilish doirasi. Ruknlarning baytdagi o'rniga	2

		ko'ra nomlanishi: sadr, aruz, ibtido', zarb va hashv. Vaznlarning qaysi asliy va far'iy rukndan hosil bo'lishi va miqdoriga ko'ra nomlanishi. Taqli' qoidasi. Misralarni ruknlarga ajratish jarayoni: baytdagi qisqa va cho'ziq bo'g'inlarni aniqlash, baytni ruknlarga ajratish, ruknlarning nomini aniqlash	
8	Hazaj bahri va uning vaznlari	Hazaj bahrining «mafoiylun» ruknining takroridan hosil bo'lishi. Musaddas vaznlar. Musamman vaznlar	2
9	Hazaj bahri va uning vaznlari	Hazaj bahrining «mafoiylun» ruknining takroridan hosil bo'lishi. Musaddas vaznlar. Musamman vaznlar	2
10	Ruboiy vaznlari	Ruboiy vaznlarining «mafoiylun» ruknining takroridan hosil bo'lishi. Axrab va axram ruknlari	2
11	“Foilotun” rukni va uning zihoflari. Ramal bahri vaznlari	«Foilotun» ruknining o'n xil zihofga uchrashi, buning natijasida uning o'n besh far'iy ko'rinishi yuzaga kelishi. Ramal bahri. Musaddas vaznlar	2
